

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABAB VA
SHAROITLARI HAMDA PROFILAKTIKASI

O'QUV QO'LLANMA

Mas'ul muharrir
SH. T. Ikramov

Toshkent – 2016

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

M u a l l i f l a r :

*yuridik fanlar nomzodi, dotsent **D.M. Mirazov, A.S.Vahidov** (I bob);
yuridik fanlar doktori, professor **Q.R. Abdurasulova,**
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B.E. Zakirov** (II bob);
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent **B.N. Sirliyev, Y.A. Farfiyev** (III bob);
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **J.S. Muxtorov, S.B. Xo‘jaqulov** (IV bob);
B.F. Alimov, A.SH. Murodov (V bob);
Q.A. Saitqulov (VI bob)*

T a q r i z c h i l a r :

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori,
professor **M.H. Rustamboyev;**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining yordamchisi,
yuridik fanlar doktori **A.A.Mirzayev;**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Huquqbazarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi
bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik **I.M. Xoliqov**

A-15 Ayollar jinoyatchiligining sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi:
O‘quv qo‘llanma / Q.R. Abdurasulova, D.M.Mirazov, J.S. Muxtorov va
boshq. – T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 143 b.

Mazkur qo‘llanmada ayollar jinoyatchiligining tarixi, kriminologik tavsifi, sabablari va
ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etish chora-
tadbirlari, jinoyatchi ayollar tipologiyasining mazmuni va mohiyati mavzuga oid ilmiy-
nazariy adabiyotlar, sud-tergov amaliyoti materiallari va statistika ma’lumotlaridan
foydalangan holda ochib berilgan.

Oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi, kursant, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va
mustaqil izlanuvchilari, amaliyot xodimlari, shuningdek keng kitobxonlar ommasiga
mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)8ya73

KIRISH

Ayol – mo‘tabar ona, aziz opa-singil, suykli va vafodor yor, sirdosh, maslahatdosh, tarbiyachi, ustoz, siyosatchi, tashkilotchi, tadbirkor va avlod davomchisidir. Bir so‘z bilan aytganda, ayol – go‘zallik timsolidir. Jamiyatning sog‘lomligi, uning barqarorligi va porloq kelajagi yo‘lida ishlarni amalgalashda ayollarning o‘rni beqiyosdir.

Holbuki, Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Ayol go‘zal bo‘lsa – olam go‘zal, ayol baxtli bo‘lsa – oila, butun jamiyat baxtli bo‘ladi. Biz hech qachon unutmasligimiz zarur – ayolini e’zozlagan erkak baxtli bo‘ladi, ayolini hurmat qilgan millat kam bo‘lmaydi. Ayolni hurmat qilsak, millatni hurmat qilgan bo‘lamiz»¹.

Chunki yurtimizda qadimdan ayollar ulug‘lanib, ularga hurmat e’tibor ko‘rsatilgan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2015-yil 5-dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan «Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat» nomli ma’ruzasida «Sog‘lom bola, sog‘lom avlod orzusi ajodolarimizdan bizga o‘tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog‘lig‘iga juda katta e’tibor bergenini ko‘ramiz. Sog‘lom bola sog‘lom va ahil oilaning mevasi bo‘lib, faqatgina sog‘lom onadan sog‘lom bola tug‘iladi. Asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topgan bu haqiqatni tushuntirib, izohlab o‘tirishning hojati yo‘q» deb ta’kidladi. Ana shunday muhim hayotiy qadriyatni jamiyatimizda yanada chuqr qaror toptirish maqsadida 2016-yil «Sog‘lom ona va bola yili» deb nomlandi. Joriy yilning bunday nomlanishi zamirida ayollarni asrab-avaylash, onalarni sog‘lom avlod zargari, yaratuvchilari sifatida ko‘rish maqsadi yotganini anglash mumkin.

Holbuki, o‘zbek ayollariga teng keladigan ayol yo‘q... bunday ayollarni boshqa hech joyda topolmaysiz. Eng ko‘p mehnat qiladigan,

¹ Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б. 231.

oilani eng sevadigan, oilani haqiqiy oila, erkaklarni erkak qiladigan ham ayollardir¹.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ayollarga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Xususan, respublikamiz xotin-qizlarining ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etayotgan ayollar manfaatini himoya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib, Davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Jumladan, fikrimizni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida fuqarolarning jinsi, millati, diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqli ekanligi, 46-moddasida ayollar va erkaklarning teng huquqligi, 117-moddasida saylash va saylanish huquqlarining kafolatlanganligi bevosita tasdiqlaydi.

Konstitutsiyaning mazkur moddalari ayollarga erkaklar bilan teng asosda ilm olish, kasb egallah, mehnat qilish, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda faoliyat ko'rsatish imkonini beradi. Hozirgi vaqtida respublikamiz ayollari erkaklar bilan bir qatorda jamiyat hayotining turli jabhalarida, jumladan, ilgari faqat erkaklarga imtiyoz berilgan sohalarda ham samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, ayollarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgani va hozirda ham bu jarayon davom etayotganligiga qaramay oila gavhari bo'lmish ayollar tomonidan jinoyatlarning sodir etilishi juda ham ayanchli holdir.

O'tkazilgan tahlillar oxirgi yillarda sodir etilgan jinoyatlarda ayollar ishtiroki 2013-yilda 17,2 foizni, 2014-yilda 16,7 foizni, 2015-yilda 16,0 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda. Keltirilgan raqamlar unchalik ko'pga o'xshamaydi, ammo har bir ayolning zimmasida oilasi, bolalari tarbiyasi, jamiyatimiz kelajagi turganligini ko'z oldimizga keltirsak, bu fikrning to'g'ri emasligiga ishonch qilamiz.

Chunki onasi jinoyatchi bo'lgan oila tanazzulga uchraydi, bolalari nazoratsiz qoladi. Tadqiqotlardan ma'lumki, nazoratsiz qolgan bolalarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga «hissa» qo'shish darajasi yuqori bo'ladi.

¹ Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б. 229 – 230.

Tadqiqotlarga ko‘ra, umumiy jinoyatchilikda ayollar sodir etadigan jinoiy xatti-harakatlar erkaklar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlardan farq qiladi. Shu bois ayollar jinoyatining tabiatini va oqibati, sodir etish usuli va jinoyat qurolini ma’lum bir vaziyatlarda qo‘llanishi, jinoyat sodir etilishida ishtirok etishdagi o‘rni, jinoyat qurbanini tanlash, maishiy turmush sharoiti kabilarga kriminologiyada alohida e’tibor qaratilgan holda tadqiqot ishlari olib boriladi va zarur tavsiyalar beriladi.

Yuqoridaqilarni inobatga olgan holda ta’kidlash joizki, bugungi kun-da ayollar jinoyatchiligi bilan bog‘liq sabab va sharoitlarni kriminologik va jinoyat huquqiy jihatdan o‘rganish hamda ular tomonidan sodir etilayot-gan jinoyatlarning profilaktikasini samarali tashkil etish zarurati mavjud.

Mustaqillik yillarida jinoyatlar, xususan, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning oldini olish masala-lariga mamlakatimiz olimlari – Z.S. Zaripov, I. Ismailov, Y.M. Karaketov, M. Usmonaliyev, M.H. Rustamboyev, Q.R. Abdurasulovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida e’tibor berildi hamda muayyan darajada bilim va qarashlar tizimi shakllandi.

Ushbu qo‘llanmada aynan mazkur ayollar jinoyatchiligiga nisbatan ilmiy-amaliy yondashuv mavjud kriminologik bilimlar, nazariy qoidalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashishga doir amaliy faoliyatidagi faktik ma’lumotlarga asoslanib, ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasini yoritish maqsad qilib olingan.

O‘ylaymizki, mazkur o‘quv qo‘llanma barcha kitobxonlarga, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi, kursant, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilari va amaliyot xodimlariga manzur keladi hamda ayollar jinoyatchilagini o‘rganish, bu borada ilmiy izlanishlar olib borish, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashish va profilaktikasini tashkil etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

I BOB

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

1-§. Ayollar jinoyatchiligining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tahlili

Ayollar jinoyatchiligi umumiylar jinoyatchilikning tuzilishida nisbatan o‘zgarmas kattalikka ega bo‘lgan holda, ijtimoiy shart-sharoitlarga qarab o‘zgarib boradigan, shu bilan bir vaqtida umuman jinoyatchilik (erkaklar jinoyatchiligi)dagi o‘zgarishlarni takrorlamaydigan hodisadir. Yuqorida zikr etilgan sabablarga ko‘ra, ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilikning o‘sib borishga moyil bo‘lgan nisbatan mustaqil qismini tashkil etadi.

Umumiylar jinoyatchilik yoki uning muayyan yo‘nalishi o‘rganilganida albatta, jinoyatchilikning miqdor va sifat ko‘rsatkichiga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki, bu ko‘rsatkichlarsiz jinoyatchilik haqida tasavvurga ega bo‘lishning hech qanday iloji yo‘q. Ushbu ko‘rsatkichlar bir vaqtning o‘zida jinoyatchilikning elementlari deb ham izohlanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar to‘rtta tarkibiy qismdan, ya’ni jinoyatchilikning ahvoli (holati), tuzilishi, darajasi va dinamikasidan iborat bo‘ladi. Kriminologiyada bu ko‘rsatkichlarning mazmun va mohiyati yuzasidan aniq to‘xtamga kelib bo‘lingan. Ular asosida ko‘rsatkichlarga nisbatan muayyan ta’riflar shakllantirilgan. Aynan mazkur ko‘rsatkichlar ayollar jinoyatchiligining ham miqdor va sifat ko‘rsatkichlari mazmunini ochib beradi. Shu boisdan ularga tayanib ayollar jinoyatchiligining elementlarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

ayollar jinoyatchiligining ahvoli (holati) – bu ma’lum bir davrda va ma’lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar hamda jinoyatchi ayollar yig‘indisi;

ayollar jinoyatchiligining tuzilishi – ma’lum bir davrda va ma’lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan muayyan jinoyatlarning ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar yoki umumiylar jinoyatlar nisbati, ya’ni ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar qaysi turdagilardan iboratligini anglatadi.

Ayollar jinoyatchiligining tuzilishini aniqlash uchun muayyan formula asosida hisoblash talab etilmaydi, oddiy statistik ko‘rsatkichlarda ushbu tuzilishni anglab olish mumkin hisoblanadi;

ayollar jinoyatchiligining darajasi – bu ma’lum bir davrda va ma’lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar yoki ularni sodir etgan ayollar ko‘rsatkichlarining ushbu hududda yashovchi

ayollar soniga nisbatiga aytildi, ya’ni hududda yashovchi jami ayollarning qancha qismiga nechta ayollar ishtirokida sodir etilgan jinoyat yoki jinoyatchi ayol to‘g‘ri kelishi tushuniladi.

Formula,

AJЧ 1000=Aj.d

As

Aj – ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar soni;

1000 – nisbiy ko‘rsatkich hisoblanib, uning o‘rniga 10, 100 yoki 10000 sonini ham ishlatalish mumkin. Bu sonlarni tanlash ma’muriy hududda yashovchi ayollar sonining qanchalik ko‘p yoki kamligi bilan bog‘liq bo‘ladi;

As – ma’muriy hududda yashovchi jami ayollar soni;

Aj.d – ayollar jinoyatchiligining darajasi (koeffitsiyenti).

Yuqorida ayollar jinoyatchiligining darajasiga berilgan ta’rifda ma’muriy hududda yashovchi ayollarning muayyan qismiga ayollar ishtirokida sodir etilgan nechta jinoyat to‘g‘ri kelishi bilan birga qancha jinoyat sodir etgan ayollar to‘g‘ri kelishini aniqlashga urg‘u berilgan edi. Shu munosabat bilan jinoyatchi ayollarning nisbati ham keltirilgan formula orqali aniqlanishi mumkin bo‘ladi. Buning uchun faqat ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar o‘rniga jinoyatchi ayollar ko‘rsatkichidan foydalaniladi;

ayollar jinoyatchiligining dinamikasi – bu ma’lum bir davrda va ma’lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar yoki jinoyatchi ayollar ko‘rsatkichlarining boshqa davrga nisbatiga aytildi, ya’ni o‘sgan yoki kamayganligi tushuniladi.

Ayollar jinoyatchiligining dinamikasini aniqlash ham xuddi uning tuzilishini aniqlash kabi muayyan formula asosida ishlashni talab etmaydi. Bu borada muayyan ko‘rsatkichlar taqqoslanadi xolos.

An’anaga ko‘ra, ayollar erkaklarga qaraganda ancha kam jinoyat sodir etadi. Uzoq vaqt mobaynida erkaklar va ayollar jinoyatchiligining nisbati taxminan 7:1, 6:1ni tashkil etib kelgan. Odatda, poraxo‘rlik, o‘zlashtirish, rastrata yoki xizmat vakolatini suiiste’mol qilish yo‘li bilan talon-toroj qilish, xaridor yoki buyurtmachilarни aldash kabi jinoyatlar bundan mustasno bo‘lgan. Mazkur jinoyat turlarida ayollar odatda aniqlangan jami jinoyatchilarning yarmini tashkil etgan. Bu holat xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy roli va funksiyalari, ular ijtimoiy ishlab chiqarishning ma’lum sohalari: savdo, umumiyligi ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishda band ekanligi bilan izohlanadi. Bu yerda sobiq Ittifoqda

mazkur sohalarda ko'rsatiladigan xizmat darajasining pastligi, aholiga zarur bo'lgan tovar va xizmatlarning surunkali taqchilligi ham o'z ta'sirini ko'rsatganki, bular har xil qonunbuzarliklar, xizmat vakolatini suiiste'mol qilishlar va pirovard natijada jinoyatlarga qulay zamin yaratgan.

Statistika ma'lumotlari ayollar jinoyatchiligi tuzilishida iqtisodiyot sohasidagi, jumladan o'g'rilik, firibgarlik, bezorilik, giyohvandlik vositalarini tayyorlash va o'tkazish kabi «umumiylar» jinoyatlarning salmog'i ancha kattaligidan dalolat beradi. Odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish kabi jinoyatlarni ayollar ko'pincha oilaviy-maishiy mojarolar negizida sodir etadilar, bunda ko'pincha jabrlanuvchilar, asosan aybdorlarning er yoki jazmanining viktim, provokatsion xulq-atvori yetakchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham boshqa chet el davlatlardagi singari onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi ayollarga xos jinoyat bo'lib qolayotir. «Odam o'ldirishning boshqa turlaridan farqli o'laroq, yangi tug'ilgan chaqaloqni o'ldirish qishloq joylarida ham tarqalgan. Qator hollarda bu jinoyatlarning orqasida aybdorning eri yoki jazmani turadi, mazkur jinoyatlar zikr etilgan shaxslarning ta'sirida yoki ularning roziliği bilan sodir etiladi»¹. Bezorilik xatti-harakatlarini sodir etgan shaxslar orasida ayollarning salmog'i odatda 5-6 foizni, barcha ayol jinoyatchilar orasida esa 3-4 foizni tashkil etadi. Erkaklar singari ayollar ham bezorilikni odatda mast holatda sodir etadi, bu surunkali ravishda alkogolli ichimliklarni iste'mol qilish, g'ayriijtimoiy turmush tarzining, ba'zan ruhiy xastalik bilan bog'liq umumiylar ma'naviy tanazzulning oqibati hisoblanadi.

Jinoyatchi ayollar orasida daydi ayollarning salmog'i hamisha katta bo'lgan. Ammo 1991-yili bu qilmish Jinoyat kodeksidan dekriminalizatsiya qilindi. Bu, tabiiyki, ayollar umumiylar jinoyatchiligining statistikasida ham o'z aksini topdi. Jinoyatchilikning statistik ko'rsatkichlari yaxshilandi, ammo ijtimoiy hodisa, uning ildizlari saqlanib qoldi.

Mazkur g'ayriijtimoiy hodisaning keskinligini anglagan O'zbekistonda davlat hokimiyati tuzilmalari tomonidan so'nggi davrda bu yo'nalishda ma'lum choralar ko'rildi².

Jinoyatchilik eng avvalo ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun, uning miqdor va sifat xususiyatlari, dinamikasi va tuzilishidagi o'zgarishlarning tub sabablari jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, jug'rofiy-siyosiy va demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

¹ Антонян Ю.М. Преступность среди женщин – М., 1992. – С. 34.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.86.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichi qonuniy ravishda ayollarning shaxs sifatidagi holati o‘zgarishiga olib keladi. Bunday aloqa jinoiy qilmishlar sohasida ham mavjud. Ayollarning bandligi va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik kuzatiladi. Bundan ayollar jinoyatchiligin va umuman jinoyatchilik muammosini muayyan tarixiy shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda o‘rganish kerak bo‘ladi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarning tahlilagina mazkur murakkab muammoni hal qilish imkonini beradi¹.

Tarixiy yondashuv ayollar jinoyatchiligin tuzilishida salbiy tendensiyalar kuchayishining asosiy sababini, iqtisodiy tanazzul bilan bog‘lab o‘rganish lozimligini taqozo etadi.

O‘tgan asrning 20-30-yillarida ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan faqat soni jihatidan emas, balki o‘z xususiyatiga ko‘ra ham farq qilishi aytilgan. Kriminologiya fani o‘sha vaqtdayoq jinoyatchilikni o‘ziga kasb qilib olgan ayollar mavjudligini tan olgan va ularni to‘rtta: qotillar, abort qiluvchilar, qo‘shmachilar, tan jarohati yetkazuvchilar guruhiga ajratgan edi.

O‘tgan asrning 20-50-yillarida ayollar jinoyatchiligin ahvoli, ularning jazoni o‘tash joylaridagi turmush tarzi haqida ma’lumotlar yo‘q. Ammo xalq xo‘jaligining turli sohalarida ayollarning band bo‘lishi, ayollar faolligining ortishi natijasida ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning turi ko‘payganligini kuzatish mumkin.

Aytish joizki, ayollar jinoyatchiligin nazariy va empirik tadqiq etishga erkaklar jinoyatchiliga qaraganda kamroq ahamiyat berildi. Hozirda mavjud bo‘lgan hisobga (ro‘yxatga) olish tizimi faqat jinoyatlar sonini tahlil qilish imkonini beradi. Boshqa axborotlarni olish uchun esa bir qator sotsiologik (hujjatlarni o‘rganish, so‘rovlar o‘tkazish, anketa savollariga javoblar olish, kuzatuv olib borish va h.k.) tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o‘zgarmas emas, balki hayotning turli sohalaridagi o‘zgarishlar, albatta, uning tuzilishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va u ilgari o‘zida bo‘lmagan xususiyatlarni kasb etib boradi.

Bu esa ayollar jinoyatchiligin atroficha o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltirib chiqaradi, chunki ayollar jinoyatchiligi umumiyl jinoyatchilik tuzilishi va ayrim turdagil jinoyatlar tuzilishining anchagina qismini tashkil qiladi.

¹ Серебрякова В.А. Криминологическая характеристика женщин-преступниц // Вопросы борьбы с преступностью. – 1971. – №14.– С. 5.

Sobiq sovet davlatida ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ayollar jinoyatchiligining miqdor ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan, mahkumlar orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etgan, 50-yillarda esa ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining kamayganligi va o'tgan asrning 80-yillarining oxirigacha bu ko'rsatkichning o'zgarmaganligi kuzatiladi. Ammo jamiyatimizda ro'y bergan o'zgarishlar, o'tish davri murakkabliklari tufayli 90-yillardan boshlab ayollar jinoyatining o'sib borayotganligi tashvishlanarli holdir.

Uzoq vaqt mobaynida ayollar jinoyatchiligi tuzilishida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi, ammo bu tizimga kiruvchi qismlarda o'zgarishlar bo'lgan. Bu hol avvalo erkaklar va ayollar xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishida o'g'irlik, tovlamachilik, firibgarlik, giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi, savdo qoidalarini buzish, fohishaxonalar saqlash, qasddan badanga shikast yetkazish, xaridor va buyurtmachilarni aldash, tanosil kasalliklarini yuqtirish ko'pchilikni tashkil etadi¹. Ayollar, hatto eng og'ir jinoyat qasddan odam o'ldirishga ham qo'l urishmoqda.

Ayollar jinoyatchiligidagi tamagirlik jinoyatlarining soni ko'pchilikni tashkil etib kelgan. Bu tarixiy fakt, 50 yil oldin va hozirda ham shunday. Shu bilan birga, ayollar jinoiy faoliyatining tamagirlik yo'nalishini amalga oshirishning anchagina nozik mexanizmlari mavjuddir. Ayollarning kasbiy faolligi jinoyatchilarining jamiyatga qarshi qaratilgan maqsadlarini amalga oshirishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishidagi sifat o'zgarishlari turli ma'muriy-hududiy bo'linmalarda bir xil bo'lmaydi. Turli viloyatlarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning turi ham bir xil emas. Masalan, 2014–2015-yillarni taqqoslaydigan bo'lsak, respublikaning ayrim viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining oldini olish borasidagi ishlar e'tibordan chetda qolganligi natijasida viloyatlar bo'yicha bu turdag'i jinoyatchilik ko'rsatkichi respublika miqyosidagi ko'rsatkichlardan ortib ketgan.

Bu ko'rsatkich 2014-yilga nisbatan 4,6 foizga kamaygan bo'lsa-da, biroq Farg'ona viloyatida 8,9 foiz, Surxondaryo viloyatida 2,7 foiz, Buxoro viloyatida 0,3 foizga oshganligi kuzatiladi.

Respublika bo'yicha ayollar tomonidan jinoyat qidiruv yo'nalishida sodir etilgan bezorilik jinoyati 16,7 foiz, firibgarlik jinoyati 13,1 foiz, qasd-

¹ Халимов X.A. Аёл – оила қўргони // Қонун ҳимоясида. –1998. – №8. – Б.34.

dan og‘ir tan jarohati yetkazish jinoyati 10,7 foiz, tovlamachilik jinoyati 8,8 foizga oshganligi namoyon bo‘ladi.

Mazkur jinoyatlar viloyatlar kesimida tahlil qilinganida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 12,7 foiz, Navoiy viloyatida 12,6 foiz, Xorazm viloyatida 8,0 foiz, Buxoro viloyatida 5,8 foiz, Surxondaryo viloyatida 2,4 foiz va Toshkent viloyatida 0,5 foizga oshganligi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ayollar ko‘proq Farg‘ona, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida jinoyat sodir etishda ishtirok etganlar.

Qaysi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar asta-sekin amalga oshayotgan va aholi turli qatlamlari turmush darajasiga keskin ta’sir ko‘rsatmayotgan bo‘lsa, o‘sha yerda ayollar jinoyatchiligining koeffitsiyenti pastdir.

Ayollar jinoyatchiligining darajasini o‘rganish bir necha xil yonda shuvni talab etadi. Jumladan, ayollar jinoyatchiligining darjasи o‘rganilganda muayyan davr va hududda jinoyat sodir etgan jami ayollar o‘sha davr va hududda yashovchi jami ayollarga, jami aholiga yoki jinoyat sodir etgan jami shaxslarga nisbat qilib olinishi mumkin sanaladi.

Ayollar tomonidan shahar va qishloqda sodir etiladigan jinoyatlarning ma’lum farqlari mavjud. Xususan, shaharga xos jinoyatlar – o‘g‘rilik, firibgarlik, savdo qoidalarini buzish, o‘zlashtirish, badanga shikast yetkazish hisoblansa; qishloqda esa – taqiqlangan ekinlarni yetishtirish ko‘proq uchraydi.

Bundan tashqari, shahar joylarda oilaviy mojarolar natijasida shaxsga qarshi jinoyatlar ko‘proq sodir etiladi. Masalan, fuqaro SH. TTZ zavodida shtampovkachi bo‘lib ishlagan va shu zavodda yig‘uvchi slesar bo‘lib ishlovchi turmush o‘rtog‘i bilan zavodga qarashli Buyuk ipak yo‘li ko‘chasiда joylashgan 4-yotoqxonada istiqomat qilgan. Ikki nafar farzandlari bor fuqaro SH. turmush o‘rtog‘ini shu yotoqxonada yashovchi fuqaro A.ga rashk qilishi tufayli tez-tez janjal bo‘lib turgan. Navbatdagi janjallardan birida fuqaro SH. stol ustida turgan oshxona pichog‘ini olib, erining qorniga sanchadi. So‘ngra erini shu ahvolda qoldiradi va pichoqni lattaga o‘rab, «Do‘rmon» qishlog‘i hududidan oqib o‘tuvchi ariqqa tashlab yuboradi¹.

Ayollar jinoyatchiligining yana bir xususiyati – bu o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar sonining juda kam ekanligidadir.

Ammo haqiqatda esa ular sodir etilgan ayrim jinoyatlar (masalan, o‘g‘rilik, firibgarlik va hokazolar)ning retsidivi yuqori hisoblanadi. Qasd-

¹ Ташкент шаҳар Мирзо Улугбек тумани суди архивидан. 184-94 сонли жиноят иши.

dan badanga shikast yetkazish, qasddan odam o'ldirish kabi jinoyatlarning retsidivi mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan bir necha marta kam.

Ayollarga xos xususiyatlardan yana biri ular jinoyatni asosan yolg'iz o'zlar sodir etadilar. Guruh tarkibida ko'pincha o'g'rilik, kasb bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etadilar. Talonchilik, bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishda ular asosan yordamchi sifatida ishtirok etadilar.

Ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bevosita jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat ayollar, balki umumiy jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Hozirgi zamon ayollar jinoyatchiliga kriminologik tavsif berishda erkaklar va ayollarning aggressiv xulq-atvorida jiddiy farqlar mavjudligiga, jumladan, maniakal-seksual xususiyatga ega bo'lgan qotilliklar ayollar uchun, hatto har xil ruhiy kasalliklarga ega shaxslar uchun ham qoidadan ko'ra ko'proq istisno tariqasidagi holat hisoblanadi. Yuridik amaliyotda bunday turdagagi aggressiya namoyon bo'lgan holatlar kamdan-kam uchraydi. Shunda ham ular asosan ayollar guruhining bezorilik yo'nalishidagi harakatlariga tegishli bo'lib, surunkali xususiyatga ega bo'lmaydi. Buni bevosita potensial jinoyat sodir etish jarayonida ayollarning erkaklarga nisbatan jismoniy zaifligi bilan izohlash mumkin. Mazkur vaziyatda xotinqizlarning bu turdagagi jinoiy qilmishlarining obyektlarini voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Biroq, jinoyat statistikasi tahlil qilinganida, bunday xulq-atvor hatto voyaga yetmaganlarga nisbatan ham tipik emasligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ushbu holatni maxsus tadqiqotlarning natijalari ham tasdiqlaydi. Balki zo'ravonlik harakatlarining obyekti sifatida voyaga yetmaganlarni tanlashga to'sqinlik qiluvchi onalik instinkti o'z ta'sirini ko'rsatar? Biroq bu holda onalar tomonidan yangi tug'ilgan o'z chaqaloqlarining o'ldirilishi ancha keng tarqalganini qanday izohlash mumkin?

Ushbu savolga javob topishda CH. Lombrozo bir asr muqaddam keltirgan dalillarga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. U mazkur hodisani o'zining mashhur «Jinoyatchi va fohisha ayol» asarida ayollarning jinoyatga moyilligi ko'pincha fohishalik bilan shug'ullanishida o'z aksini topishi bilan tushuntiradi. Ayollarning jinoyat sodir etishga moyilligini ma'lum darajada amalga oshmagan seksual fantaziyalari, mayllari, istaklaridan qutulish imkoniyati sifatida qarash mumkin deb hisoblaydi.

Mazkur muammoli vaziyatning chuqurroq tahlili o‘z o‘zidan uning mohiyatini anglash imkonini beradi. Buning uchun nafaqat jinslarning ijtimoiy roli – dimorfizmi sohasidagi, balki xulq-atvor reaksiyalarini chuqr o‘rganishga asoslangan patopsixologiya va seksopatologiya sohasidagi ilmiy bilimlarga tayanish ham talab etiladi. Chunki erkaklar va ayollarning aggressiv xulq-atvoridagi ko‘rsatkichlar eng yorqin farqlardan biridir. Bu o‘rinda aggressiv shaxs tipi kriminologik tadqiqotlarda jinoyatchilarni tiplarga ajratishda eng ko‘p e’tibor beriladigan shaxsning asosiy tiplaridan biri ekanligini ham unutmaslik kerak.

Umuman erkaklar jinoyatchiligidan farq qiluvchi ayollar jinoyatchiligining xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1) ayollar soni mamlakatdagi erkaklardan ko‘p (Respublika aholisining 50,2 foiz) bo‘lishiga qaramasdan, ayollar jinoyatchiligi erkaklarnikiga nisbatan bir necha marta kam va ilgari ham shunday bo‘lgan;

2) ayollar jinoyatchiligidagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan erkaklar jinoyatchiligidagi o‘zgarishlar bir xil emas. O‘zgarishlar umuman va ayrim jinoyat turlari bo‘yicha ham mos kelmaydi;

3) ayollar jinoyatchiligi o‘z tuzilishiga ko‘ra erkaklar jinoyatchiliginini takrorlamaydi va undan miqdor jihatni bilangina emas, balki sifat ko‘rsatkichlariga ko‘ra ham farq qiladi. Umumiylar jinoyatchilikka ayollar jinoyatchiligi asosan o‘zigagina xos bo‘lgan jinoyat turlarini sodir etish bilan hissa qo‘sadi. Bu jinoyatlarning sodir etilishi ma’lum ma’noda ba’zi vaziyatlar, konkret mikromuhitda, muayyan vaqtida shakllangan ayollarning xulq-atvori bilan bog‘liqdir.

Ayollar jinoyatchiligidagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish birinchi navbatda:

a) ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning statistik qonuniyatlarini;

b) ayol jinoyatchiga kriminologik tavsif berishni;

d) ayollar jinoyatchiligi tuzilishini aniqlash imkonini beradi.

Qisqa qilib aytganda, erkaklar va ayollar jinoyatchiligining nafaqat o‘xshash tomonlari va farqlarini, balki ular rivojining yo‘nalishi, o‘ziga xos xususiyatlari va sifatiy o‘zgarishlarni aniqlash fan uchun ham, amaliy faoliyat yuritishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayollar jinoyatchiligidagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar erkaklar jinoyatchiligidagi bilan parallel holda bormaydi, ayollar jinoyatchiligi nisbatan mustaqil holda rivojlanadi. Ammo jinoyatchilik bir butun holda o‘zini tashkil etuvchi qismlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir qarama-qarshi aloqani vujudga keltiradi. Ya’ni ayollar jinoyatchiligidagi ro‘y bergen

o‘zgarishlar umuman jinoyatlar va uning tuzilishida ham o‘zgarishlar ro‘y berishiga olib keladi.

Ayollar jinoyatchiligin tahlil etishda bu ijtimoiy hodisaning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi belgilar asos bo‘lib xizmat qiladi. Fikrimizcha, birinchi navbatda ayollar sodir etgan jinoyatlarni tahlil etishda jinoyatlarning tarqalganlik va og‘irlik darajasiga e’tibor qaratish lozim. Jinoyatlarni bu belgilar bo‘yicha tasniflash ayollar jinoyatchiligidagi ro‘y bergen asosiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Yana bir belgi jinoyatning motivi esa ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning xususiyatini yanada chuqurroq tahlil etishga imkon beradi.

2-§. Jinoyat sodir etgan ayollar tipologiyasi

Insoniyat o‘zligini anglay boshlabdiki, uni tashqi olam sir-sinoatlari bilan birga insonlar nima uchun jinoyat sodir etadi, shaxs jinoyatchi bo‘lib tug‘iladimi yoki jinoyatchi shaxs sifatida shakllanadimi mazmunidagi savollarga javob topish qiziqtirib kelgan. Bu borada jinsiy o‘ziga xoslik muhim ahamiyatga ega. Aniqrog‘i, erkaklar va ayollar jinoyatchiliginining farqli tomonlarini, xususan, ularning ijtimoiy va biologik xususiyatlarini aynan jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabablari sifatida o‘rganish dolzarblik kasb etadi. Umuman olganda, bunday farqlash an’anaga ko‘ra jinoiy xulq-atvorni tushuntirishga nisbatan umumiy yondashuvlarga ham xosdir.

Kriminologiyada jinoyatchilik umumiy ko‘rinishda, shuningdek uning ayrim yo‘nalishlari alohida ko‘rinishda o‘rganiladi. Misol uchun, ayollar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, retsidiv jinoyatchilik yoki uyushgan jinoyatchilik kabi. Ularning har biriga ta’rif berilganda albatta, jinoyatchilikka berilgan ta’rifga asoslaniladi. Shu tariqa, *ayollar jinoyatchiligi deganda*, muayyan hududda, ma’lum vaqt mobaynida ayol jinsidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yig‘indisi tushuniladi.

Ilmiy an’anaga ko‘ra qaror topgan jinoyatchi shaxsining tipologik tavsifi va mazkur muammoga bag‘ishlangan maxsus ishlarning natijalarini hamda shaxsiy izlanishlarimiz asosida chiqarilgan xulosalarga tayangan holda, ayollar jinoyatchiligi motivatsiyasining xususiyati va mazmuniga ko‘ra, umumiy ko‘rinishda ayollarni quyidagi jinoiy tiplarga ajratish mumkin:

a) zo ‘ravon shaxs tipi – bu tipga odatda maishiy zaminda bezorilik harakatlari, odam o‘ldirish va badanga shikast yetkazish, o‘z chaqalog‘ini o‘ldirish jinoyatlarini sodir etuvchi ayollarni kiritish mumkin. Bular inson

hayoti, sog‘lig‘i jismoniy daxlsizligi va boshqalarga salbiy munosabatda bo‘lgan shaxslardir. Masalan, Muborak tumani jinoyat ishlari bo‘yicha sudining hukmi bilan A. N. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25, 97-moddasi 1-qismi bilan aybli topilib, unga 10 yil ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan.

Sudning hukmiga ko‘ra A. N. Muborak shahri, 4 «a» mittitumanda joylashgan «Alvon yelkanlar» nomli bolalar bog‘chasi oldida R.O. bilan janjallashib qolib, o‘zi bilan olib yurgan pichoqni olib, R.Oni qasddan o‘ldirish maqsadida unga pichoq uradi. Ammo A. N. o‘zining jinoiy harakatini oxiriga yetkaza olmagan;

b) g‘araz maqsadli zo‘ravon tip – shaxsiy, avvalambor, moddiy manfaatlarga har qanday yo‘l bilan, jumladan, inson hayotini garovga qo‘yib bo‘lsa ham erishishni nazarda tutadigan g‘ayriijtimoiy qarashlarni puxta o‘zlashtirgan, ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori bo‘lgan shaxs tipi. Masalan, Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha sudining hukmiga ko‘ra M.J. (hech qayerda ishla maydi) Shahrисabz shahrida G.CH. bilan qonuniy nikohsiz birga yashagan, mulkiga egalik qilish uchun uning ojizligidan foydalanib, g‘araz maqsadda G.CH.ning bo‘yniga bir marta pichoq urib, keyin bo‘g‘ib o‘ldirib, 51822900 so‘mlik ro‘zg‘or buyumlarini mashina topib, ortib murdaga va uyga o‘t qo‘yib ketganligi uchun Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «v» bandi, 173-moddasi 2-qismi «b», «v» bandlari, 166-moddasi 4-qismi «a» bandlari bilan aybli deb topilib, jinoyatlar jami bo‘yicha 16 (o‘n olti) yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan.

Qonunga binoan g‘araz maqsadda odam o‘ldirilganida Jinoyat kodeksining 166-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish maqsadga muvofiq emas.

M.J. esa marhum G.CH.ning mulkini egallash maqsadi uning bo‘yniga pichoq urib, keyin o‘ta rahmsizlarcha bo‘g‘ib o‘ldirib, jinoyat izlarini yashirish maqsadida ko‘pchilik yashaydigan, atrofdagilar uchun xavflilagini bila turib uyga o‘t qo‘yib ketgan;

d) tamagir tip – jinoyatchi ayollarning g‘arazli tipiga xos bo‘lgan motivatsiya, shu jumladan oilaviy barqarorlikni ta‘minlash zarurati bilan bog‘liq motivatsiyali shaxs tipi. Masalan, Qarshi shahri jinoyat ishlari bo‘yicha sudining hukmi bilan T.N. fuqaro R.Q.ning uy sotib olmoqchi bo‘lib yurganligini eshitib, firibgarlik yo‘li bilan, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan uning mulkini qo‘lga kiritish maqsadida o‘ziga tegishli bo‘lmagan uy-joyni o‘zimga tegishli uy-joy, shuni Sizga sotaman deb, R.Q.dan 6500000 so‘m pulini olib o‘ziga o‘zlashtirganlikda,

fuqaro X.S.ga uning gilamlarini sotib beraman deb, uning 1700000 so‘mlik gilamini aldab olib, o‘zining shaxsiga o‘zlashtirib yuborganlikda, o‘zining bu jinoiy harakatlari bilan o‘zgalarning juda ko‘p miqdorni tashkil etgan 8200000 so‘mlik mulkini qo‘lga kiritib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli topilib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan;

e) *ehtiyyotkor bo‘lmagan tip* – qonun-qoidalarga yengiltaklik, mas’uliyatsizlik bilan, loqayd munosabatda bo‘ladigan shaxslar – tasodifan, ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan ayollarning katta qismini tashkil etadi. Masalan, X.D. o‘ziga tegishli VAZ-21083 rusumli avtomashina Temur Malik ko‘chasi bo‘ylab, J.Obidova ko‘chasi tomonidan Abdullayeva ko‘chasi tomonga soatiga 60 km tezlikda harakatlanib, yo‘l harakati qoidasining 1.4, 3.5-bandi 4-qismi va 16.3-bandi talablariga zid ravishda, ya’ni yo‘l harakati qatnashchilari harakatlanish vaqtida boshqa qatnashchilarning harakatlanishiga xavf tug‘dirmasliklari, harakatlanish jarayonida piyodalar, ayniqsa qariyalarga nisbatan ehtiyyotkorlik choralarini ko‘rishlari va tartibga solingan piyodalar o‘tish joylarida haydovchilar svetoforning ruxsat etuvchi ishorasi yongan taqdirda ham, piyodalarga qatnov qismini shu yo‘nalishda kesib o‘tishni tugallashiga imkon berishlari kerakligi to‘g‘risida talablarni buzib, yo‘l harakati qoidaning 5.16.1-belgisiga amal qilmasdan harakati bo‘yicha piyodalar o‘tish joyidan uning yo‘nalishida o‘ngdan chapga yo‘lni kesib o‘tayotgan 54 yoshli piyoda Y. M.ni urib yuborib, unga hayoti uchun xavfli bo‘lgan og‘ir tan jarohati yetkazgan;

f) *qaram tip* – bu tip vakillariga giyohvandlik vositalari, spirtli ichimliklar yoki turmush o‘rtog‘iga ruhan qaramlik tufayli turli jinoyatlar sodir etish xosdir. Masalan, Kasbi tumani sudining hukmiga ko‘ra A. X. uchta gugurt qutilariga joylangan 13,7 gr. marixuana giyohvandlik vositasi fuqaro X. B.ga 45000 so‘mga sotgan, shuningdek uning uyidan yana 8 ta gugurt qutilariga joylangan 46,7 gr. marixuana giyohvandlik vositasi topilgan. U jinoyatni o‘zi bilan nikohsiz yashab kelgan P. A.ning ta’siri ostida u bilan ishtirokchilikda sodir etgan.

Shaxsning kriminogen motivatsiyaga moyilligining chuqurligi va turg‘unligi jihatidan ayol jinsidagi jinoyatchilarni quyidagi shaxsiy tiplarga ajratish maqsadga muvofiqli:

tasodify jinoyatchi ayollar – tasodify holatlar natijasida, o‘zining avvalgi xulq-atvorining umumiyl tavsifiga zid ravishda jinoyat sodir etgan ayollar;

vaziyatga bog‘liq jinoyatchi ayollar – beqaror shaxsiy xususiyatlar va turmush sharoitlarining ta’sirida jinoyat sodir etgan ayollar;

beqaror jinoyatchi ayollar – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan chekingan, biroq shunga qaramasdan ularni qat’iy o‘zlashtirib olmagan ayollar;

professional jinoyatchi ayollar – jinoyat sodir etish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga qat’iy intiladigan ayollar.

Kriminogen motivatsiyaning xususiyati, chuqurligi va turg‘unligiga asoslangan mazkur tipologiyani keltirar ekanmiz, biz uni sudlanganlik va retsidiivning rasman mavjud ekanligi yo yo‘qligi, tayinlangan jazo turi, yoshi, kasbi va boshqalar, ya’ni shaxsning jinoyat-huquqiy va ijtimoiy-demografik tavsifi mezonlari bilan atayin bog‘lamadik. Shuningdek, tipologiyani jinoiy xatti-harakatlarning xususiyatiga, aniqrog‘i ayollar bajaruvchi kriminal funksiyalarning xususiyatiga qaratishga ham urinmadik, zotan mazkur tipologiya kriminologiya fanida yetarli darajada ko‘rib chiqilgan. Bu qarash aynan shaxsni motivatsiyaning yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganishga asoslangan yondashuvga javob beradi, chunki, bizning fikrimizcha, har qanday retsidiivist ham professional jinoyatchi tipiga mos kelavermasligi, birinchi marta jazoga hukm etilgan shaxs esa qamoqqa tasodifiy holatlar tufayli tushib qolgan bo‘lishi ham mumkin.

Ayollar jinoyatchiligini jinoyatchilikning mustaqil tarkibiy elementi sifatida o‘rganishga XIX asrning ikkinchi yarmida asos solingan bo‘lib, ushbu masalaga dastlab Lamber Adolf Jak Kettle (1796–1874) va Chezare Lombrozo (1836–1909) e’tibor bergen.

Ilmiy statistika asoschilaridan biri, belgiyalik sotsiolog va kriminolog A. Kettle jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilib, «jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, jinsi, kasbi, ma’lumot darajasi, yilning mavsumi va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi»¹, degan xulosaga kelgan. U erkaklar va ayollar jinoyatchiligidagi farqlarni faqat jinslarning jismoniy rivojlanishidagi farq bilan tushuntiribgina qolmay, ayollarning deviant xulq-atvorini ijtimoiy turmushdan uzilganlik, oilaviy majburiyatlar doirasida o‘ralashib qolganlik bilan ham izohladi. Ketlening fikricha, jinoyatga moyillik erkaklarda ayollarga nisbatan kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki ayollar ko‘p jihatdan his-tuyg‘ular ta’siri ostida bo‘ladi, ularga sharm-hayo va kamtarlik xosdir, shuningdek o‘zining ijtimoiy qaramligi va yolg‘izligi tufayli ular jinoyat sodir etish uchun kamroq imkoniyatga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, o‘zining

¹ Кетле А. Человек и развитие его способностей. – СПб., 1865.– С. 7–8.

jismoniy zaifligi tufayli ular (ayollar) jinoyatga turtki beradigan holatlar-
dan doim ham foydalana olmaydilar.

U jinoiy xulq-atvorning vujudga kelishiga ijtimoiy muhit sababchi, ayollarning biologik xususiyatlari jinoyatlarning alohida turlarini belgilaydi yoki ayrim hollarda ularning miqdor ko'rsatkichlarini chegaralaydi, shu bois bu xususiyatlar jinoyatlar sodir etilishining sababi hisoblanmaydi, degan fikrni ilgari surdi. Shuningdek, ayollarning turmushdagi har xil qiyinchiliklardan ruhiy jihatdan kamroq himoyalanganligini ham hisobga olmasa bo'lmaydi, deya ta'kidlaydi A. Kettle.

Antropologik maktab vakillari – CH. Lombrozo va uning Rossiyadagi izdoshi P.N. Tarnovskaya bu hodisani bir qadar boshqacha tushuntirdilar¹. CH. Lombrozo ayollar jinoyatchiligining jadalligi erkaklarnikiga nisbatan past ekanligini ayol organizmining o'ziga xosligi, ayol tabiatini va uning ma'lum darajada «biologik norasoligi» bilan izohladidi. CH. Lombrozoning mashhur g'oyalaridan yana biri bu ayollarning tajovuzkorligiga hayz ko'rish sikllarining katta ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrdir. CH. Lombrozo tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, jinoyat sodir etganligi uchun qamoqqa olingan 80 nafar ayollardan 71 tasi jinoyat sodir etish paytida hayz ko'rgan. CH. Lombrozoning bu nazariyasi hozirgi kunda ham mashhurdir. Jumladan, jahon sud amaliyotida shunday hodisalar ham ma'lumki, yuqorida zikr etilgan holat ayollar tomonidan qasddan shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun chiqarilgan hukmni yumshatishga xizmat qilgan².

Ayollar tomonidan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish har doim ham kriminoglarning e'tiborini tortib kelgan, zotan ayollar tomonidan sodir etiladigan odam o'ldirish va boshqa zo'rlik ishlatib amalga oshiriladi-gan jinoyatlarning darajasi nisbatan yuqori ekanligi ancha oldin aniqlangan.

CH. Lombrozoning izdoshi, italiyalik kriminolog Enriko Ferrining fikricha, ayollar erkaklarga qaraganda shafqatsizroq bo'lib, «ashaddiy» retsidivist ayollar o'z qilmishlaridan eng beshafqat jinoyatchi erkaklarga nisbatan kamroq pushaymon bo'ladilar. CH. Lombrozoning ayollarning ta'sirchanlik darajasi pastligi haqidagi fikrga qo'shilgani holda E.Ferri quyidagicha ta'kidlaydi: «Bu ularda onalik funksiyalarini bajarishlari oqi-

¹ Ломброзо Ч. Женщина-преступница и проститутка.– Киев, 1902; Ломброзо Ч., Ласки Л. Политическая преступность и революция. – СПб., 1906; Тарновская П.Н. Женщины-убийцы. – СПб., 1902.

² Женская преступность. Энциклопедия приключений и катастроф. – Минск, 1996. – С. 517.

batida sodir bo‘ladi, mazkur funksiyalarni bajarish shu qadar ko‘p kuch talab qiladiki, natijada ayollarning biologik rivojlanishi sekinlashadi va ruhiy rivojlanish darajasiga ko‘ra ular bolalar bilan katta odamlar o‘rtasida turadi»¹.

Yuqorida nomi zikr etilgan antropologik maktabning yana bir vakili P.N. Tarnovskayaning ilmiy qarashlari e’tiborga molikdir. U insondagi jinoiy xulq-atvor uning jinoyat sodir etishga biologik moyilligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi, biroq nobop turmush sharoitlari, tarbiya va namunaning salbiy ta’siriga ham e’tiborini qaratadi.

P.N. Tarnovskaya asosan Rossiyaning Yevropa qismi markazida yashovchi 160 nafar odam o‘ldirgan ayollarning shaxsi va xulq-atvorini puxta va mufassal o‘rganib chiqqan. Barcha jinoyatchilar antropologik tekshiruvlardan o‘tkazildi, ko‘pchiligining esa ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, umumiy va og‘riqni his qilish qobiliyatları tekshirib ko‘rildi. Mazkur ayollar va ular oilalarining o‘tmishdagi hayoti, jumladan, kasbi, kasalliklari, fe’l-atvori, nimaga moyilliklari va odatlari haqidagi ma’lumotlar, shuningdek jinoyatchilar bilan suhbatlashish jarayonida olingan psixologik ma’lumotlar to‘plandi.

Olingen materiallar va qiyosiy tahlil asosida P. Tarnovskaya jinoyatchi va jinoyatchi bo‘lmagan ayollar o‘rtasida, shuningdek qotillarning alohida turlari o‘rtasida antropologik xususiyatidagi ayrim farqlar mavjud, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bosh chanog‘i nisbatan yaxshi rivojlanmagan va hajman kichik bo‘lgan, «nasl buzilishining ko‘p sonli anatomic alomatlari – yuz, bosh, quloq, tish distrofiyalari ko‘rinib turgan, sezgi organlarining faoliyatida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, yomon irsiyatdan yanada tubanlashgan qotil ayollar ruhiy va jinsiy jihatdan juda katta kamchiliklarga ega bo‘lganlar. Qiziqqon va jizzaki yoki ma’naviy zaif, yaxshiyomon ishning farqiga bormaydigan, jinsiy funksiyasi noto‘g‘ri rivojlangan yoxud ruhiy va asab xastaliklari bilan kasallangan jinoyatchi ayollar chindan ham o‘sib kelayotgan avlodining zaiflashgan yoki o‘zgargan hayot energiyasining o‘ziga xos noraso mahsulini tashkil etadi... Bular homilda dorlikning birinchi kunlaridanoq noto‘g‘ri rivojlangan odamlardir»².

Uzoq vaqt davomida, ya’ni XX asrning 30-yillariga qadar ayollar tomonidan zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarining sabablari asosan biologik, irsiy omillar bilan izohlanib kelindi. Biroq, shu bilan birga, jinoiy tiplarning faqat fiziologik jihatlarini baholab qolmay, ularning dunyonи his qilish va atrof-muhitni idrok etish sohasini o‘rganishga harakat qilingan

¹ Ферри Э. Преступные типы в искусстве и литературе. – СПб., 1908. – С. 47–48.

² Тарновская П.Н. Женщины убийцы. – М., 1974. – Б. 456.

asarlar ham paydo bo‘la boshladi. Boshqacha aytganda, jinoyatchi ayollarning shaxsini o‘rganishda yana bir yo‘nalish – psixologik yo‘nalish vujudga keldi.

Ayollar jinoiy xulq-atvorining tabiatini va uni vujudga keltirgan sabablar o‘rganilgan boshqa bir qator ishlarni ham tilga olish mumkin, ularning ayrimlarida muayyan misollarni tahlil va talqin qilish usulidan samarali foydalanilgan. Ular jumlasiga Y.K. Krasnushkin va N.G. Xolzakovalarning «Gomoseksualist-qotil ayollar hayotidagi ikki hodisa» maqlasini kiritish mumkin¹. Unda ayollar tomonidan sodir etilgan odam o‘ldirish jinoyatlarining birinchi navbatda keng va chuqur psixologik tahlili berilgan. Qolaversa, bu tahlil psixiatrik xususiyatga ega bo‘lgan noyob kuzatishlar va tibbiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Jinoyatchilikka irsiy omillarning ta’siri ham o‘rganilgan.

Ayollarning tuban xulq-atvorining eng tipik ko‘rinishlaridan biri – ular tomonidan o‘z chaqalog‘ini o‘ldirish sabablari haqidagi ilmiy ishlar ham e’tiborga loyiqidir. 1928-yili B.S. Mankovskiy farzandkushlikning ko‘payishi sabablarini o‘tmishdagi oilaviy negizlarning ijtimoiy bo‘hronlar va inqilobi o‘zgarishlar ta’sirida buzilganligi, yangi turmush tarzi hali yaxshi mustahkamlanib ulgurmaganligi bilan tushuntiradi. Buning natijasida jamiyatda jinsiy munosabatlarga yengiltaklik bilan qarash kuchaydi. Bu yengiltaklik B.S. Mankovskiyning fikricha, nikohsiz homiladorlik va nikohsiz tug‘ilgan bolalar sonining o‘sishiga olib keldi. Bu esa o‘zining ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvoldidan qanday yo‘l bilan bo‘lmashin qutulishni istagan ayollar sonining ortishiga sabab bo‘ldi².

Mazkur ishlarni, ularda mavjud bo‘lgan muammoga yangicha yonda-shuvni va ularning shubhasiz dolzarbligini obyektiv tan olgan holda, bu ishlar, yuqorida tilga olinganidek, faqat tavsifiy xususiyatga ega ekanligini qayd etib o‘tish joiz. Tadqiqotchi kriminologlar o‘z ishlarida ko‘p jihatdan ayollar jinoiy xulq-atvorining ma’lum qonuniyatlarini aniqlaganlar va qayd etganlar, biroq uning determinatsiyasini muvofiq ravishda tushuntirmaganlar.

Mazkur holatni qayd etgan holda, bu tadqiqotlar amalga oshirilgan tarixiy davr, muhit haqida ham unutmasligimiz kerak. Siyosiy tuzum va rasmiy mafkura jinoyatchilikni butunlay yo‘q qilish mumkinligi haqidagi nazariyani inkor etuvchi jinoyatchilikning sabablariga oid biron-bir asos, dalillarning keltirilishiga yo‘l qo‘ymas edi. Tabiiyki, bu vaziyat kriminolo-

¹ Краснушкин Е.К., Холзакова Н.Г. Два случая из жизни женщин убийц-гомосексуалисток. Преступник и преступность. – М., 1926.

² Маньковский Б.С. Детоубийство. Убийства и убийцы. – М., 1928.– С. 261-262.

giya fanining rivojlanishiga, shuningdek ayollar jinoyatchiligi muammlarining o‘rganilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

Jinoyatchilikning mazkur turi faqat XX asrning 70-yillaridan boshlab olimlarning e’tiborini yana o‘ziga torta boshladи. Bunda faqat jinoyatchi ayollar shaxsining statistik qonuniyatları va xususiyatlarigina emas, ularning jinoiy xulq-atvorining turli ko‘rinishlari hamda mikroijtimoiy muhitning, shu jumladan jazoni ijro etish joylaridagi muhitning o‘ziga xos jihatlari o‘rganila boshlandi.

Shunga qaramay, ayollar jinoyatchiligi bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar yuzasidan ilmiy ma’lumotlarning taqchilligini qayd etgan holda, mazkur muammoni yoritishga Rossiya kriminologlari tomonidan anchagini e’tibor berildi. Ular orasida Y.M. Antonyan, L.SH. Berkashvili, T.N. Volkova, V.N. Ziryanov, I.I. Korzun, V.A. Serebryakova va D.A. Shestakovlarning ilmiy ishlari alohida e’tiborga loyiqdir.

II BOB

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING SABAB VA SHAROITLARI

1-§. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablari

Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv sabablari ayollarning jinoiy xulq-atvori hamda ushbu xulq-atvorga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy omillar asosida o'r ganiladi. Bunday omillar jumlasiga, birinchi navbatda quyidagilar kiradi: ijtimoiy-demografik omillar (urbanizatsiya, migratsiya, jins va yoshga oid ma'lumotlar va ma'muriy-hududiy tuzilishning o'zgarishi); iqtisodiy omillar (umumiylar va tarmoqlardagi bandlik, mehnatga haq to'lash, narx-navoni belgilash); siyosiy va ijtimoiy-ruhiy omillar (milliy mafkura, axborot texnologiyalari, demokratik institutlarning faoliyati, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga davlatning munosabati); tashkiliy-huquqiy omillar (amaldagi qonun hujjatlari, ularni qo'llashni ta'minlovchi institutlarning samaradorligi) kiradi.

Biroq yuqorida keltirilgan ushbu omillar doirasini mukammal va to'liq deb bo'lmaydi. Chunki jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan katta-kichik omillar miqdorini to'la va to'g'ri aniqlash mumkin emas. Shunga qaramasdan kriminolog olimlar bu borada ko'proq natijaga erishish maqsadida tinimsiz intilmoqdalar va hozirda jinoyatchilikka 320dan ortiq omillar ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Hozirgi zamon kriminologiyasida jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari tushunchalarining qo'llanishi, ularning farqlari yuzasidan munozara tobora keskin tus olib bormoqda. Olimlar jinoiy xulq-atvorning asl sabablarini bugungi kunda (jamiat taraqqiyotining hozirgi bosqichida) aniq va to'liq bilish mumkin emas, degan xulosaga kelmoqdalar. Zotan, kishilarning xulq-atvorini tushuntiruvchi mukammal nazariya haligacha ishlab chiqilmagan. Bunday nazariya qachondir ishlab chiqilgan taqdirda ham muayyan jinoyatning (shu jumladan jinoyatchilikning ham) asl sabablarini tushuntiruvchi holatlar va omillarni aniq belgilashi mumkin emas.

Shu narsa diqqatga sazovorki, mazkur tendensiyalar eng yangi kriminologik tadqiqotlarda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, M.O. Naukenov yuqorida zikr etilgan bahsli muammoning yechimini topishga harakat qilib, o'z asarida «sababiy omillar» tushunchasini qo'llagan¹. Bu munosa-

¹ Науkenov M.O. Коррупционные преступления: криминологический и уголовно-правовой анализ. – Алматы, 1999. – С. 62.

bat bilan Y.I. Kairjanov, jinoyatchilik sabablarini o‘rganish tarixidan kelib chiqib, jinoyatchilik sabablarining manbalari soniga qarab ularni bir omilli va ko‘p omilliga ajratish mumkinligini qayd etadi¹.

Mazkur qarashdan kelib chiqib, ayollar jinoyatchiligining sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarini yoritishdan ham ko‘ra, ushbu jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillarni tahlil qilish o‘rinlidir. Bunda jinoyatchilik omillariga jinoyatchilikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi (uni keltirib chiqaruvchi, unga turtki beruvchi yoki monelik qiluvchi) hodisa (hodisalar yig‘indisi) deb qarash lozim. Bu borada yana shuni inobatga olish kerakki, jinoyatchilikning umumiy sababi mavjudligi empirik jihat-dan aniq isbotlanmagan, uning tavsifi ziddiyatli, gipotetik xususiyatga ega.

Biz sabab va shart-sharoitlarga ma’lum tarixiy bosqichda ayollar jinoyatchiligi ko‘rsatkichlarining dinamikasi – o‘sishi yoki pasayishini belgilovchi holatlar deb qaraymiz.

Agar shart-sharoitlar atamasini qo‘llaydigan bo‘lsak, aynan ular – yashash sharoitlari ayollarning jamiyatdagi holatini yorqin tavsiflaydi.

Bu nuqtai nazardan olib qaraganda, kriminolog olimlarning jamiyat taraqqiyotidagi har bir yangi bosqich ayolning shaxs sifatidagi holati o‘zgarishiga olib keladi, degan fikri o‘rinlidir. Zotan, jinoiy qilmishlar sohasida ham shunday aloqa mavjud. Masalan, ayollar band bo‘lgan sohalar va ular sodir etuvchi jinoyatlarning turlari o‘rtasida ma’lum aloqa mavjud. Bundan ayollar jinoyatchiliginи, umuman jinoyatchilik muammosi qatori, muayyan tarixiy shart-sharoitlarga bog‘lab o‘rganish zarur degan muhim metodologik qoida kelib chiqadi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarni tahlildan o‘tkazishgina yuqorida zikr etilgan murakkab muammoning yechimini topish imkonini beradi.

Bu borada zararli ishlab chiqarishlarda band bo‘lgan xotin-qizlarning salbiy statistikasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Zotan, tibbiy xizmat ko‘rsatish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, og‘ir turmush sharoitlarida, zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qilish shaxsning salomatligiga va ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

MDH mamlakatlarida 2,4 milliondan ortiq xotin-qizlar og‘ir ishlab chiqarishlarda band bo‘lib, og‘ir uy-ro‘zg‘or va tibbiy xizmat ko‘rsatish sharoitlarida shaxsning umumiy sog‘lig‘iga, shu jumladan uning ruhiyatiga, ayniqsa, salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda².

So‘nggi yillarda xotin-qizlarning siyosiy faolligi asta-sekin ortib bormoqda. Xotin-qizlarning jamoat tashkilotlari soni ko‘paymoqda. Respubli-

¹ Каиржанов Е.И. Криминология (общая часть). – Алматы, 1995. – С. 72.

² Аргументы и факты. – 2003. – №42.

ka Adliya vazirligida xotin-qizlar va bolalarning muammolari bilan shug‘ullanuvchi 40dan ortiq tashkilot ro‘yxatga olingan. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtirish uchun 1995-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning «O‘zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qabul qilingan farmoni ularning barcha bosqichlardagi ijroiya hokimiyati organlarida ko‘proq qatnashishlari uchun imkon yaratadi. Farmoniga muvofiq turli pog‘onalardagi hokimlik ma’muriyatlarida tegishli darajalardagi xotin-qizlar qo‘mitalarining raislari hokim o‘rnbosarlari lavozimiga tayinlanadilar va ijtimoiy sohaning holati uchun javob beradilar. Ushbu farmon kvota tizimini qayta tiklaydi va davlatning ayollarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantiradi.

Xotin-qizlar muammolarini hal qilishga qaratilgan muayyan qadamlar tashlanganiga qaramay, biz ularni hal qilishning tom ma’noda demokratik, ilg‘or darajasiga hali yetganimizcha yo‘q. Bu nuqtai nazarda Rossiya namunasi diqqatga sazovor. Chunonchi, Rossiya Federal yig‘ilishiga saylovda mamlakat tarixida birinchi marta xotin-qizlar mustaqil ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ishtirok etdi. Ularning bir qismi alohida partiya – «Rossiya xotin-qizlari» partiyasini tuzdi. Bugungi kunda Rossiya parlamentarizmini yuqorida zikr etilgan partiya faoliyatisiz tasavvur qilish mushkul.

O‘zbekistonda ham xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining konsepsiysi ishlab chiqilgan va bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-fevraldagagi «Oilada davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy manfaatlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari» Davlat dasturida o‘z aksini topgan. Biroq ayollarning muammolarini hal qilishning milliy mexanizmi hali shakllantirilganicha yo‘q. Teng imkoniyatlar to‘g‘risida qonun qabul qilinmagan. Xotin-qizlar jinsiga qarab kamsitilgan hollarda ularning huquqlarini himoya qiluvchi sud amaliyoti deyarli mavjud emas. Bu nuqtai nazardan Konstitutsiyaning barcha fuqarolar teng huquqligli haqidagi demokratik qoidalari va tamoyillari milliy qonun hujjatlarining tegishli normalarida yanada mufassal mustahkamlab qo‘yilishi lozim.

O‘z-o‘zidan ayonki, biz ushbu ishda ko‘rib chiqayotgan muammlarning yuqorida qayd etib o‘tilgan alohida jihatlari o‘z holicha sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘sindagi salbiy hodisalar har xil darajada ijtimoiy beqaror odamlarni muqarrar ravishda jinoyat yo‘liga olib kiradi, degan ma’noni anglatmaydi. Zotan, jinoiy xulq-atvor insonning shunchaki

turmush sharoitlariga emas, balki uning mazkur sharoitlarni qanday idrok etishi va ularga qanday baho berishiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, jinoiy-xulq atvorni ong doim ham qamrab olavermay-digan nozik, chuqur va o‘ziga xos ichki kechinmalar shakllantiradi. Bu kechinmalar inson hayotining asoslari, uning dunyoqarashi, o‘zining hayotdagi o‘rniga munosabati va turmush sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy huquqsizlik, umumiy ruhiy beqarorlik, ma’naviy-psixologik qadriyatlarning yo‘qolishi va buning natijasi o‘laroq, bunday sharoitlarda oilaviy turmushga, ijtimoiy muhim «oila o‘chog‘ining yoquvchisi» rolini bajarishga layoqatsizlik jamiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida ayollar jinoyatchiligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardir. Yosh ayollar va qizlar, jumladan voyaga yetmaganlar ham qandaydir yo‘llar bilan boyib ketishi, ijtimoiy zinaning nisbatan baland pog‘onalariga ko‘tarilishga harakat qilmoqdalar. Intilish, albatta, yaxshi, ammo bu maqsadga erishish yo‘lida har qanday, hatto g‘ayriqonuniy vositalar ishga solinmoqda.

Ma’lumki, boylik bu faqat moddiy ne’mat bo‘lib qolmay, jamiyatda nisbatan yuksak mavqeni qo‘lga kiritish, ijtimoiy nufuzga, har xil imtiyoz-larga ega bo‘lish vositasi hamdir. Bu ko‘pchilikni, ayniqsa, yoshlarni o‘ziga tortmoqda. Boylikka odamlar nafaqat to‘g‘ri, balki egri yo‘llar bilan ham intilmoqda, zotan, pul, imtiyozlar va yuksak mavqe ularga qachondir, noaniq kelajakda emas, balki hozir, shu damda kerak. Afsuski, buning uchun hozir imkoniyatlar mavjud.

Yuqorida zikr etilgan jarayonlarning boshqa bir salbiy tomoni ham bor. Bu yoshlar orasida asosan moddiy ne’matlarning mavjudligi prinsipiga ko‘ra ijtimoiy tabaqalanishning kuchayib borayotganida ko‘rinadi. Targ‘ib qilinayotgan «go‘zal hayot»dan chetda qolgan va o‘z muammolarini hal qilishning boshqa usulini topa olmagan ayrim yoshlar (ayni paytda xotin-qizlar) jinoyatga qo‘l urmoqdalar. Bu esa ayollar jinoyatchiligining subyektiv va obyektiv sabablarining o‘zaro uyg‘unligini namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu masala ilgari ham ko‘tarilgan edi. Masalan, Y.M. Antonyan ta’milanmagan va kam ta’milangan oilalarda yosh ayollar va qizlar yaxshi kiyinish hamda boshqa zarur va nufuzli buyumlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega emasligi, buning natijasida ular o‘zini kamsitilgan his qilishi, ularda yuqorida zikr etilgan ne’matlarga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan hasad, ba’zan hatto nafrat tuyg‘ulari uyg‘onishi, bu ularni o‘g‘rilikka qo‘l urishi, fohishalik bilan shug‘ullanishiga turtki berishini qayd etgan¹. Bu fikrni ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan

¹ Антонян Ю.М. Преступность женщин // Социалистическая законность. – 1991. – № 7.– С. 20.

jinoyatchilar muammosiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarning natijalari ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, milliy ilmiy adabiyotlarda uchraydigan ayollar jinoyatchiligi to‘g‘risida ayrim ma’lumotlar ham yuqorida keltirilgan xulosalarga mos keladi.

Ayollar jinoyatchiligi ijtimoiy muhitdagi madaniyat va jinslar tengligi muammolari bilan bevosita bog‘liqdir. Konservativ patriarchal madaniyat tipi, jamiyatimiz boshidan o‘tkazilgan mustabid tuzum ayollar ijtimoiy qaramligining ikki xil mezonini shakllantirdi. Bu asossiz ikki xil standartlarga tayanuvchi axloqda, jinsiy tengsizlik shaklini aks ettiruvchi tilda, xurofiy qarashlarni bolalikdan shakllantiradigan ta’limda, xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini yerga uradigan obrazni shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalarida o‘z ifodasini topadi.

Bugungi kunda yirik shaharlarda ijtimoiy-maishiy va madaniy ahamiyatga molik muassasalarda mansabdor shaxslari va xizmatchilarini, mahalliy hokimiyat organlari xodimlarini pora berish yo‘li bilan o‘ziga og‘dirishga asoslangan xufiya xonadonlar (amalda buzuqxonalar), qo‘shmachilarining keng tarqalgan va mukammal tarmog‘iga ega bo‘lgan fohishalar xizmatidan foydalanish uyushgan tijorat negiziga qo‘yilgan. Fohishalik bilan shug‘ullanishga va jinoiy faoliyatning boshqa shunga o‘xhash shakllariga voyaga yetmaganlar ham faol jalg etilmoqda.

Voyaga yetmay turib jinoyat sodir etganligi sababli ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining oldini olish bo‘limlarida hisobda turgan qizlarning shaxsini o‘rganish, ular orasida o‘qishdan bo‘yin tovlash, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish bilan birga jinsiy buzuqlik bilan ham shug‘ullanayotganlar erkak jinsidagi o‘smirlarga qaraganda ko‘proq uchraydi.

Jinsiy hayotning erta boshlanishi o‘smir qizlarga ham turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bunday xulqning shakllanganligi qiz bolalarga, ularning oila a’zolariga anchagina ko‘ngilsizliklar tug‘dirishi mumkin. Ularda fiziologik qoniqishga ehtiyoj tug‘ilsa, qizlarning his-hayajonga tez beriluvchanligi, irodasining ojizligi o‘zini tutolmasligi tufayli tartibsiz jinsiy aloqalarga kirishishi va u bilan bog‘liq ko‘ngilsiz oqibatlarga, xususan fohishalik bilan shug‘ullanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, turli tanosil kasalliklarini keltirib chiqaradi. Chunonchi, 1998-yilda zaxm (gonoreya) bilan kasallanganlar orasida 14 yoshgacha bo‘lganlar 0,5 foiz, 15-17 yoshlilar orasida 17 foiz va 18-20 yoshlilar 77 foizni tashkil qilgan. Jins nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak 14 yoshgacha bo‘lgan zaxm kasalligi-

ga chalinganlarning 65,5 foizni; 15-17 yoshlilar orasida 62,2 foizni; 18-20 yoshlilar ichida esa 57,7 foizni qizlar tashkil qiladi¹.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, voyaga yetmagan qizlarda jinsiy aloqaga moyillikning erta uyg'onishi va fohishalikning keng tarqalishi OITS, tanosil kasalliklarining ko'payishi bevosita bog'liqdir. Fohishalik ko'p hollarda jinoyat sodir etilishi uchun zamin ham hisoblanadi. Voyaga yetmagan qizlar xulqidagi buzilishlar ularning fohishalik bilan shug'ullanishi va xulqining jinoiylashuviga, shuningdek, jinoiy qilmishning sodir etilishiga shart-sharoit yaratishi mumkin. Fohishalik bu jinoyatchilik olami bilan bevosita aloqador hodisa bo'lib:

- fohishalarning qo'shmachi (sutener)larga tobe ekanligi;
- ularning ko'pincha jinoiy tajovuzlar obyekti, chunonchi giyohvandlik vositalari bilan g'ayriqonuniy muomalaning obyektiga aylanib qolishi;
- fohishalarning jinoiy guruhlarning a'zolariga xizmat ko'rsatishi;
- jinoyatlarning sodir etilishi guruhning passiv a'zosi (laqmalar uchun tuzoq, soxta jabrlanuvchi va h.k.) sifatida ishtirok etishlarida namoyon bo'ladi.

Albatta, erta boshlangan jinsiy hayot muqarrar ravishda jinoyat sodir etilishga olib keladi deb bo'lmaydi, ammo u voyaga yetmagan qiz hayotining barcha tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulqi buzuq voyaga yetmagan qizlar orasida jinsiy hayotning erta boshlanganlik hollari ko'p uchraydi. Voyaga yetmagan qizlar o'rtasida so'rov yo'li bilan o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida hisobda turgan qizlarning uchdan bir qismi jinsiy hayotni 14 yoshdan boshlaganligini, 6,7 foiz esa jinsiy hayot kechirmaganligini aytgan. O'rganilgan qizlarning 43,3 foiz jinsiy hayotni 16-17 yoshdan, 41,7 foiz 14-15 yoshdan, 5,8 foiz 13 yoshdan, boshlaganligini aytganlar, 2,5 foiz esa qo'yilgan savolga javob bermaganlar.

Shunday qilib, huquqbuzar qizlarning yarmidan ko'pi 16 yoshga to'lmasdan jinsiy hayot kechirishini boshlaganlar. Ularning har uchtadan bittasi turli vaqtarda bir qancha erkaklar bilan tartibsiz jinsiy aloqaga kirishganliklarini aytganlar. Bunda his-tuyg'ular hech qanday ahamiyatga ega bo'lмаган.

Qizlarning jinsiy buzuqligi ko'p hollarda spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lган. Tekshirilganlarning yarmidan ko'pi (54,2 foiz) birinchi marta jinsiy aloqaga mast holda kirishganlar. Ularning faqat 43,3 foizgina hushyor bo'lганlar. Bu noxush hodisaning

¹ Оила психологияси. – Т., 2001. – Б. 222.

mast holda ro'y berganligi yoki voqeaning tasodifan yuz berganligi haqidagi javoblar eng ko'p bo'lgan.

Bugungi kunda jinoyatlarning oldini olishda jinsiy sohadagi buzilishlarga yetarlicha e'tibor berilmayapti, chunki ular jinoyat sodir etish bilan har doim ham bog'liq bo'lavermaydi. Hatto, qizlarga tartibsiz, jumladan guruh bo'lib jinsiy aloqaga kirishish xos bo'lsa ham, sud-psixiatriya ekspertizasiga jo'natilganida ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorning hech birida sodir etilgan jinoyat bilan bog'liq jinsiy buzuqlik to'g'risidagi masala savol sifatida qo'yilmagan. Mazkur jihatga jinoyat sodir etishning subyektiv sababi sifatida qarab, yetarlicha e'tibor berilmayotganligini hozirgi zamon jinoyat huquqi nuqtai nazarida bemalol tushuntirsa bo'ladi.

Agar aqli zaiflik, ruhiy kamchilikning mavjudligini aniqlash shaxsning muomala layoqatiga ega ekanligini aniqlash uchun kerak bo'lsa, bino-barin u huquqiy oqibatlarga ega bo'ladi, jinsiy anomaliyalar (normadan chetga chiqishlar) mavjudligini aniqlash aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi masalani hal etish chog'ida uning ruhiy holatini tibbiy baholashda hech bir ahamiyat kasb etmaydi. Nazariya va amaliyot bu muammoni ko'rib chiqmagan, biroq ekspertlar (seksopatologlar, psixiatrlar) zimmasiga jinsiy anomaliyalar, ularning sabablari va xususiyatlari, oqibatlari haqidagi masalaning yechimini topish vazifasini yuklash vaqt keldi.

To'g'ri bugungi kunda sud-tergov amaliyoti va ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ammo kompleks sud-psixiatriya va seksopatologik ekspertizalarda tekshirilgan qizlarning kamida 1,5 foizida xudbinlik, aqliy zaiflik, telbanamo xulq-atvor bilan kechadigan jinsiy buzuqlikning mavjudligi aniqlangan. Lekin bu nuqsonlar shaxsda muomala layoqatining yo'qligini bildirmaydi va shu bois jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilishga va jazo tayinlanishiga ta'sir etmaydi. Biroq bu ayollar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishda juda muhim sanaladi.

Shu boisdan yuridik adabiyotlarda muomala layoqati doirasidagi ruhiy nuqsonlarning jinoiy qilmishga ta'siri va ularni jinoyatchilarni axlo-qan tuzatish jarayonida inobatga olish mumkinligi haqidagi masala qizg'in muhokama qilinmoqda. Ayni paytda aybdor ruhiy holatining obyektiv voqeligi (bino-barin, jinoyatning subyektiv tomoni ham) sifatidagi jinsiy anomaliya holatiga hanuzgacha jinoyat-huquqiy baho berilgan emas.

Aftidan, buni erta boshlangan jinsiy hayot, tartibsiz jinsiy aloqalar qizlar orasida ko'proq tarqalganligi bilan izohlash mumkin. Ammo ayni paytda voyaga yetmagan huquqbuzarlar orasida ko'pchilikni o'smirlar

tashkil etadi, voyaga yetmagan qizlar jinoyatchiligi muammosi esa nisbatan yaqindagina maxsus kriminologik tadqiqotlar mavzuiga aylandi.

Tibbiyotga oid maxsus adabiyotlarga murojaat qilsak, bunday xulq-atvorning sabablari nafaqat tashqi ta'sir ostida, balki huquqbuzar qizlarning shaxsiyati bilan bog'liq xususiyatlar tufayli mavjud bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatmoqda. Voyaga yetmagan qizlar orasida jinsiy anomaliyalar biz aniqlaganimizdan ko'ra ko'proq, deb hisoblash uchun asoslar bor. Voyaga yetmaganlarning jinsiy buzilishi sabablarini tadqiq etish qo'shimcha ravishda o'rganilishi zarur bo'lgan mustaqil mavzudir. Biroq ushbu ijtimoiy hodisalarning psixologik, iqtisodiy va boshqa sabablari mavjudligi shubhasizdir.

Demak, tanosil kasalliklarining ayniqsa, bolalar orasida tarqalishining oldini olish chora-tadbirlariga alohida e'tibor berilishi lozim. Ushbu tadbirlardan biri yoshlar orasida jinsiy tarbiyani amalga oshirish hisoblanadi.

Shu bois mutaxassislarni jalb etgan holda voyaga yetmaganlar (ko'proq qizlar) orasida jinsiy tarbiyaga oid suhbatlar o'tkazilishi lozim. Masalan, Germaniyada boshlang'ich sinf o'quvchilariga maxsus darslarda bolalarning qanday dunyoga kelishi va hokazolar haqida tushunchalar berib boriladi. Bu esa ularda jinslar va jinsiy hayot haqidagi muayyan bilimlarning shakllanishiga yordam beradi.

Bu o'rinda xorijiy davlatlar tarbiyasini respublikamiz ta'lim tizimiga kiritish lozim, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki har bir holatda, ayniqsa, bolalar tarbiyasi, xususan, jinsiy tarbiya bilan bog'liq masalalar nihoyatda o'ylab, ehtiyojkorlik bilan yondashishni talab etadi. Millatimiz, xalqimizning mentalitetini e'tiborga olgan holda maktab, kolledjlarning o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklar yaratish, jinsiy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash o'ylaymizki, ijobiy samara beradi.

So'nggi vaqtida bolalarni qasddan o'g'irlash va ularning bedarak yo'qolishi holatlari norasmiy «seks sanoati» sohasidagi uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining natijasi, deb taxmin qilish uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur biznes sohasida ishlab chiqarish texnologiyasi juda puxta yo'lga qo'yilganligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Buning uchun jahon «Internet» tarmog'i saytlariga kirishning o'zi kifoya.

Qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti nomukammal bo'lgan sharoitlarda uyushgan jinoiy tuzilmalarning roli kriminogen vaziyatga, shu jumladan ayollar jinoyatchiligiga ta'siri ham qonuniy ravishda ortadi. Jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslar va guruhlar birlashadi. Bunday uyushmalarning qat'iy iyerarxiya va intizomga bo'ysundirilgan

infratuzilmasi maromiga yetkaziladi. Jinoiy uyushmalar faoliyatiga xotin-qizlar tobora faol jalb etiladi. Tabiiyki, jinoyatchilikning umumiyo‘sishi sodir bo‘layotgan, uyushgan jinoiy tuzilmalar faol ish olib borilayotgan sharoitlarda ayollar jinoyatchiligidagi huquqni muhofaza qilish organlarining qarshilik ko‘rsatishi, xotin-qizlarning jinoiy uyushmalar tizimiga jalb etilishining oldini olishi ancha qiyinlashadi.

Shakllanayotgan fohishabozlik tizimining yana bir xavfli jihat shundaki, mazkur tizimni uyushgan jinoyatchilik o‘z nazorati ostiga olishga harakat qiladi. Fohishalar xizmatidan foydalanishdan tushayotgan pullar uyushgan jinoyatchilikning, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining xizmatchilarini pora evaziga og‘dirishga sarflanayotgan kapitalining katta qismini tashkil etayotir.

Jinoiy jazoga loyiq faoliyat sohalarining kengayishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida uyushgan jinoiy guruhlarning «birlashishi», fohishalar xizmatidan daromad olish, pornografik narsalar va giyohvandlik vositalarini tarqatish hozirgi zamon bosqichida uyushgan jinoyatchilikni ta’riflaydigان asosiy belgilardan biridir.

Bunday sharoitlarda uyushgan jinoiy faoliyatda ayollarning ishtiroki masalalariga doir jiddiy ilmiy tadqiqotlarning yo‘qligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jinoyatchilikning, shu jumladan ayollar jinoyatchiligining tuzilishida mavjud bir qator salbiy hodisalarni uzoq vaqt va sun’iy ravishda yashirib kelish (buning natijasi o‘laroq, mazkur hodisalarga qarshi kurash chora-tadbirlarining mavjud emasligi) bugungi kunda o‘z «hosili»ni bermoqda va jinoiy professionalizmning saviyasi tobora ortib borayapti. Professional ayollar jinoyatchiligi muammosi mavjudligi, bu muammo ning ilgari ham mavjud bo‘lgani sir emas, ammo «jinoyatchilik sabablarini tubdan yo‘qotishga qaratilgan umumxalq kurashi» davrida bu muammoga, tabiiyki, e’tibor berilmagan. Bugungi kunda esa, ayollar jinoyatchiligining obyektiv va subyektiv sabablarini o‘rganmasdan va uning xususiyatlarini aniqlamasdan ayollar jinoyatchilagini obyektiv bilish, o‘rganish va uning samarali oldi olinishini ta’minlash mumkin emas.

Jinoyatga qo‘l urishdan o‘zini tiyishga majbur qiluvchi omil, ijtimoiy nazorat funksiyasini bajaruvchi oila ayollar ozodlikdan mahrum qilish joylaridan chiqquniga qadar odatda buzilib ketadi. Ota-onaning ajralishi va oilaning buzilishi natijasida bolalarga e’tibor susayadi. So‘qqabosh, nikohda omadi yurishmagan onalar nikohda baxtiyor onalarga qaraganda o‘z farzandlarining tarbiyasiga kam e’tibor beradilar. Otasizlik emas, balki nazoratning susayishi hamda farzand bilan qolgan onaning o‘zining yangi

maqomiga moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Bu esa ayollar jinoyatchiligining obyektiv sabablari sifatida gavdalanadi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, yuqorida zikr etilgan hollarda erkak mahkumlarga qaraganda, mahkum ayollarning oilalari ko‘proq buzilib ketadi. Bunday holatlar sobiq mahkumlarning jamiyatga moslashishini o‘z-o‘zidan og‘irlashtiradi, uzoq vaqt mobaynida normal turmush sharoitlaridan mahrum bo‘lgan, jazoni o‘tash davrida g‘ayriijtimoiy ko‘nikmalar va odatlardan kutilmagan ayollar oldida ba’zan faqat bitta yo‘l – jinoiy faoliyatni davom ettirish qoladi.

To‘g‘ri, bu avvalambor, jamiyatimizning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida boshdan kechirayotgan obyektiv qiyinchiliklar bilan bog‘liq, ko‘p jihatdan qonuniy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jarayondir. Bu yerda, jumladan, bozor iqtisodiga o‘tilishiga qarab, davlatning ochiq jahon iqtisodiyoti tizimiga muqarrar ravishda qo‘silishi natijasida mamlakatning iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning roli ortib borishiga e’tiborni qaratishni istar edik. Bu ham obyektiv tarixiy jarayondir, ammo u doim ham ijobiy natjalarga olib kelavermaydi.

Tadbirkorlikda xotin-qizlarning ishtirok etishi – bozor iqtisodiyoti sharoitlarida yuzaga kelgan zarurat taqozosidir. Respublikada kichik biznes sohasida band bo‘lganlarning 45 foizni xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning aksariyati turli mulk shakllariga asoslangan nodavlat korxonalarda yollanma ishchi kuchi sifatida mehnat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti tuzilmalari shakllanayotgan, ilgari bizga ma’lum bo‘lmagan erkin tadbirkorlik shakllarini qonun yo‘li bilan samarali tartibga solish tizimi mavjud bo‘lmagan sharoitlarda jamiyat jinoiy faoliyat, shu jumladan ayollar jinoyatchiligining yangi shakllari bilan to‘qnash kelishga majbur bo‘ladi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida xotin-qizlar rolining ortib borishi bank operatsiyalari bilan bog‘liq firibgarlik, davlatning pul mablag‘larini o‘zlashtirish, soliq qonunlarini buzish kabi jinoyat turlari uchun qulay zamin yaratishini jahon amaliyotidan ko‘rish mumkin.

Masalan, «Spetskomplektgaz» OTAJ buxgalteri S., ushbu jamiyatning boshqaruvi raisi D. va ombor mudiri A.lar bilan oldindan til biriktirib, o‘zlariga ishonib topshirilgan o‘zgalar mulkini talon-toroj qiladilar. S. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi 4-qismi «a» bandi, Jinoyat kodeksi 205-moddasi 2-qismi «a» bandi va Jinoyat kodeksi 207-moddasi 1-qismi bilan aybdor deb topilgan, jinoyat jami bo‘yicha 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan¹.

¹ Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек туман суди архивидан. 1-382/99 рақамли жиноят иши.

2000-yil oktabrda «Paxta-bank» AB boshqaruving raisi, O‘zbekiston fuqarosi G. V. 1,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi. U bank muassislari bilan jinoiy til biriktirib, ularga g‘ayriqonuniy ravishda 100 million so‘m miqdordagi kreditni bergenlikda ayblandi.

Tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining ayrim moddalari, jumladan Jinoyat kodeksining soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 184-moddasini qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijalari ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning doirasi kengayganligining guvohi bo‘lish mumkin.

Biz o‘rgangan shaxslarning aksariyatiga nisbatan jinoiy ta’qib dastlabki tergov bosqichida, qoida tariqasida, davlatga yetkazilgan zarar qoplanishi va aybdorlarga qonunda belgilangan jarimalar solinishi munosabati bilan to‘xtatilgan.

To‘g‘ri, hozirgi zamondagi ayollar jinoyatchiligining tavsifi yuqorida keltirilgan omillar bilangina cheklanmaydi, biroq prinsipial ahamiyatga ega. Shu bois ularga ayollar jinoyatchiligiga ularning salbiy ta’sirining oldini olish maqsadida jiddiy e’tibor berish kerak.

Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning obyektiv sabablarini o‘rganishda ular yashaydigan va faoliyat ko‘rsatadigan muhit masalasiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan mikromuhitning asosiy tiplari bir qator olimlar, jumladan, Y.V. Sichev tomonidan ham o‘rganilgan. Uning fikriga ko‘ra, mazkur tiplarga quyidagi: 1) shaxsning faoliyati turi (ishlab chiqarish – mehnat, oilaviy-maishiy, o‘quv-tarbiya, madaniy-oqartuv, harbiy, majburiy mehnat)ga qarab; 2) hududiy belgi (katta shahar, shaharcha, qishloq va h.k.)ga qarab; 3) milliy-etnik belgiga qarab; 4) yoshiga qarab; 5) jinsiy belgiga qarab ajratish mumkin¹.

Mazkur tipologiyaning mikromuhitini kriminologik o‘rganishga tatbiq etish mumkin, chunki unda mikromuhitning barcha asosiy turlariga e’tibor berilgan bo‘lib, jinoyatchi shaxsining shakllanish yo‘llari va mexanizmini tushunib yetish uchun ularni tahlildan o‘tkazish zarur.

Bu borada ayollarga xos jinsiy belgini birinchi darajali deb, qolgan belgilarni esa shaxsning ayol jinsiga mansubligidan kelib chiqib, ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

¹ Сычев Ю.В. Микросреда личности и её место в системе социальных связей // Философские проблемы общественного развития. – М., 1971. – С. 146.

Ma'lumki, oila mikromuhitning assosiy sohalaridan biridir. Oilaning muayyan shaxsga ta'siri uning tarkibi (ota-onaning yoki ulardan birining mavjudligi) va oiladagi o'zaro munosabatlarning xususiyati bilan belgilanadi. Ota-onali oilada inson odatda ijtimoiy aloqalarning dastlabki va umumiylajribasini orttirsa, o'zining shaxsiy oilasida munosabatlarni u shu vaqtgacha orttirgan ijtimoiy tajribasiga asosan quradi. Shuning uchun ham xotin-qizlarning deviant xulq-atvorining shakllanishida oila mikro-muhitning roliga mana shu tafovutlardan kelib chiqib qarash kerak.

Tadqiqotlarga ko'ra, o'rganilgan jinoyatchi ayollardan 16,9 foizi to'liq oilada, 55,4 foizi to'liq bo'lmanoilada (shundan 93,1 foizi yolg'iz ona qo'lida), 12,3 foizi yaqin qarindoshlari tomonidan, 15,4 foizi bolalar uylari, internatlarda tarbiyalangan. Bunda to'liq oilada tarbiyalanganlarning 42,3 foizi otasi yoki onasining ikkinchi nikohga kirishiga guvoh bo'lgan.

Oilaviy, maishiy sohada ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi masalalariga maxsus kriminologik tadqiqotlarda katta e'tibor berilgan. Ularning deyarli hammasida spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish va ichkilikbozlikning jinoiy xulq-atvor bilan bevosita aloqadorligi alohida qayd etib o'tilgan.

Bu o'rinda D.A. Shestakovning oilaviy munosabatlar hamda jinoiy xulq-atvor bilan ularning o'zaro aloqasi muammolariga bag'ishlangan ishlarini alohida qayd etib o'tish joiz. Ushbu olimning xizmati shundaki, uning tadqiqotlari ta'sirida hozirgi zamon kriminologiyasida mustaqil yo'nalish – oilaviy kriminologiya shakllandı¹. Mazkur muammolarni tavsiflovchi quyidagi ma'lumotlar ahamiyatlidir.

*Spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilganlar
(o'rganilganlarning tegishli toifalariga foiz nisbatida)*

jinoyatchi erlar	30 foiz
jinoyatchi xotinlar	16 foiz
jabrlanuvchi erlar	44 foiz
jabrlanuvchi xotinlar	22 foiz

*Spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish bilan oilaviy
mojarolarning aloqasi (foizda)*

mojaro holatlari	xotinini o'ldirgan	erini o'ldirgan
mast bo'lmanoil holatda	80 foiz	80 foiz
er mast bo'lgan holatda	10 foiz	10,5 foiz
xotin mast bo'lgan holatda	3,5 foiz	3,5 foiz
er-xotin mast bo'lgan holatda	2,5 foiz	3 foiz
jami	96 foiz	97 foiz

¹ Шестаков Д.А. Семейная криминология. – СПБ., 2006. – С. 148.

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, oila-ro‘zg‘or munosabatlari negizida odam o‘ldirganlar sonida spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilgan erkaklar va ayollar salmog‘i bir xil emas. Ammo bu har 10 ta alkogolizmga chalingan erkakka 3-5 ta ona shunday kasal deb topilgan ayol to‘g‘ri kelishini ko‘rsatuvchi mavjud statistikaga mosdir.

Oila-ro‘zg‘ordagi janjallar negizida ayollar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 103-105, 108-109-moddalarida nazarda tutilgan va bezorilik jinoyatini (JK 277-m.) ham ancha ko‘p sodir etadilar. Ularning bunday harakatlari natijasida ko‘pincha ularning erlari, jazmanlari, qarindosh-urug‘lari va qo‘snilari jabr ko‘radi.

Jinoyatchi ayollarning mikroijtimoiy oila muhitini ta’riflashda muhim ahamiyatga ega ma’lum viktimologik jihat – jabrlanuvchilarning xulq-atvoriga e’tiborni qaratishni istar edik. Ko‘rib chiqilgan jami jinoyatlarning 59,8 foizida jabrlanuvchilarning xulq-atvori, shu jumladan: alkogolizm, aybdorning shaxsiga, uning farzandlariga hurmatsizlik, urish, kaltaklash ko‘rinishidagi zo‘ravonlik jinoyatga turtki bergenini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, jinoyat ishlari va qonuni qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijasida biz tergov va sud organlari ko‘pincha jabrlanuvchilarning mohiyat e’tibori bilan jinoiy jazoga loyiq tegishli qilmishlar doirasiga mansub bunday xatti-harakatlariga muvofiq yuridik baho bermaydi, degan xulosaga keldik. Masalan, ayollarning jinoiy xulq-atvorini jinoyat-huquqiy baholashda mazkur viktimologik omilga bepisand qarash hollari odatda ularga qo‘yiladigan aybning darajasi va qonuniy ravishda jinoiy jazo sanksiyalarining miqdorida ham o‘z aksini topadi.

Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tuman sudining 2008-yil 23-oktabrdagi hukmi bilan S. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 1-qismi bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Sudning hukmiga ko‘ra S. 2008-yil 2-avgust kuni soat 13.00 larda kelinoyisi Y. bilan janjallahshib, qo‘lidagi oshpichog‘i bilan uning ko‘krak qismiga bir marta urib, uning hayoti uchun xavfli bo‘lgan tan jarohati yetkazganlikda ayblangan.

Sud jazo tayinlayotganida jabrlanuvchining g‘ayriaxloqiy xulqiga, uning kasalxonada 10 kun davolanganiga e’tibor bermaganligi tufayli S. va Y.ning kassatsiya shikoyatiga ko‘ra Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ko‘rilib, qo‘sishimcha sud eks-pertizasining xulosasida Y.ga yetkazilgan tan jarohati sodir etilgan vaqtida hayoti uchun xavfli bo‘lmagan deb ko‘rsatilgan. Shularga asosan viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tuman sudining S.ga nisbatan chiqargan hukmini o‘zgartirib, uning jinoiy harakatlarini Jinoyat

kodeksi 105-moddasi 1-qismiga qayta kvalifikatsiya qilib, uni 3 yil ozodlikdan mahrum etishga ajrim chiqargan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 1-dekabrdagi «Amnistiya to‘g‘risida»gi farmonining 2-moddasiga asosan S.ni jazodan ozod etgan.

Yakkabog‘ tumanida yashovchi S. 2010-yil 4-sentabrda eri Y. bilan o‘zaro janjallahib, uning boshiga bolta bilan urib, uning o‘limiga sabab bo‘lgan. Aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilingan.

Qarshi tumanida tug‘ilgan oilali, 2 nafar farzandi bo‘lgan P. A. bilan yashagan, uni boshqa xotinlar bilan yurganlikda gumon qilib, uxbab yotganida boshiga bolta bilan urib, jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli bo‘lgan og‘ir tan jarohatini yetkazgan va hodisa joyidan qochib ketgan.

Qarshi tuman sudining hukmi bilan P. Jinoyat kodeksi 25-97-moddasi 2-qismi «v» va «j» bandlari bilan aybdor deb topilib, unga 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

O‘quv-tarbiya mikromuhiti shaxsning hayotiy qadriyatları va qiziqishlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumot darajasi bilan kriminogenlikning o‘zaro bog‘liqligi umum e’tirof etilgan: shaxsning ma’lumot darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir qilish ehtimoli shuncha kam bo‘ladi, zotan, yuqori ma’lumot darajasi shaxsga u yoki bu xulq-atvor variantining oqibatlarini yaxshiroq anglash, ijtimoiy maqbul ehtiyojlarni shakllantirish va ularni qondirishning qonuniy yo‘llarini topish imkonini beradi.

Jinoyatchi ayollarning ma’lumot darajasi o‘rganilganda maktab, litsey, kolledj va oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim berish va tarbiyalash bilan bog‘liq ayrim muammolarning mavjudligiga alohida e’tibor qaratildi.

Zotan, bu muassasalarda o‘quv-tarbiya jarayoni uzoq vaqt mobaynida «bir jinsli», umumlashtirilgan va tenglashtirilgan yondashuv asosiga qurilib kelgan. Bunday ahvol bugungi kunda ham qisman saqlanib qolayotir. Pirovard natijada o‘smirlarda o‘g‘il bolalar va qizlarga xos bo‘lgan individual ruhiy-jismoniy xususiyatlarning chegaralari «yuvalib» ketmoqda. Tarbiyaga oid chora-tadbirlarning mavjud tizimi aynan o‘smirlar fe’l-atvori, ruhiyati, fiziologik ehtiyojlariga ko‘proq mos keladi, ularga xos bo‘lgan dunyoqarashni shakllantiradi. Qizlar esa o‘z shaxsining shakllanishi davrida bunday ta’sirni his qilish natijasida, *birinchidan*, o‘ziga tabiat ato etgan ayollik asoslarini yo‘qotadi, *ikkinchidan*, ularda erkaklarga xos bo‘lgan jihatlar – erkakshodalik, yetakchilik qilishga intilish, bahsli vaziyatlarni hal qilishda kuchga tayanish, jizzakilik, shafqatsizlik va hokazo xususiyatlarni shakllanadi.

Yuqorida zikr etilgan omillar ba'zan shaxsning anomal rivojlani-shiga, insoniy aloqalarning asl qadriyatlarini noto'g'ri tushunishiga, g'ay-rijtimoiy sifatlarning rivojlanishiga olib keladi. Agar mazkur salbiy omillarning ta'siri katta bo'lib, voyaga yetmagan qizlar jinoyat sodir etsalar ular ta'lim jarayoni majburiy-tarbiyaviy xususiyat kasb etadigan kolo-niyalar yoki maxsus o'quv muassasalarida ta'limni davom ettiradilar. Ayol jinsiga mansub voyaga yetmaganlar jinoyatchiligin o'rganuvchilar ozod-likdan mahrum etish joylari va tergov hibxonalarida bunday voyaga yetmagan qizlarda ta'lim jarayonida tajovuzkorlik ayniqsa kuchayishini qayd etadilar.

Ayollar jinoyatchiligin o'rganish natijalari shaharlar va qishloq joylarida ayollarning jinoyatchilik darajasi o'zaro farqlanishini namoyon etadi. Bu, jumladan, ijtimoiy muhitdagi omillarning ta'siri bilan ham izohlanadi. Shaharda insonning xulq-atvori ustidan yaqin maishiy muhit-ning nazorati ancha zaiflashadi, bu esa, tabiiyki, g'ayriqonuniy qilmishlar sodir etilishini yengillashtiradi. Qishloq joylarida shaharga nisbatan mus-tahkam ijtimoiy aloqalarning saqlanib qolganligi o'z holicha ijtimoiy nazorat elementi bo'lib xizmat qiladi va umumiyl ijtimoiy-psixologik o'zaro bog'liqlik bilan hisoblashishga majbur qiladi.

Qishloq sharoitlarida shaxs o'z xulq-atvorini o'zini qurshagan odamlarning qarashlariga muvofiqlashtirishini onglilikdan ham ko'ra ko'proq konformizm, ya'ni murosasozlikning ifodasi deb bilish kerak. O'zi ko'nikkan muhit bilan aloqani yo'qotgach, qishloq aholisining vakili zararli ta'sirlarga juda oson berilishining sababi shu bilan izohlanadi.

Oila-ro'zg'or muhitida qishloq ayollari shaxsga qarshi jinoyatlar va o'g'riliklar ham sodir etadi, ammo bunday jinoyatlar jamoatchilik tomoni-dan shahardagiga nisbatan ancha qattiq qoralanadi. Buning ustiga qishloq-da jinoyat sodir etgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan ayollar ozodlikka chiqqanidan keyin ko'pincha uyiga qaytib kelmaydi, balki boshqa joylarda, asosan shaharlarda qoladi. Bu o'ziga xos qonuniyatda ham o'ziga xos mezonlarga ega bo'lган qishloq mikromuhitining ma'lum xususiyati ko'zga tashlanadi, zotan, mazkur mezonlar, odatda, yuqorida zikr etilgan toifaga mansub ayollar o'zining avvalgi yashash joyiga qaytib kelishiga sof psixologik to'siq bo'lib xizmat qiladi, chunki yashash joyi-dagi mustahkam ijtimoiy foydali aloqalar ozodlikdan mahrum qilish tari-qasida o'talgan jazoning muddati bilan bevosita bog'liqdir. Bunday sharoitlarda orttiriladigan salbiy ko'nikmalar va xulq-atvor prinsiplari esa, ayollar tushunchasida, ozodlikdagi avvalgi turmush tarziga mos kelmaydi.

Shaharlarda va qishloq joylarida ayollar jinoyatchiliga mikroijtimoiy muhit omillarining ta'siriga umumiy ta'rif berishda, shaxs ijtimoiy muhitining o'zgarishida migratsiya jarayonlarining ahamiyatini ham e'tiborga olish kerak.

Avvalambor, oila, qarindosh-urug'lar, qo'shnilar, oshna-og'aynilar, mehnat jamoasi kabilar bilan bog'liqlikda shakllangan ijtimoiy aloqalarining uzilishi oqibatlari aynan ayollarning jinoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yashash joyining aniq emasligi, shaxsiy tirikchilik va oilani ta'minlash uchun mablag'lar yetishmasligi ko'pincha bunday shaxslarda hasadgo'ylikning kuchayishiga olib keladi, ularni o'zini va o'z yaqinlarini qanday qilib bo'lmasin himoya qilishga da'vat etadi, buning oqibatida ayollar ba'zan jinoyatga qo'l uradi.

Milliy mansublik belgisiga ko'ra tuzilgan mikroijtimoiy guruhlardagi muhitning o'ziga xosliklari ham ayollarning kriminogen faolligiga o'zining ta'sirini o'tkazuvchi obyektiv omil sifatida e'tirof etiladi.

Bu o'rinda ayollar jinoiy xulq-atvorining mazkur jihatni juda katta qiziqish uyg'otishiga qaramay, u ilgari deyarli o'rganilmagan. Faqat lo'lilar bundan mustasno bo'lib, aholining kriminogen guruhi sifatida ular tadqiqotchilar e'tiborini 70-yillarning o'rtalari 80-yillarning boshidagina o'ziga tortdi.

Lo'lilar orasida jinoyatlarning oldini olish va ular sodir etgan jinoyatlarni ochish muammosi yuzasidan e'lon qilingan adabiyotlarni o'rganish ularda lo'lilar migratsiyasiga ularning g'ayriqonuniy xulq-atvorining asosiy omili deb qaraladi.

Mutaxassislarga lo'li ayollar tomonidan jinoyat sodir etishning an'anaviy usuli ham ma'lum, ya'ni ular biron-bir fuqaroning uyiga «bolanning yo'rgagini almashтирish» bahonasida yoki boshqa bahonada guruh bo'lib kirib, xonalar bo'ylab tarqaladilar va buyumlarni o'g'rilib chiqib ketadilar. Ba'zan lo'li ayollar guruhida «chernya» deb nomlangan shaxslar ham bo'ladi. Boshqa lo'li ayollar uy bo'ylab tarqalib, uy egalarining e'tiborini o'ziga jalb etgan vaqtida, «chernya» uy egalarining ko'z ifodasini kuzatib turadi va ularning o'zini tutishiga qarab qimmatbaho buyumlar yashirib qo'yilgan joylarni fahmlab, ularni o'g'irlaydi va boshqalardan oldin chiqib ketadi. Biroq lo'lilarning muqim yashash joyi bo'limganligi, jinoyat sodir etgan joylaridan zudlik bilan «g'oyib» bo'lishlari tufayli ular amalga oshirgan qilmishlarning latentligi yuqori hisoblanadi.

Bir guruh shaxs bo‘lib sodir etilgan jinoyatlar tuzilishida ayollar jinoyatchiligining salmog‘i mazkur jinoyatchilikning holatini ta’riflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tuman sudida 2013-yil 20-oktabrda M. G.ning jinoyat ishi guruh tarkibida bir nechta jinoyat sodir etilganiga misol bo‘ladi. Muqaddam giyohvandlik vositalarini sotganlik uchun sudlangan ushbu ayol bir guruh shaxslar bilan oldindan til biriktirib, qonunga xilof ravishda qalbaki hujjatlar tayyorlab, o‘z qizi V.G.ni shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun pul evaziga Dubay shahriga yuborgan.

Mikroijtimoiy muhitning shaxsga giyohvandlik va fohishalik kabi ijtimoiy salbiy hodisalar orqali salbiy ta’sirini ko‘rib chiqish ham ahamiyatlidir.

O‘ziga xos ijtimoiy guruhlarning vakillari bo‘lgan fohishalar va giyohvandlar muhitida o‘ziga xos submadaniyat hamda norasmiy xulqatvor va axloq normalarining mavjudligi, ularning jinoyatchilik bilan bevosita aloqadorligi haqida, shu jumladan maxsus kriminologik tadqiqotlar darajasida ham juda ko‘p aytilgan¹. Adabiyotlarda, masalan, giyohvandlik va ma’lum ish bilan shug‘ullanmaslik o‘rtasida o‘ziga xos aloqa mavjudligi qayd etiladi: «bu, avvalambor, shaxsning aloqalari doirasini torayti-ruvchi va uning ijtimoiylashishida qiyinchiliklar tug‘diruvchi giyohvandlik vositalarining ta’siri bilan bog‘liq. Giyohvandlik vositalari iste’mol qiluvchi shaxs, odatda, giyohvandlar muhitida yashaydi, o‘zining boshqa ijtimoiy aloqalarini, shu jumladan ish joyidagi aloqalarini ham yo‘qotadi»². Qayd etilgan holatlar fohishalikka ham to‘la darajada taalluqlidir. Bugungi kunda fohisha ayollar o‘zlarining mazkur «mashg‘ulotlari»ni yashirmay qo‘ydilar, ba’zan uni «asosiy mehnat faoliyati»ga qo‘sib olib bormoqda-
lar, zotan, ko‘plab tijorat firmalari va korxonalar, fohishalarni ekspluata-
tsiya qilib, ayollarga go‘yoki har xil xizmatlar ko‘rsatish sohalarida rasmiy
mehnat bilan bandlikni ta’minlamoqdalar. Ammo tashqi rekvizitlarning
o‘zgartirilishi qadimgi «kasb»ning mazmunini mutlaqo o‘zgartirmadi,
balki bu «kasb» bilan shug‘ullanish tendensiyasini ancha kuchaytirdi.

Shaxsda kriminogen moyillikning vujudga kelishiga mikroijtimoiy muhitning salbiy ta’sirining yana bir shakli xotin-qizlarning ma’lum yosh

¹ Проституция и преступность. Проблемы, дискуссии, предложения: Сб. научных трудов / Под общ. ред. Шмарова И.В. – М., 2012. – С.302; Алферов Ю.А. Жаргон и татуировки наркоманов в ИТУ. – М., 2002. – С.165.

² Пахомов В.Д., Казакова В.А., Фирсаков С.В. Наркомания и совершение корыстных преступлений // Советская юстиция. –1993. – №12. – С. 5.

toifasini, aynan voyaga yetmaganlar va yosh qizlarning norasmiy guruhlar ta'siri ostida jinoyat yo'liga tushayotganligidir.

Ma'lumki, g'ayriijtimoiy yo'nalishdagi yoshlarning har xil tuzilmalari muhitida jinsiy axloqsizlik, ichkililikbozlik keng tarqalgan bo'lib, zo'ravonlik targ'ib qilinadi. Xotin-qizlarga munosabat mazkur guruhlarda qabul qilingan norasmiy aloqalarning prinsipial normalaridan biridir. Bunday aloqalar muhitida voyaga yetmagan qizlar muqarrar ravishda buzuq yo'lga kiradi. Ularning ko'pchiligidagi dastlabki jinsiy aloqalar bunday guruhlarning a'zolari bilan tartibsiz jinsiy aloqalarga aylanib ketadi. Bunday muhitda yo'qotiladigan ijtimoiy foydali aloqalar mazkur guruhlarga o'ziga psixologik tobelikni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan tartibsiz jinsiy aloqalar tanosil va OITS kasalliklarining keyingi vaqtida ayniqsa voyaga yetmagan va 18-20 yoshli qizlar orasida ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Obyektiv sabab hisoblanmish shaxs ijtimoiylashishining barcha bosqichlari, oila muhitidan boshlab jinoyat sodir etilgan muhitgacha, ayolni qonuniy ravishda muqarrar salbiy natijaga, ya'ni jinoyat sodir etishga olib keladi. Ammo, ba'zan faqat hayotiy faoliyatning ma'lum bosqichlaridagina ijtimoiy muhitning salbiy omillari ta'siri kuchayadi va jinoyatchi shaxsining shakllanishiga ko'maklashadi.

2-§. Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar

Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar – bu bevosita turtki berib, ayollar tomonidan jinoyatning sodir etilishini keltirib chiqarmasada, ammo uning sodir etilishiga imkon bergen voqeа, hodisa va jarayonlardir.

Kriminologiyada sabab va shart-sharoitlarni har doim ham to'liq va aniq bir-biridan ajratish imkonи bo'lavermaydi. Shunday sabablar borki, ko'rinishidan shart-sharoitga va shunday shart-sharoitlar borki, ko'rinishidan sababga o'xshab ketadi. Qolaversa, sabab va shart-sharoitning birlamchi va ikkilamchi kabi turlarga bo'linishi ular o'rtasidagi tafovutni aniqlashda turli murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois kriminologiyada «jinoyatchilik determinantlari» tushunchasi keng qo'llaniladi. Ushbu tushuncha o'z tarkibiga jinoyatchilikning ham sababini, ham shart-sharoitini qamrab oladi.

Biroq ushbu mavzuda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni

talablariga asoslanib, ayollar jinoyatchiligini sodir etilishiga imkon yaratgan shart-sharoitlarni yoritishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, jinoyatchilikning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlar o'zaro aloqada bo'ladi. Bu aloqa, eng avvalo, jinoi xulq-atvorning shakllanishida namoyon bo'ladi. Bu esa ayollar jinoyatchiligining subyektiv sabablari bilan o'zar aloqador hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jinoyatchi ayollarning hayotiy qadriyatlari, dunyoqarashi, psixologiyasi va psixikasi bilan belgilanadigan ongli faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Xo'jasizlik va huquqiy nigelizm, hokimiyat uchun siyosiy kurash va ijtimoiy nazoratning yo'qligi ayollar jinoyatchiligidagi uyushgan professional jinoyatchilar faoliyatining faollahishiga olib keldi. Professional jinoyatchilar uzoq vaqt mobaynida jinoyatchilik sohasiga ishchi va xizmat-chilarning katta kontingenini jalb etib kelib, xalq xo'jaligining alohida sohalarini mehnatsiz daromad olish va boyish manbaiga aylantirdilar. Qonunni buzish asosida olingan yirik va o'ta yirik daromadlar jamiyatda yangi elitaning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur jarayon biz ko'rib chiqayotgan muammoda o'zining bevosita aksini topmoqda. *Birinchidan*, yuzaga kelayotgan vaziyat muqarrar ravishda qonunga itoatkor fuqarolarning tubanlashishiga, g'ayriijtimoiy axloq va o'ziga xos mafkuraning vujudga kelishiga olib keladi. Bu kabi fuqarolar orasida ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi. *Ikkinchidan*, ayol-onasi o'z psixologiyasiga «yangi» hayotiy qadriyatlarni singdirib, ularni o'z farzandining xulq-atvoriga va ongiga joylaydi. *Uchinchidan*, mazkur vaziyat har xil jinoyatlar uchun hukm etilgan shaxslarga nisbatan jamiyatning tarbiya-reabilitatsiya funksiyalarini bajarishiga to'sqinlik qiladi.

M.G. Golodnyukning ma'lumotlariga ko'ra, u o'rgangan retsidivist ayollarning 50 foizi oxirgi jinoyatni sodir etishdan oldin ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmagan¹.

Retsidivist ayollarda ma'naviy tubanlashish nisbatan tez sodir bo'lishi, aftidan, qonunni buzgan ayollarning jamiyatdan uzoqlashishi ancha murakkab kechishi bilan izohlansa kerak (ijtimoiy muhit ayollarga qo'yadigan nisbatan katta talablar bunday talablarga qarshi borgan ayollarning jamiyatga qaytishini ancha qiyinlashtiradi, jinoiy javobgarlikka tortilgan ayollarga ishonchsizlik uzoq vaqt saqlanib qoladi, ularning o'zlari ko'nikkan muhitdan uzoqlashishi nisbatan keskin sodir bo'ladi).

¹ Голоднюк М.Н. Некоторые вопросы женской преступности // Вестник МГУ. Право. – 1978. – №1. – С.26.

Retsidiv jinoyatchilikning mazkur jihatlari ayollar jinoyatchiligining professionallashishi bilan chambarchas bog‘liq. Ayollar jinoiy jazoga loyiq qilmishlarni ehtiyoitsizlik orqasida erkaklarga nisbatan taxminan besh baravar ko‘p sodir etsa, qasddan jinoyat sodir etishga oldindan tayyorgarlik ko‘rgan ayollar esa ikki baravar ko‘pni tashkil etadi.

Shaxsning xulq-atvorida shakllangan va ijtimoiy axloq darajasiga ko‘tarilgan tamagirlik niyatlari (professionalizmning asosiy belgisi bo‘lgani holda) muqarrar ravishda eng ijobiy ijtimoiy-ma’naviy institutlarning zaiflashishiga olib keladi.

Oila ijtimoiy rolining kamayishi va ma’naviy xususiyatga ega bo‘lgan hayotiy qadriyatlarga nisbatan qarashlarning o‘zgarishi jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan uzoqlashishga va jinoiy muhitning yosharishiga olib keladi.

Ayollar jinoyatchiligining kelib chiqishiga ko‘maklashuvchi yuqorida qayd etilgan omillarni o‘rganishning dolzarbligi ayollar jinoyatchiligi muammosiga jiddiy e’tibor berilmayotganligi, davlat, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari mazkur jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish usullari va shakllarini ishlab chiqmagan sharoitlarda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Odatda, yulg‘ichlik va parazitizm psixologiyasi bilan zararlangan shaxslar professional jinoyatchilar, ularning an’analari bilan to‘qnash kelganidan so‘ng pirovard natijada o‘z hayot yo‘lini jinoiy faoliyat bilan bog‘laydi.

Ayollar jinoyatchiligiga tatbiqan olganda, mazkur jarayon «jinoiy romantizm» an’analari ancha kuchli bo‘lgan ozodlikdan mahrum qilish joylari, tergov hibsxonalari va maxsus maktablarda ayniqla sezilarli kechadi. Yosh jinoyatchi ayollar, odatda, jinoiy muhitda erkak jinsiga mansub tengqurlari bilan katta aloqalarga ega bo‘ladi. Vaholanki, bunday shaxslar orasida so‘nggi vaqtarda «qonundagi o‘g‘rilar»ga va boshqa jinoiy avtoritetlarga taqlid qilib yashash anchagina keng tarqalgan.

So‘nggi yillarda badanga tatuirovkalar tushirish udumi ayniqla ayollarda yana urf bo‘lmoqda. Modaning bu elementi ham voyaga yetmaganlar va yosh qizlarni o‘ziga tortmoqda. O‘rganilgan voyaga yetmagan jinoyatchi qizlarning yarmidan ko‘vida tatuirovkalar borligi aniqlandi. Bunda mazkur tatuirovkalarning qariyb 30 foiz yorqin ifodalangan ma’noli xususiyatga ega, qolganlari esa, voyaga yetmagan jinoyatchi qizlarning iqroriga ko‘ra, «qiziqish tufayli» tushirilgan. Shunisi e’tiborga molikki, nisbatan katta yoshli jinoyatchi ayollar orasida tatuirovkalarga yoshlar muhitidagidek jiddiy ahamiyat berilmaydi. Buning ustiga, biz suhbatlash-

gan professional jinoyatchi ayollarning ko‘pchiligi tatuirovka tushirish udumi haqida ancha salbiy fikr bildirdilar va bir paytlar o‘z badanlariga bunday tatuirovkalarni tushirganliklaridan bugun afsus qilayotganliklarini ko‘rsatdilar. Aftidan, bu tatuirovka professional jinoyatchining o‘ziga xos «tashrif kartochkasi» bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek shaxs tashqi ko‘rinishining individual belgilariga ham urg‘u berishi, huquqni muhofaza qilish organlari shaxsni identifikatsiya qilishi jarayonida ma’lum hollarda professional jinoyatchi ayolga zarariga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlansa kerak.

Uyushgan professional jinoiy faoliyatda fohishalarning ishtirok etishi bilan bog‘liq vaziyat bugungi kunda ham bir necha o‘n yil oldingidek keskin bo‘lib turibdi, professional fohishalik hozirda ancha kuchaygan. Tungi klublar, saunalar, massaj salonlari turli tijorat tuzilmalari niqobi ostidagi har xil jinoiy guruhlarning homiyligida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bunday buzuqxonalar va ularda «ishlaydigan» ayollardan uyushgan jinoiy guruhlarning foydalanishi masalasi ham qonuniy ravishda kriminologik dolzarblikka ega. Bu, eng avvalo, aytaylik, fohishalar bilan turli hokimiyat organlari vakillarining uchrashuvini uyushtirish shaklida sodir bo‘ladi (yoki sodir bo‘lishi mumkin). Ushbu muammo haqida G.A. Matkarimova quyidagicha ta’kidlaydi: «Nazаримизда, seks bilan pora olish va berishni ham kiritish kerak, chunki ayollar jinoyatining ushbu turidan asrlar mobaynida muvaffaqiyatli foydalanib kelmoqdalar»¹.

Ushbu holatda «tadbirlar» (intim iloqa jarayoni)ni tegishli yo‘sinda hujjatlashtirish va ulardan obro‘sizlantiruvchi materiallar sifatida foydalanib, yuqorida zikr etilgan hokimiyat organlari vakillariga kelgusida tazyiq ko‘rsatish (ularni shantaj qilish) maqsadi ko‘zlanadi. Bu professional fohishalardan foydalangan holda, mansabdor shaxslarni og‘dirishning eng naqd «texnikaviy» usullaridan biridir. Bunday hollarda fohishalar boshqa shaxslarning jinoiy niyatlarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ammo, ba’zan ularning o‘zлари ham qonunni buzishda faollik ko‘rsatadi. Masalan, jinoyatchilar guruhi fuqarolarning uylariga bir qator hujumlar uyuشتirdi. O‘tkazilgan tezkor-tergov tadbirlari natijasida barcha jabrlanuvchilar bitta fohishaning xizmatlaridan bir necha marta foydalangan tijorat tuzilmalarining xizmatchilari ekanligi, bu fohisha ayol o‘z mijozlarining uyida pul mablag‘lari va qimmatbaho buyumlar qayerda turishini aniq bilgan holda, uyuشتirilgan talonchiliklarning bevosita

¹ Маткаримова Г.А. Халқаро ва миллий ҳукуқда аёлларнинг гендер ва репродуктив ҳукуқлари: Юрид. фан. док-ри... дис. – Т., 2002. – Б.79.

tashkilotchisi bo‘lgani, bunga ijrochi sifatida tanish erkaklarni jalb etgani, bu erkaklarning uchtasi ilgari sudlangani, biri esa uzoq vaqt qidiruvda bo‘lgani aniqlandi. O‘g‘irlangan mollar va qimmatbaho buyumlar jinoyat tashkilotchisi bo‘lgan fohisha ayolning tanishi boshqa bir fohisha ayolning uyida yashirilgan.

Fohishalar ko‘pincha tajribali jinoyatchilar qo‘lida ko‘ngil xushlik qidirgan yengiltak erkaklarni tuzoqqa ilintirish uchun «xo‘rak» bo‘lib ham xizmat qiladi. Fohishalarning mijozlarini ular fohisha bilan jinsiy aloqa qilishga tayyorgarlik ko‘rayotgan paytda o‘ldirgan va talagan professional qotillar va talonchilar o‘z vaqtida ancha ko‘p bo‘lgan. Olingan daromadni jinoyatchi va fohisha o‘zaro bo‘lishgan. Bunday hodisalar bugungi kunda ham uchrab turadi.

Fohisha ayollar ko‘pgina hollarda farzand ko‘ra olmaydi yoki ularning farzandlari qarovsiz qoladi. Ular (tobora tarqalib borayotgan) bolalar fohishaligiga jalb etiladi yoki o‘g‘rilar va boshqa jinoyatchilar safini to‘ldiradi, alkogoliklar va giyohvandlar qatoriga qo‘shiladi.

Fohishalik va u bilan bog‘liq ayollarning har xil jinoiy faoliyati ba’zan giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi bilan birgalikda sodir etiladi.

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning kriminologik xususiyati jinoyatlarning muayyan turlari va tegishli ravishda, jinoyatchilar toifalarining xilma-xilligidan iboratdir.

Giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi sohasida ayollar jinoiy «qobiliyati» qo‘llanadigan yana bir soha farmatsevtika sanoati sohasida va Sog‘lijni saqlash vazirligi tizimida – dorixonalar va kasalxonalardagi jinoyatlardir.

Ko‘pchilagini xotin-qizlar tashkil etuvchi mazkur muassasalarning xodimlari ba’zan jinoyatchilar bilan til biriktirib, tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan dorilar va preparatlar bilan g‘ayriqonuniy savdo qiladi va buning evaziga jinoyatchilardan katta haq oladi.

Ma’lumki, giyohvandlik vositalarini uzoq vaqt va surunkali iste’mol qilish natijasida shaxs ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan tubanlashadi, ijtimoiy foydali mehnat qilishga layoqat va xohish-istikani yo‘qotadi. Giyohvandlik vositasini har qanday yo‘l bilan qo‘lga kiritishga yo‘naltirilgan jinoiy faoliyat bunday shaxs hayotining asosiy maqsadiga aylanadi. Bunday intilishlarning ijtimoiy xavflligi yaqqol ko‘rinib turadi.

Jinoyat qonunlarida sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfllik darajasiga ko‘ra turli jazo choralari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat va Jinoyat-ijroiya kodeksida bu borada bir qancha

imkoniyatlar nazarda tutilgan. Biroq jinoiy jazoni ijro etish turlarining xilma-xilligi va vaqt o‘tishi bilan ular doirasining tobora kengayib bora-yotganligiga qaramay, mahkumlarga ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash eng an’anaviy va ommaviy bo‘lib qolayotir.

Ma’lumki, ozodlikdan mahrum etish jazosiga odatda xavfli jinoyatchilar hukm etiladi, ozodlikdan mahrum etish joylarida esa mahkumlarni tarbiyalash va takroriy jinoyatlarning oldini olish maqsadida tarbiyaviy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tarbiyaviy chora-tadbirlarning ko‘pchiliqi jazoni o‘tayotgan shaxslarda ozodlikdagi mikroijsitmoiy muhitning salbiy ta’sirida shakllangan g‘ayriijtimoiy qarashlar, moyilliklar va odatlarni tubdan yo‘qotishga qaratilgan. «Biroq, jazoni o‘tash joylaridagi boshqa jazoni o‘tayotgan jinoyatchilarining mahkumga ta’siri yuqorida aytilgan maqsadlarga erishishga jiddiy to‘siq bo‘ladi. Qolaversa, bu ta’sir mazkur jinoyatni sodir etishga turtki bo‘lgan salbiy omillarning shaxs ongida yanada chuqurroq o‘rnashishiga olib kelishi, shuningdek yangi g‘ayriijtimoiy qarashlar va intilishlarning shakllanish manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin¹.

Qo‘llanilgan jazo va tarbiyaviy yo‘sindagi majburlov choralarini idrok etishning muhim shaxsga oid tavsiflaridan yana biri mahkumlarning sodir etilgan jinoyatga va uning oqibatlariga munosabati hisoblanadi. So‘rovga jalgan mahkum ayollarning 24,6 foizi o‘z javoblarida qilmishlaridan pushaymon ekanliklarini bildirgan bo‘lsa, 27,7 foizi o‘zini qisman aybdor hisoblagan va qilmishidan qisman afsus chekishini ma’lum qilgan. O‘z aybini tushunib yetgan, biroq pushaymon chekmaganlar 15,4 foizni tashkil qildi. E’tiborli tomoni 15,4 foizi o‘zini mutlaqo aybsiz hisoblagan bo‘lsa, 16,9 foizi sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlariga befarq ekanliklarini bildirdi.

So‘rov jarayonida mahkum ayollarning tayinlangan jazoga nisbatan munosabatlari o‘rganilganida 12 foiz jazoni adolatli deb hisoblagan bo‘lsa, 52,8 foiz adolatli, biroq haddan tashqari qattiq deb biladilar. Biroq 50,8 foizi jazoniadolatsiz deb hisoblaydilar.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi mikroijsitmoiy muhitni tavsiflovchi muhim mezonlardan yana biri bu mahkum ayolning boshqa mahkumlar, kameradoshlari orasidagi o‘z ijtimoiy holatiga munosabatidir (bu yerda mazkur tadqiqot o‘tkazilgan tergov izolatorlarida saqlangan shaxslar (ayblanuvchilar) ham nazarda tutiladi).

¹ Антонян Ю.М. Социальная среда и формирование личности преступника. – М., 1975. – С.108.

Mazkur masala yuzasidan qo‘yilgan savolga javobda respondentlarning 21,5 foizi jamoada, guruhda peshqadamlilik qilishga intilayotganini ko‘rsatdi. Peshqadamlilikka da’vo qilmagan holda shaxsiy obro‘ orttirishga intilayotganlar 18,5 foizni, o‘zini yetarli darajada erkin his qiluvchi va obro‘sini mustahkamlashga muhtoj bo‘lmaganlar 26,2 foizni tashkil etdi. So‘ralganlarning 15,4 foizi o‘zini noo‘rin kamsitilgan, tushunilmagan, e’tiborsiz qoldirilganlar qatoriga kiritdi. Boshqa mahkumlar davrasidagi o‘z mavqeiga befarq qaraydigan ayollar 18,4 foizni tashkil etdi.

Oilaning buzilishi ayol kishining hayotida erkaknikiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Vaholanki, jazoni o‘tash davrida mahkum ayollarning har ikkinchi oilasi (erkaklarda har uchinchisi) buzilib ketadi.

Bolalardan ajralganlik, ularni tarbiyalashda (ular uch yoshdan katta bo‘lgan bolalarni ham) ishtirok etish imkoniyatidan mahrumlik erkaklardan ham ko‘ra ayollarga kuchli ta’sir qiladi.

Shu narsa e’tiborga molikki, o‘rganilgan koloniyalardagi mahkumlarning 76,2 foizi bolali ayollar bo‘lib, shulardan 36,4 foizi ikki yoki undan ortiq farzandga ega. Oilasi buzilganlar orasida bolali ayollarning salmog‘i undan ham katta, ya’ni 98,4 foiz. Koloniyalar qoshidagi bolalar uyiga joylashtirilgan bolalarning tarbiyasi bilan asosan ma’muriyat va bolalar uyi xodimlari shug‘ullanishidan guvohlik beruvchi amaliyot mazkur statistika fonida mantiqqa zid bo‘lib tuyulishi mumkin (mazkur holatda bu doim ham faqat onaning o‘z bolalari tarbiyasi bilan shug‘ullanishni istamasligi bilan bog‘liq bo‘lavermasligi, bunga ko‘pincha tashkiliy yo‘sindagi hamda koloniyadagi tartib va sanitariya-gigiyena tartibi bilan bog‘liq muammolar, koloniyada ona va bolaning birga yashashiga sharoit yaratish uchun moddiy imkoniyatlarning mavjud emasligi sabab bo‘lishini nazarda tutish lozim).

Mahkumlarning oilaviy munosabatlari bilan bir qatorda, ularning ozodlikka chiqqandan so‘ng mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabati o‘rganilganida ayollarning 37,7 foizi o‘z kuchi, bilimi va kasbiy uquviga ishonch hamda qonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish niyatini bildirdi. Ozodlikka chiqqandan so‘ng ishsiz qolishdan cho‘chiyatganlar 35,8 foizni tashkil etdi. So‘ralganlarning 26,9 foizi bu muammoga befarq ekanliklarini bildirdi. Nihoyat, mahkumlarning 20,6 foizi ongli ravishda o‘zini jinoiy faoliyatni davom ettirishga tayyorlayotganini tan oldi.

Yuqorida keltirilganlardan g‘ayriijtimoiy niyatlarini va ruhiy moyilliklarini ochiq-oydin bildirayotgan shaxslarning mavjudligi e’tiborni tortadi. Jinoiy submadaniyatning eng faol tarqatuvchilari ham, boshqa mahkumlarga eng salbiy ta’sir ko‘rsatuvchilar ham aynan shulardir. Ozodlikdan

mahrum etilgan ayollar muhitida bu toifa jinoyatchilarning tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar, shuningdek mazkur shaxslarning ijtimoiy va ma’naviy tubanlashishi darajasining yuqoriligi haqidagi fikr-mulohazalar tadqiqotlar natijasida o‘z tasdig‘ini topgan.

Ayollarning axloq tuzatish koloniylarida o‘ziga xos muhit hukm suradi. Mahkum ayollar davrasida yolg‘on-yashiq, hasadgo‘ylik, gumondorlik, qizg‘anish erkaklar davrasidagiga qaraganda kuchliroq bo‘ladi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analar vujudga keladi. Mazkur o‘ziga xosliklarni, jumladan, ayollar tomonidan jazoni o‘tashning begilangan tartibini buzish holatlari ham tavsiflaydi. Bunday tartibbuzarliklarning asosiy qismini quyidagilar tashkil etadi: ishlashdan bosh tortish va ataylab yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish – 10,4 foiz; jinsiy yo‘sindagi axloqsizlik – 19,8 foiz; mahkumlarni urib-do‘pposlash – 11,5 foiz; spirtli ichimliklar tayyorlash va iste’mol qilish – 10,9 foiz; mayda o‘g‘irlik – 8,2 foiz; bezorilik – 7,7 foiz; taqiqlangan buyumlarni olib kirish, yasash va saqlash – 5,6 foiz.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi ayollarning ko‘pchiligi «oilalar»ga birlashib yashaydi. Biroq erkaklarning ozodlikdan mahrum etish joylaridagi «oilalari»dan farqli o‘laroq, bu yerda aynan jinsiy aloqalar birinchi o‘ringa chiqadi. Bu oilalardagi munosabatlar oddiy oilaviy munosabatlarga o‘xshab ketadi. Ularda mahkumlardan biri er, ikkinchisi esa xotin vazifasini bajaradi.

«Oilalar» turg‘un hodisa hisoblanadi. Buning ustiga, alohida shaxsga mazkur munosabatlarning ta’siri shu qadar katta bo‘ladiki, ma’muriyat mahkumlar bilan ishlashda, shu jumladan axloq tuzatish-tarbiyaviy yo‘sindagi muayyan choralarini tanlashda ham bu munosabatlarga befarq qaray olmaydi.

G.F. Xoxryakovning ma’lumotlariga ko‘ra, mahkum ayollarning 40 foizdan ortig‘i, asosan yosh mahkumlar bir-biri bilan jinsiy aloqada bo‘ladi¹. Bizning ma’lumotlarga ko‘ra esa, bu ko‘rsatkich taxminan 20 foizni tashkil etadi.

Biroq hamma ayollar ham «oila» bo‘lib yashamaydi. Qarindoshurug‘lari, erlari va farzandlari bilan aloqalarini saqlab qolgan ayollar qamoqxonadagi jinsiy aloqalardan o‘zini tiyadi va ularni qoralaydi.

Shaxsning ijtimoiy-demografik va jinoyat-huquqiy tavsiflari bilan ayollar orasidagi jinsiy aloqalarda ishtiroki o‘rtasida biron-bir bog‘liqlik bormi yo yo‘qligi o‘rganilganida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yoshga oid bog‘liqlik mavjudligi qayd etildi. Bu asosan yosh ayollarning jinsiy aloqa qilishga nisbatan fiziologik ehtiyojlarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

¹ Хоряков Г.Ф. Парадоксы тюремы. Проблемы, дискуссии, предложения. – М., 2011. – С.135.

Shunday qilib, ayollarda qonunga zid xulq-atvori shakllanishiga imkoniyat yaratgan shart-sharoitlarning o‘ziga xosliklarini o‘rganish: 1) ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar avvalambor ijtimoiy omillar bilan belgilanishini; 2) faqat ayollar jinoyatchiliga xos bo‘lgan va shuning uchun ham uni barcha jinoyatchilik orasida alohida hodisa sifatida ajratib turadigan ma’lum o‘ziga xosliklarni qayd etishning zarurligini; 3) bu o‘ziga xosliklar faqat obyektiv tavsiflarni taqqoslashdagina emas, avvalambor, jinoiy faoliyat sabablarining yo‘nalishini baholashda aniqlanishini; 4) ayollarning jinoiy faoliyati ijtimoiy vogelikning obyektiv va subyektiv omillarining o‘zaro ta’siri bilan belgilanishini; 5) hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligi jamiyatda sodir bo‘luvchi tarixiy, jug‘rofiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va demografik o‘zgarishlar bilan belgilanadigan o‘z ijtimoiy xususiyatlariga ega ekanligini; 6) ko‘rsatilgan o‘zgarishlar ayollar turmu-shining mikroijtimoiy muhitida o‘zining eng yorqin ifodasini topishini; 7) mikroijtimoiy muhitning salbiy ta’siri turmushning har xil bosqichlarida turlicha ekanligi va ma’lum ijtimoiy-demografik o‘ziga xosliklar bilan belgilanishini; 8) bunday hodisa mahkum ayollar jazoni o‘taydigan ozodlikdan mahrum etish joylarida ayniqsa keskin his qilinishini, bu joylardagi ijtimoiy muhit esa faqat o‘zigagina xos xususiyatlarga ega bo‘lib, erkaklar koloniyalidagi muhitdan jiddiy farq qilishini ko‘rsatdi.

3-§. Jinoyat sodir etgan ayollar tasnifi

1897-yili Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo‘lib o‘tgan syezdida jinoyatchilarning tasnifi qabul qilingan bo‘lib, u teng darajada jinoyatchi ayollarga ham tegishlidir. Ushbu tasnifga ko‘ra jinoyatchilar quyidagilarga ajratildi:

- 1) tasodify, epizodik jinoyatchilar;
- 2) xulq-atvorida jiddiy beqarorlik bo‘lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan jinoyatchilar;
- 3) ashaddiy yoki professional jinoyatchilar.

CH. Lombrozo ham o‘zining «Jinoyatchi va fohisha ayol» asarida jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan ayollarni bir nechta tiplarga ajratadi: 1) tug‘ma jinoyatchi ayollar; 2) tasodify jinoyatchi ayollar; 3) ehtirosli jinoyatchi ayollar. Lombrozo o‘z joniga qasd qilgan va chaqalog‘ini o‘ldirgan ayollarni alohida ko‘rib chiqadi, fohishalarni ham ikkita: tasodify va tug‘ma toifadagilarga ajratadi¹.

¹ Ломброзо. Ч. Гениальность и помешательство. – Симферополь, 1998. – С. 400.

Mazkur ma'lumotlar jinoyatchilarning asosiy tiplarini yetarli darajada keng va aniq ifoda etadi. Yuqorida ko'rsatilgan tiplar amalda doim ham «sof» ko'rinishda namoyon bo'lavermasligini e'tiborga olish kerak. Ular har xil uyg'unlikda namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyatchi tiplarning o'zi ham muayyan tarkibiy qismlarga – kichik tiplar, kichik guruhlarga ajratilishi mumkin. Fikrimizcha, jinoyatchilik yoki uning alohida turining mukammal va barqaror tipologik tavsifi bo'lishi mumkin emas, zotan mazkur jarayon bilish va jamiyat taraqqiyoti jarayonlari hamda jinoyatchilikning o'zida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Jinoiy tiplarni klassifikatsiya qilish va ularning tipologiyasi har xil maxsus manfaatlarga xizmat qiladi, tadqiqotchilarning o'z oldiga qo'yilgan muayyan maqsadlarga erishishini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda jinoyatchilarni turkumlash va tipologiyasini farqlash masalalari ancha munozaralidir. Masalan, 1992-yilgacha nashr etilgan kriminologiya darsliklarida jinoyatchilarning tasnifi va tipologiyasiga jiddiy ahamiyat beriladi, bunda jinoyatchilarni turkumga ajratish kriminologiya fanida odatda so'zning keng va tor ma'nosida tushuniladi¹. Tor ma'noda bu jinoiy xulqatvor sabablari bilan qonuniy bog'langan jiddiy alomatlarga asoslanuvchi tipologiyadir. Keng ma'noda esa, guruhlash deganda ko'rsatilgan tor ma'nodagi tipologiya va turkumlash tushuniladi. Ayrim mualliflarning ilmiy ishlarida xuddi shunday ma'nodagi «guruhgaga ajratish» atamasi ham uchrab turadi.

Nisbatan keyinroq chop etilgan kriminologiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa maqolalarda, shuningdek jinoyatchining shaxsini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarda turkumlash tipologiyadan qat'iy farq qiladi², deya ta'kidlanadi.

Shunday qilib, jinoyatchilarni turkumlarga ajratish jinoyat sodir etgan shaxslarni kriminologik o'rganish usuli hisoblanadi. U mazkur shaxslarning atributiv, ya'ni ajralmas alomatlariga asoslangan holda guruhlarga ajratilishini nazarda tutadi. Bularga: tashqi, rasmiy xususiyatga ega bo'lgan alomatlar, masalan, shaxsni ijtimoiy-demografik (jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi va boshq.); kriminologik (jinoiy qilmishning turi, aybning shakli, shaxsning sodir etilgan jinoyatdagi roli, jinoyatni takroriy sodir etish va h.k.) guruhlarga ajratish kiradi.

¹ Курс советской криминологии. – М., 1985. – С. 293–309; Криминология. – М., 1988. – С. 99–101; Криминология. – СПб., 1988. – С. 93–96; Ломброзо Ч. Женщина-преступница и проститутка. – Киев, 1902. – С. 162

² Шнейдер Г.И. Криминология. – М., 1994. – С. 332.

Ba'zan jinoyatchilarni turkumlash va guruhga ajratishda boshqa mezonlardan ham foydalilanadi: jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, aybdorning ruhiy holati, mastlik holati yoki mast emasligi va h.k. Demak, jinoyatchilarni tiplarga ajratish shaxs sodir etgan qilmishning mohiyati asosida amalga oshirilsa, turkumlash rasmiy xususiyatga ega bo'ladi.

«Turkumlash», «guruhash» tushunchalari universal xususiyatga ega. Shu bois ular yordamida jinoyatchilarning jinsi va yoshi, sodir etilgan jinoyatning jinoyat-huquqiy tasnifi, tayinlangan jinoiy jazoning turi va boshqa rasmiy mezonlari farqlanadi va bu o'rganish uchun juda qulaydir.

Huquqni muhofaza qilish organlarining shaxs darajasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan faoliyati jinoyatchi shaxsi tipologiyasi ning ishlab chiqilishiga bog'liqdir. Mazkur tipologiya individual xulq-atvorni prognoz qilish hamda differensiatsiya qilingan va individuallash-tirilgan profilaktika va huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash usulining negizini tashkil etadi.

Aynan shaxsni tiplarga ajratish orqali shaxsning o'ziga xos modeli yaratiladi. Shaxsning mazkur modelga mos kelishini aniqlash uning muayyan shaxs tipiga mansubligidan dalolat beradi.

Jinoyatchining shaxsiga doir kriminologik tadqiqotlarda deviant xulq-atvorga turtki beruvchi ma'lum sabablarni tavsiflashga ham urg'u berilgan. Mahkum ayollar shaxsining tipologiyasi o'ziga xos bo'ladi, ya'ni boshqa belgi va mezonlarga ko'ra, (masalan, jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega ijtimoiy-psixologik va jinoiy faoliyatda ishtirokchilik belgilariga, jinoiy tajovuz obyektiga ko'ra tuzilgan bo'lishi mumkin).

Jinoyatchilarni turkumlash uchun shaxsning ijtimoiy xavflilik, ma'naviy tubanlik va tarbiyasizlik darajasini aniqlash muhim hisoblanadi. Bu yerda shaxsning xususiyatlari va u tomonidan sodir etilgan qilmish uyg'unlikda asos qilib olinadi.

Sodir etilgan jinoyatning xususiyati va holatlari barcha kriminologik omillar bilan birgalikda shaxsning jinoiy xulq-atvori mexanizmini, uning jinoiy moyilliklarini, jinoyat sodir etishda faollik darajasini, yuzaga kelgan hayotiy vaziyatlarning mazkur shaxsga ta'siri darajasini aniqlash imkonini beradi. Jinoyatchilar, jumladan, jinoyatchi ayollarni turkumlash va tiplarga ajratishda mazkur mezonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Jinoyatchi ayollarni tiplarga ajratib o'rganishning amaliy ahamiyati shundaki, u mazkur tipga mansub shaxs xulq-atvorining yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablari, qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga umumiylarini ta'rif berish va ularni statistik darajada o'rganish shaxslarning ma'lum turkumlariga xos bo'lgan xusu-

siyatlarni aniqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish va jinoyatchilikning oldini olish uchun tegishli choralar ko‘rish imkonini beradi.

Ma’lumki, jinoyatchining shaxsi jinoyatchi bo‘lmagan odamning shaxsidan ijtimoiy xavflilik darajasi bilan farq qiladi. Ijtimoiy xavflilikning mazmuni yoki xususiyati shaxs jinoiy xulq-atvorining yetakchi sabbabiy yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi esa mazkur yo‘nalishning qat’iyligi va chuqurligidan kelib chiqib farqlanadi.

Jinoiy xulq-atvor, jumladan, ayollar jinoiy xulq-atvorining tipologik modellarini tuzishda bir qator fanlar – kriminologiya, umumiy psixologiya, fiziologiya, seksologiya, sud-psixiatriya, patopsixologiya, seksopatologiya kabi fanlar sohasiga ham e’tibor berish talab qilinadi.

Ayollarning agressiv xulq-atvorini insonning evolutsiyasi jarayonida shakllangan bioijtimoiy xususiyati hisoblanuvchi nisbatan murakkab bo‘lgan agressivlik fenomeni doirasida ko‘rib chiqish kerak. Shunday ekan agressivlikni biologik obyekt, jumladan, insonga ham xos bo‘lgan doimiy xususiyat sifatida, agressiyani esa muayyan sharoitlarda sodir etiladigan harakatlar sifatida farqlash lozim.

Ta’kidlash joizki, hozirga qadar erkaklar va ayollar agressiyasining farqlariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar kriminologiyada ham, psixiatriyada ham olib borilgan emas, faqat bu borada empirik tajriba asosidagi ayrim qaydlargina mavjud. Bunda oiladagi shafqatsizlik muammosini muhokama qilib, erkaklarda agressiya tashqariga, ayollarda esa ko‘proq ichkariga, o‘ziga qaratilishini, erkaklarda instrumental agressiya, ayollarda esa verbal agressiya ko‘proq kuzatilishi qayd etiladi.

Shunday qilib, ayollarning agressiv kriminal xulq-atvorini belgilaydigan «sindrom – shaxs – vaziyat» uchligining o‘lchamlari o‘z ifodasini topgan muayyan klinik-ijtimoiy komplekslar aniqlandi. Bu klinik-ijtimoiy komplekslardan ayollar tomonidan sodir etiluvchi agressiv harakatlarni proqnoz qilish uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, ular o‘rganilgan ayollar kontingenti tomonidan sodir etiladigan agressiv harakatlarni profilaktika qilishga qaratilgan tibbiy va ijtimoiy yo‘sindagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga kompleks yondashuv uchun xizmat qilishi mumkin.

Klinik, ijtimoiy, shaxsiy va vaziyat bilan bog‘liq omillarning o‘zaro turlicha ta’sirini o‘z ichiga oluvchi ko‘p omilli tizimlarning tahlili asosida o‘tkazilgan ayollarning agressiv kriminal xulq-atvorining tipologiyasi ular tomonidan sodir etiladigan agressiv xatti-harakatlar vnenozologik (ya’ni, tibbiy patologiya chegarasidan chiqadigan) mexanizmlarga ega ekanligini

ko'rsatadi va ularni sifat jihatidan boshqa darajada ko'rib chiqish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ruhiy patologiya turlarining shakllanishini belgilovchi omilli tafovutlar, o'rganilayotgan ayollarning barchasiga xos rasmiy xususiyatga ega bo'lgan qator o'xshashliklar mavjudligi aniqlandi.

Ushbu ayollarning barcha tipologik guruhlariga xos bo'lgan o'xshashliklar o'rganilayotgan ayollar agressiyasining tabiatini masalasini yoritish nuqtai nazaridan o'ta muhim kriminologik ahamiyatga egadir. Masa-lan, jinoiy tajovuz obyektlarining deyarli barchasi jinoyatchi ayollarning yaqinlari yo qarindosh-urug'lari, aksar holatlarda erlari, o'ynashlari, qaynonalari, boshqa qarindoshlari va kamdan-kam holatda farzandlari bo'lishgan. Tajovuzkorlik xatti-harakatlari odatda beqaror va har xil ijtimoiy anomaliyalar tufayli murakkablashgan maishiy muhitda sodir bo'lgan. Bunda bolalarga qarshi qaratilgan agressiv xatti-harakatlarni sodir etgan jinoyatchi ayollarning ko'pchiligi ruhiy xasta bo'lgan. Biroq o'rganilgan ayollar orasida jinsiy ehtiyojni qondirish maqsadida surunkali agressiv harakatlarni sodir etish holatlari qayd etilmagan.

Professional jinoyatchi ayollarning mavjud tiplarini quyidagicha shakllantirilishi ayollar tomonidan sodir etilgan qilmishlarning xususiyatiga ko'proq darajada javob beradi.

Birinchi tip – bu «past malakali» shaxs. Bular ma'naviy, ruhiy, psixologik va fiziologik jihatdan buzilgan odamlar, ijtimoiy nuqtai nazaridan ma'lum darajada tubanlashgan shaxslardir. Ular, odatda, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiladi, jinoyatlar sodir etish bilan bir qatorda tasodifan uchragan ishlarni bajarib kun kechiradi, ba'zan doimiy turar joyga ega bo'lmadan daydilik qiladi. Bunday shaxslar asosan o'zganining mulkini oz miqdorda takroran o'g'irlash jinoyatlarini sodir etadi. Jumladan, ular odamlar ko'p yig'iladigan joylarda (aeroportlar, vokzallar, mакtablar, bolalar bog'chalari, qariyalar uylari va hokazolarda) qarovsiz qolgan buyumlarni o'g'irlaydi. Bunday shaxslar uchun jinoiy faoliyat asosiy tirikchilik manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu ayollarning ko'pchiligi oilasiz, doimiy turar joyga ega emas, tamagirlik jinoyatlari uchun takroran sudlangan, daydilik uchun ushlangan, onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslardir.

Bunday shaxslarning ko'pchiliginini asosan 46 – 55 yoshdagilar tashkil etadi. Ularning ma'lumot darajasi o'rta. Mazkur professional jinoyatchi ayollar jinoiy an'ana va udumlarning «passiv» tashuvchilari jumlasiga kiradi, zotan, ular o'z shaxsiy sifatlariga ko'ra, ma'lum tashkilotchilik faoliyatiga qodir emas, ularning jinoiy «ixtisosligi»ga hatto jinoyatchilar

muhitida ham past nazar bilan qaraladi. Bunday ayollarni faqat shartli ravishda professional jinoyatchilar deb atash mumkin, chunki ularning ko‘pchiligi o‘zining jinoiy professional malakasini yo‘qotib boradi. Ular o‘z jinoiy qilmishlarini ko‘p hollarda puxta tayyorgarlik ko‘rmasdan, oqibatlarini o‘ylamasdan sodir etadi.

Odatda, shaxsning yashash sharoitlari va ma’lum turmush tarzi, shaxsning ichkilikka berilishi, giyohvandlik vositalari iste’mol qilishi, tartibsiz jinsiy hayot kechirishi oqibatlari jinoyat sodir etilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu, shu jumladan, har xil ruhiy xastaliklar va somatik xususiyatga ega bo‘lgan surunkali kasalliklarga chalingan shaxslarda ham o‘z ifodasini topadi. Bir necha marta sudlanganligi va ozodlikdan mahrum qilish joylarida uzoq vaqt bo‘lganligi natijasida mazkur tipga mansub bo‘lgan ayollar o‘zlarining ko‘pgina ijtimoiy foydali ko‘nikmalari va aloqalarini yo‘qotadilar. Mohiyat e’tibori bilan, ular ayollarga xos bo‘lgan ko‘pgina xususiyatlarini yo‘qotadi, ya’ni ular o‘z farzandlarini (agar ular bo‘lsa) tarbiyalash funksiyalarini bajarishga qodir bo‘lmay qoladi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida aynan shunday ayollar gomoseksual aloqalarda faol ishtirok etishi, bunda ular erkaklar rolini bajarishi ham tasodifiy emas. Ular professional jinoyatchi ayollar toifasiga shuning uchun ham kiritiladiki, bu ayollar jinoyatchilar va o‘g‘rilar muhitini, ularning an’ana va udumlarini juda yaxshi biladi. Garchi ular professional jinoyatchilar iyerarxiyasida eng past pog‘onani egallagan bo‘lsa-da, ular tamagirlik yo‘nalishidagi jinoyatlar sodir etish bilan bog‘liq hayotiy qarashlarga ega bo‘ladilar.

Ko‘rib chiqilgan shaxs tipiga quyidagi holat juda yaxshi misol bo‘ladi. Mahkum V. 1983-yilda Samarqand viloyatida tug‘ilgan, mazkur viloyatda yashaydigan ota-onasi bilan deyarli aloqa qilmaydi. Ma’lumoti o‘rtta. Vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘lgan ishlar bilan shug‘ullangan, mardikorlik qilgan. Oilasiz, bolalari yo‘q. Muqaddam uch marta, ya’ni: bir marta bezorilik uchun va ikki marta o‘g‘rilik uchun sudlangan. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida jami yetti yil o‘tirgan. So‘nggi marta ayollar sumkasini o‘g‘irlagani uchun jazoga hukm etilgan. Oziq-ovqat va kiyim-kechak sotib olish uchun pulga muhtoj bo‘lgani tufayli u jinoyatga qo‘l urgan. Doimiy turar joyi bo‘lмаган. Jinoyat sodir etgunga qadar u muqaddam sudlangan tanish ayolning uyida yashagan. Tergov hibsxonasida saqlangan paytda gomoseksual jinsiy aloqa qilgan. Kamerada u bilan birga saqlangan ayollar orasida qamoqxona an’analari va udumlarini bilishi, shuningdek jismonan baquvvatligi, zo‘rlik ishlatishi va shafqatsizligi bilan ma’lum «obro‘»ga ega bo‘lgan. Ish bo‘yicha o‘tkazilgan narkologik

ekspertiza mazkur ayolning spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishini aniqlagan, ammo surunkali alkogolizm belgilarini topmagan.

Professional jinoyatchi ayollarning *ikkinci tipi* shartli ravishda «g‘araz maqsadli zo‘ravon» tip deb nomlanadi. Bular, odatda, yosh professional jinoyatchi ayollar, alohida hollarda esa, hatto voyaga yetmagan shaxslardir. Ma’lumotlarga qaraganda, bunday ayollarning 45 foizga yaqini bir necha marta jinoyat sodir etganiga qaramay, muqaddam sudlanmagan. Mazkur shaxs tipining yosh chegaralari 17 – 35 yosh. O‘ziga xos xususiyatlari: jinsiy hayoti tartibsiz, ma’lumoti (to‘liq o‘rtalik) va kasbiy malakasi pastligiga qaramay, moddiy ehtiyojlari ancha baland. Ular, odatda, erkaklarning guruhlari tarkibida g‘araz maqsadlarda zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etadi, mazkur guruhlarda ba’zan yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Ushbu tipga mansub ayollar orasida fohishalar ko‘p bo‘lib, ular jinoiy faoliyatda yordamchi, dalolatchi yoki tashkilotchi vazifasini bajaradi.

Jinoyatchi ayollarning mazkur tipiga giyohvandlik vositalarini iste-mol qilish xosdir. Bu tipga mansub ayollar avvalgilariga qaraganda tubanlashgan, ularning xulq-atvorida shafqatsizlik va prinsipsizlik, ayniqsa ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida ular mahkumlarning eng salbiy kayfiyatdagi qismini tashkil etadi. Ularning emotsiyal-psixologik holati intellektual-irodaviy nazoratning zaifligi natijasida impulsiv ravishda tug‘iladigan agressiv da’vatlarni bevosita ro‘yobga chiqarishga moyillik bilan uyg‘unlikda ichki qarama-qarshiligi darajasining kattaligi bilan ta’riflanadi.

Uchinchi tip bir o‘zi yoki erkak bilan (kam hollarda ayol bilan) ishtirokchilikda jinoyat sodir etadigan yuqori darajada professional o‘g‘ri va firibgar ayollar.

Bunday ayollar jinoyatlarga puxta tayyorgarlik ko‘radi, jabrlanuv-chilarning xatti-harakatlari, jinoyat izlarini yashirish kabilarning mumkin bo‘lgan barcha variantlari nazarda tutiladi, jinoyat sodir etish uchun qulay joy, shuningdek jinoyat quroli va vositalari oldindan tanlab olinadi. Bunday tipdagи ayollarning yoshi 27 – 50 yosh doirasida bo‘ladi. Ulardan yoshlari ko‘pincha jinoyatni ishtirokchilikda sodir etadi. Ularning oilasi odatda buzilgan yoki faqat rasman saqlanib qolgan bo‘ladi.

Ularga xos xususiyatlar: turli favqulodda vaziyatlarga psixologik moslashuvchanlik layoqatining kattaligi, o‘g‘rilik va firibgarlikka ixtisoslashganlik, o‘rtalik yoki o‘rtalik maxsus ma’lumotga, ma’lum hayot tajribasiga egaligi bilan izohlanuvchi intellektual saviyaning nisbatan balandligi.

Bunday ayollar orasida maxsus retsidivning salmog‘i ancha kattadir. Retsidiv jinoyatning bu turida zo‘ravonlik jinoyatlarini deyarli bo‘lmaydi.

Jinoyat sodir etish uchun «gastrol»ga chiqish, har xil o‘g‘rilik qilishga mo‘ljallangan moslamalardan, soxta hujjatlar, pul kupuralari va hokazolardan foydalanish holatlari keng tarqalgan.

Professional jinoyatchi ayollarning *to‘rtinchi tipini* jinoyatchilar orasida «o‘g‘rilar onasi» deb atash qabul qilingan bo‘lib, bu jinoyat olamida mazkur toifaga mansub ayollarning tutgan o‘rnini yorqin ifoda etadi. Bular fohishaxonalar va giyohvandlik vositalari iste’mol qiluvchilar uchun bangixonalarning saqlovchilari, qo‘shmachilar, o‘g‘rilik mollar va giyohvandlik vositalari sotib oluvchilar va sotuvchilaridir. Bu toifaga mansub jinoyatchilarni boshqa professional jinoyatchi ayollarga qaraganda qo‘lga olish anchagina qiyin hisoblanadi. Ularning g‘ayriijtimoiy qarashlari va hayotga munosabati turg‘un. Jinoyat olami vakillari bilan ular har tomonlama, shu jumladan mintaqalararo aloqalarga ega. Bunday ayollar jinoiy an’ana va udumlarning faol tarqatuvchilari bo‘lib, yoshlari va voyaga yetmaganlarni g‘ayriqonuniy faoliyatga jalb etadi. Ularning ko‘pchiligi, odatda, oilasiz bo‘lib, muvaffaqiyatsiz oilaviy hayotning muqobili sifatida mana shunday jinoiy faoliyatni tanlagan. Bunday ayollar kirishimli, irodali va tashkilotchilik qobiliyatiga ega, shuningdek ularning yoshi ko‘p hollarda 40 – 55 yosh doirasida.

«*Oq yoqalilar*» deb nomlanuvchi professional jinoyatchi ayollar qayd etilayotgan jinoyatchi ayol shaxsi tiplarining beshinchisi, eng oxirgi tipidir. Bu yerda turli moddiy ishlab chiqarish sohalarida, kredit-moliya va bank tizimlarida, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘zganining mulkini talon-toroj qilish, mansab va xo‘jalik jinoyatlarini sodir etishni kasbga aylantirgan jinoyatchi ayollar nazarda tutiladi. Ular ijtimoiy nuqtai nazardan ancha yaxshi hayot kechiradi (oilali, farzandlari bor), boshqa tip vakillariga qaraganda ma’lumot darajasi ancha yuqori va yaxshi ta’milangan, ammo, shu bilan birga, o‘z jinoiy faoliyati natijasida ular jamiyatga eng ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazadilar. Ular ko‘pincha uyushgan jinoiy guruhlarning vakillari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi yoki bunday guruhlarda faol ishtirok etadi. Professional jinoiy faoliyat xizmat, ishlab chiqarish va mansab vakolatlarini bajarish bilan chambarchas aloqador bo‘lib, bu yuqorida zikr etilgan shaxs tipining asosiy o‘ziga xos jihatini hisoblanadi.

Bunga 1959-yili Navoiy shahrida tug‘ilgan SH.ning faoliyatini misol qilib keltiramiz. U eri bilan ajrashgan, farzandi bilan o‘zining alohida uyida yashagan. Muqaddam sudlanmagan. Tashkilotda bosh hisobchi bo‘lib ishlash jarayonida ikki erkak bilan (ulardan biri ayolning jazmani bo‘lgan) oldindan til biriktirib, o‘zganining juda katta miqdordagi mulkini

talon-toroj qilgan, ya’ni pul mablag‘larini o‘tkazish to‘lov hujjatlarini takroran qalbakilashtirish yo‘li bilan chet el firmalarining tranzit hisobvaraqlaridan bir necha yuz ming AQSH dollarini o‘g‘irlagan. Shu narsa e’tiborga molikki, tergov va sud tomonidan to‘plangan SH.ning shaxsiga berilgan tavsifnomalarning hammasi ijobiy bo‘lgan, ayolning jinoiy faoliyati uzoq vaqt yashirin qolib kelgan.

Yuqorida keltirilgan tipologiya ancha shartli xususiyatga ega ekanligi shubhasiz, uni yanada kengaytirish, tipologiyaning butun tuzilishini ham, undagi har bir tipni ham yanada chuqr tavsiflash mumkin. Ammo, shu bilan birga, biz professional jinoyatchi ayollarning shaxsini tiplarga ajratish muammosining qo‘yilishiga e’tiborni qaratishni istar edik, zotan ilgari ilmiy adabiyotlarda bu muammo ayollar jinoyatchiligiga tatbiqan ko‘rib chiqilmagan.

Shaxs tiplari, g‘ayriqonuniy xulq-atvor modellari va unga turtki beruvchi sabablarning o‘z holicha bir-biri bilan ma’lum darajada bog‘liqligi, sabablar darajasida ham, muayyan jinoiy qilmishlar darajasida ham aralash shakllarga ega bo‘lishi mumkinki, mazkur jinoyatlarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida, avvalambor, profilaktika faoliyatining turli bosqichlarida ularni e’tiborga olish kerak.

Xullas, jinoyatchi ayollarning shaxsini uslubiy o‘rganishda har xil tipologik mezonlarni hisobga olish zarurdir. Jinoyatchi shaxsini o‘rganishda o‘zaro yaqin bo‘lgan fan sohalari tomonidan taklif qilingan qator tiplarga mos keluvchi mezonlarga tayanish ham o‘rinli. Bu borada motivatsiyaga asoslangan tipologiyaning ahamiyati kattadir.

III BOB

JINOYAT SODIR ETUVCHI AYOLLAR PSIXOLOGIYASI VA ULAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

1-§. Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda psixologik bilimlarning ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini buzgan va ularga amal qilishni istamagan huquqbazarlar, ularni buzishga ko‘proq moyil bo‘lgan shaxslar, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslar orasida huquqiy va psixologik tarbiyani yaxshilash borasida samarali ish olib borish davr talabidir.

Ma’lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og‘ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan huquqiy, psixologik hamda diniy me’yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo‘lishgan.

Sharqning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiy falsafani ikkiga, nazariy va amaliyga bo‘ladi hamda axloqshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy me’yorlardan og‘ish muammolari, uning «Baxtga erishuv yo‘lini ko‘rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko‘tarilgan. Alloma o‘z qarashlarida fazilatga juda katta o‘rin beradi. Arastuga o‘xshab, u ham fazilatlarni ikki qismga – fozoil nutqiya (aql-idrokka asoslangan fazilatlar) va fozoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlab o‘tadi.

Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go‘zal amallar qilish uchun yo‘naltiradigan odat mahsuli bo‘lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me’yor qay darajada saqlangani bilan bog‘lanadi. Forobiy ba’zilar o‘ta lazzatga berilishi, yeyish-ichish va yengil turmush tarzi, behayolikka ruju qo‘yishi tufayli juda bo‘shashib ketadi, irodasi zaiflashadi, unda risoladagi nafrat hamda g‘azab hissi yo‘qoladi deydi. Butun kuchini o‘z nafsiga sarflaydigan kishida ulug‘vorlik tubanlikka xizmat qila boshlaydi, ya’ni fikrlash qobiliyati g‘azab va ehtiros kuchlari xizmatida bo‘ladi, bu kuchlarning harakati esa, yeyish-ichish hamda shahvoniy nafsn qondirishga bag‘ishlanib qoladi.

Axloq ilmida va umuman ijtimoiy hamda tabiiy fanlarda o‘z asarlari bilan chuqur iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir. Uning asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-

odatlari, inson xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug‘rofiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Bu esa keyinchalik psixologiya va kriminologiyada geografik yo‘nalish nomini olgan hamda ijtimoiy deviantlik holatlarining paydo bo‘lishi va shakllanishida geografik omillarni muhim deb hisoblovchi yo‘nalishga asos bo‘lib xizmat qildi.

Milliy pedagogikamizda muhim o‘rin tutuvchi asarlardan biri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilimlar») asaridir. Asosan bilimni ulug‘lab, insonni bilim bilan kamolotga yetishtirishga, tarbiya va bilim orqali uning xulqini tarbiyalashga, unda ijobiy xislatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mazkur asar ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining deviant xulq-atvorga ilmiy yondashuvini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq-atvoriga nisbatan o‘ziga xos yondashuvni kuzatish mumkin. Uning fikricha, yaxshi xulq ham, yomon xulq ham ikki xil bo‘lishi mumkin, ya’ni: tug‘ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulq.

Ma’lumki, deviant xulq-atvor nazariyasiga nisbatan yagona yonda-shuv yo‘q. Turli psixologik va kriminologik nazariyalar bilan birga, ular-dan keskin farq qiluvchi biologik qarashlar ham yonma-yon rivojlanib kelmoqda. «Qutadg‘u bilig»da esa, alloma tomonidan ushbu ikki qarama-qarshi yondashuvlarni birlashtirish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, ayrim insonlarning yomonligiga, deviant xulqqa egaligiga tug‘ma omillar sabab bo‘lsa, boshqalariga ijtimoiy muhit sabab bo‘ladi.

Shuningdek, Navoiy va boshqa Sharq allomalari asarlarida ham ilgari surilgan axloqiy tamoyillar hamda ijobiy qahramonlar qiyofalarida tajassum topganadolat, sadoqat, burch, muhabbat, rahm-shafqat, mardlik, kamtarlik singari fazilatlar haqida ko‘p yozilgan. Faqatgina Navoiyning o‘lmas asari «Xamsa»dagi Shirin obrazini eslash joiz.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Xo‘s, nima uchun hozirda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan jonajon O‘zbekistonimizda ayollar jinoyat-chiligining dinamikasi kuzatilmoxda? Buyuk allomalarimizning keljak haqidagi, komil inson orzusidagi, fozil axloq haqidagi ta’limotlarini nega ba’zi yurtdoshlarimiz e’tiborga olmayaptilar?

Inson xulq-atvoridagi salbiy ko‘rinishdagi xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqish va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik hamda ularni buzish bilan xarakterlanadi. Bunday xatti-harakatlar deviant xulq-atvor deb ataladi. Ayollarda deviant xulq va «normadan chetga chiqish» tushunchasi og‘uvchi xulq (deviant lot. deviatio – og‘ish) kishining qilmishlari, odatiy faoliyat turi, umum e’tirof etilgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlarga mos kelmay yoki

farq qiladigan, barqaror ravishda ijtimoiy me'yorlardan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytildi. Demak, deviant xulq – jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlardan og'uvchi xulqdir. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyat-larga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan xulq-atvor ayollarda ko'pincha o'smirlik davridan boshlanib, ular tomonidan maktabdagi darsga bormaslik, uydan qochib ketish, daydilik, tilanchilik bilan shug'ullanish, ichkilikka qiziqish, giyohvandlikka ruju qo'yishdan boshlanadi. Ularning ruhiyatida yengil-yelpi hayot kechirish, shaxsiy fiziologik va moddiy ehtiyojlar asosiy ehtiyojlar ko'rinishini qamrab oladi. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, turli huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishga olib keladi.

Deviant xulq-atvorning asosiy turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'zini o'zi o'ldirish, daydilik, fohishalik, ruhiyat buzilishi va shu kabilarni kiritish mumkin. Ba'zi adabiyotlarda deviant xulq delinkvent hamda destruktiv xulq sifatida ham ta'riflanadi. «Delinkvent» atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, qonunga xilof, jinoiy degan ma'nolarni anglatadi. Delinkvent xulq – qonundan og'uvchi, g'ayriqonuniy, jinoiy xatti-harakat turidir¹. Biz bu atama ostida shaxsning qonunga zid axloqi jamiyatda o'rnatilgan qonunlardan og'ib, boshqa odamlar yoki jamiyat tomonidan o'rnatilgan tartibga, tinchlikka xavf soluvchi va oxir-oqibat jinoiy jazolanadigan aniq shaxsning harakatini tushunamiz. Ya'ni bunday xulq-atvorli ayol kishi xatti-harakatlarida boshqalarga nisbatan janjalli, tajovuzkor; spirtli ichimliklar, narkotik vositalar, kuchli ta'sir etuvchi tibbiy vositalarni suiiste'mol qilish va kashandalikka moyil; g'ayriijtimoiy xulq, huquqbuzarlik, hatto jinoiy qilmishlar sodir etishda; o'zini o'ldirishga urinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki deviant xulq-atvor asosida shakllangan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlari sababli sodir etiladi.

Qonunga itoat qiladigan va ma'naviyati yuksak ayollar uchun «jinoyi» vaziyatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Vaziyat o'z-o'zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat deviant xulqli ayolning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo'lishi mumkin, xolos.

Har bir ayolda ijobiy xulq mavjud bo'lib, bu xulq anglangan bo'lsa hamda qarorni erkin, to'g'ri qabul qilsa, vaziyatning quliga aylanmaydi, albatta.

¹ Большая психологическая энциклопедия. – М., 2007. – С.127.

Biroq ayol xulqining ruhiy boshqaruv darajasi qanchalik past bo‘lsa, uning xulqida vaziyat bilan bog‘liq holatlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik ayol jinoyatchilarga haqiqatan ham xulqining vaziyat bilan bog‘liqligi xos bo‘lib, bu uning fe’liga xos jihatdir.

Ayollar ham boshqa insonlar kabi o‘zi uchun muayyan qiymatga ega bo‘lgan narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo‘lib, u shaxsning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir ayol kishi uchun hayotiy muhim bo‘lgan narsa, boshqa bir ayol uchun unchalik muhim bo‘lmasligi mumkin.

Tarbiyadagi nuqsonlar natijasida yosh qizlar va ayollarda ijtimoiy qadriyatlarga salbiy munosabat shakllandi, jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyatlarni rad etadilar, xuddi boshqa jinoyatchilar kabi odatda o‘zini oqlash uchun motivlar, bahonalar tizimini keltiradilar hamda ijtimoiy qadriyatlarni tan olmasligi oqibatida xulqida og‘ishlar vujudga keladi.

2-§. Jinoyat sodir etuvchi ayollar psixologiyasi

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning psixologik xususiyatlari alohida e’tibor berish lozim. Shaxsni o‘rganish davomida uning atrof-muhit bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot tarzi oila-turmush sharoiti jinoyat sodir etishda katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy shart-sharoitlar jinoiy qilmishda o‘z aksini topadi va shaxsning xatti-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Xo‘s, jinoyat sodir etuvchi ayollar oddiy insondan qaysi tomonlari bilan farq qiladi va qanday xususiyatlarga ega?

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning psixologik jihatlarini o‘rganish davomida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- yuqori darajada notinchligi;
- o‘ziga ishonmasligi;
- jahli tez chiquvchi va tez xulosa qiluvchi;
- tajovuzkorlikka moyilligi;
- ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi;
- huquqiy bilim saviyasining pastligi;
- kichik guruhlardan uzoqlashgan (oila, maktab, ishchi jamoa, qarindoshlar, mahalla va boshq.).

Ba’zi hollarda ayollar oiladagi nizo oqibatida qasddan odam o‘ldirish, qasddan badanga og‘ir, o‘rtacha va yengil shikast yetkazish, qiyash, o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish, haqorat qilish, firibgarlik, odam savdosi, bezorilik va boshqa jinoiy xatti-harakatlarni sodir etadilar.

Ushbu jinoyatlarning sodir etilishida shaxsda mavjud ijtimoiy-ruhiy buzilishning belgilari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- aybdorning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo‘lganligi;
- xulq-atvorida ruhiy buzilishlarning mavjudligi;
- tartibsiz turmush tarzi kechirishga odatlanganligi va oila a’zolari bilan ko‘pincha qo‘pol munosabatda bo‘lganligi;
- o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmaganligi, shiddatligi, o‘z harakatining oqibatini o‘ylamaganligi;
- ruhiy hayajonlanish yoki tushkunlik kayfiyatida bo‘lganligi va hokazo.

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning jinoyat sodir etish motivlarini o‘rganish ko‘p holatlarni aniqlash va o‘rganishga imkon beradi. Motiv – bu o‘ta jiddiy ruhiy tushunchalardan biri bo‘lib, uning yordamida inson qilmishlarining ichki tabiatini, ularning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuning uchun jinoiy xulqning motivini aniqlash vaqtida psixologik va kriminologik bilimlarga tayanish lozim.

Jinoyatchi ayolning ichki dunyosini anglash uchun uning hayotda tutgan o‘rni, atrof-muhitdagi voqelik, insonlar, jamiyat, davlat, qonun, mehnat kabilarga munosabatini bilish lozim. Buni esa uning ehtiyojlari, ma’naviy yo‘nalishlari va faoliyatining motivlarini o‘rganmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Ya’ni, har qanday jinoiy faoliyat ko‘p jihatdan jinoyatchining o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlari bog‘liq.

Jinoyat sodir etuvchi ayolni psixologik jihatdan o‘rganishda uni ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish kerak bo‘ladi. Chunki jinoiy xulqni, jins, shaxs yoki muhit emas, balki aynan ularning o‘zaro aloqasi yuzaga keltiradi.

Ayollarda jinoyatni sodir etish usulini tanlashda, xuddi boshqa jinoyatchilar kabi ko‘p hollarda nafaqat psixologik xususiyatlarni, balki ruhiy holatlarni ham hisobga oladi. Ruhiy holat esa psixologiyaning predmetini tashkil etadi.

Ayollar shaxsini psixologik tiplashtirish mazkur hodisani bilish usullaridan biridir, ammo muayyan huquqbuzar ayollarning shaxslarini o‘rganishda olingan ma’lumotlarni tegishlicha nazariy asoslash zarur.

Ayollar jinoyatchiliginijitimoiy determinatsiyalash mexanizmi ayol shaxsini o‘rganishda ikki xil yondashuvni – *ijtimoiy-tipologik* va *ijtimoiy-rolli* yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladi. *Ijtimoiy-tipologik yondashuvda* avvalo ayol kishining ijtimoiy o‘rni (pozitsiyasi), unga mos ijtimoiy qadriyatlar, me’yorlar, ularning idrok etilishi va bajarilishi tahlil

qilinadi. Ikkinchchi holda ayol kishiga faol ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-rolli yondashuv obyektiv jihatdan kriminogen xususiyatga ega bo‘lgan pozitsiya va funksiyalarni ko‘rishga imkon beradi, chunki ular ayol kishi zimmasiga amaldagi qonunlarga zid majburiyatlarni yuklaydi va shu bois u ushbu majburiyatlarni faqat jinoyatchilik sodir etib bajarishi mumkin bo‘ladi, shaxsga bir-birini istisno etuvchi talablar qo‘yadi, bu esa ijtimoiy-huquqiy nizolarni keltirib chiqaradi, shaxsni uning uchun zarur bo‘lgan ijobiy ta’sirlar majmui amal qiladigan doiradan chiqarib yuboradi.

Yuridik psixologiyadagi asosiy masalalardan biri, avvalo, shaxsning motivatsion sohasi tashqi muhitdagi muayyan omillar bilan o‘zaro aloqadorlikda ushbu shaxs uchun kriminogen vaziyat yaratishi mumkin bo‘lgan ichki shaxsiy shart-sharoitlarni ajratib olishdir.

Har bir insonga o‘z ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy va umumiy maqsadlarga erishish uchun boshqa odamlar bilan birlashishga intilish xosdir. Qonunga itoatkor odamlar, qonunbuzarlardan farqli ravishda, noqulay vaziyatlarda guruhdan chiqish, o‘zlarini qanoatlantirmaydigan aloqadan qochishga qodirdirlar yoxud bunday holatlarga nisbatan o‘z pozitsiyasini o‘zgartirishga harakat qiladilar.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning har xil (g‘arazli, zo‘ravonlikka asoslangan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan) turlariga jinoyatchilarning motivatsion sohasida bo‘ladigan turli buzilishlar xosdir.

Ayol kishining aynan jinoiy harakatni sodir etishi boshqa insonlar kabi ham tashqi vaziyat (obyektiv omil), ham ichki (subyektiv omil) maqsadlar bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda moddiy-tovar boyliklar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi uzilish ijtimoiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotgani hammaga ma’lum. Xizmat (ish) o‘rinlarining yetishmovchiligi ayollar orasida jinoyatchilikning ortib borishiga olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, taqchillik jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga shart-sharoit yaratuvchi omillardan biri hisoblanadi. Iste’mol sohasidagi taqchillik ayollar orasida o‘z bolasini o‘ldirish va boshqa qotilliklar, terrorchilik harakatlari, firibgarlik, odam savdosi, poraxo‘rlik, korrupsiya, narkobizneslarning tarqalishiga sharoit yaratadi.

Jinoyat sodir etgan ayol kishini o‘rganishda unda ustunlik qiluvchi, uning qadriyatlari, hayot-faoliyatining mazmuni, mayllari va qarashlarini aniqlash zarur.

Chunki jinoyatchi ayollar o‘zlarining g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari-ning asl mohiyatini ko‘proq yoki kamroq darajada anglagan holda, o‘zlarini oqlaydigan motivlar, bahonalar tizimini axtaradilar va jinoiy maqsadlariga erishishlariga xalal beruvchi qadriyatlarni rad etadilar. O‘z harakatlarini oqlash maqsadida javobgarlikdan bo‘yin tovlash, o‘zini ruhiy jihat-dan himoyalash aksariyat jinoyatchi ayollarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatdir.

Jinoyat motivlari jinoyatchi ayolning shaxsiy salbiy xislatlari – g‘araz, kek saqlash, rashk, shuhratparastlik, yolg‘on qarashlar tizimi (burch, o‘rtoqlik kabi xislatlarni noto‘g‘ri tushunish) orqali shakllanishi ham mumkin.

Jinoyat sodir etgan ayollarning ehtiyojlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

- ehtiyojlarning torligi, cheklanganligi, moddiy-utilitar xarakterga ega ekanligi;
- ijtimoiy zarur ehtiyojlarning (mehnat, axloqiy xulqqa bo‘lgan ehtiyojlarning) rivojlanmaganligi;
- shakli buzilgan, o‘rtacha standartdan va qondirishning qonuniy imkoniyatlaridan ortiq bo‘lgan ehtiyojlar;
- buzilgan ehtiyojlar.

Shu ma’noda aksariyat huquqbuzar ayollarda iste’molchilik giper-trofiyasi mavjuddir. *Iste’molchilik giperetrofiyasi* deganda talon-torojlik, poraxo‘rlik, o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilikning asosiy shart-sharoitlaridan birini tushunish mumkin.

Ba’zan salbiy xulqning muayyan shakllari shaxsning dastlabki ehtiyojlari bilan bog‘liq shart-sharoitlardan uzilgan holda yakka-yu yagona manfaatga aylanadi. Fitna, g‘iybat, tuhmat, boshqalarga ko‘ngilsizliklar yetkazish, janjallar ko‘pincha shaxsning o‘zini qaror toptirish va ijtimoiy faolligini namoyon etishning buzilgan shakli sifatida yuzaga chiqadi.

Biroq bir qarashda bema’ni tuyulgan jinoyatlar ham jinoyatchi ayollar uchun muayyan ma’noga, tegishli shaxsiy ahamiyatga egadir. Har qanday jinoyat jinoyatchi ayolning ehtiyoji, manfaat yoki qarashlari bilan muayyan tarzda bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridaq fikrlardan kelib chiqib, jinoiy xatti-harakatlarni kasb qilib olgan ayollarning ruhiy olamini o‘rganish, nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini, balki ko‘plab olimlarning ham diqqat-e’tibori ni o‘ziga qaratmoqda.

Alohida toifadagi jinoyatchi ayollarning psixologik xususiyatlari. Jinoiy xulq-atvor, jumladan, ayollar jinoiy xulq-atvorining tipologik model-larini tuzishga qator qiziqarli tadqiqotlar bag‘ishlangan bo‘lib, ularda har xil

shaxsiy xususiyatlar turlicha xulq-atvor motivlarining shakllanishiga olib kelishi qayd etiladi¹.

Kriminologiya va psixologiyada jinoyatchi ayollar shaxsini tipologik tavsiflashga urinishlar ilgari ham bo‘lgan, ammo ayollar jinoiy xulq-atvorining professional ko‘rinishlariga nisbatan bunday tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Mazkur tiplardan *biri* – «past malakali» ayollar tipidir. Bu haqda avvalgi paragraflarimizda batafsil to‘xtalganmiz. Shu bois ushbu tipning aynan ma’naviy-ruhiy jihatlariga e’tibor qaratishga harakat qilamiz.

E’tiborlisi shundaki, bu tipdagи ayollar g‘arazli jinoyatlarni sodir etishga moyil bo‘lib, ularning toifalari har xil bo‘ladi. Ular safiga o‘g‘rilik, xo‘jalik sohasida g‘arazli jinoyatlarni sodir etuvchi jinoyatchilar va xizmat vazifalarini g‘arazli niyatda suiiste’mol qiluvchi jinoyatchilar hamda talon-torojlik jinoyatlarini sodir etuvchi jinoyatchilarni kiritish mumkin.

O‘g‘rilik jinoyatini sodir etuvchi ayollarning jinoiy xatti-harakatlari ancha oldin yuzaga keladi va ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy jihatdan eng tuban toifasiga kiradilar. O‘g‘rilar katta jinoiy tajribaga, g‘ayriijtimoiy xulqqa oid shakllangan qarashlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. ularning bu xulqi barqaror jinoiy yo‘nalishga egaligi bilan ajralib turadi. O‘g‘rilar ehtiyoj va manfaatlari nihoyatda cheklangan va sodda, ijtimoiy qadriyatlardan begona bo‘ladi va odatda oilasi, mutaxassisligi, doimiy ishi va turar joyi yo‘qligi, turli xil ruhiy anomaliyalari bilan chuqurlashadi. ularning jinoiy xulqi ko‘proq g‘ayriijtimoiy turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘g‘ri ayollarda odatda uning jinoyatchilar muhitiga barqaror kirishi, ilk yoshidayoq oiladagi tarbiyasining nuqsonlari, asosiy ehtiyojlarining surunkali ravishda qondirilmasligi, doimo vaziyatga tobeligi bilan bog‘liq.

O‘g‘ri ayollar o‘zlarining psixologik xususiyatlariga ko‘ra zo‘ravon jinoyatchilarga yaqin turadilar. Ular moddiy muhitdagi to‘siqlarni yengish tajribasiga ega bo‘lib, talonchilik va bosqinchilik sodir etishga oson o‘tadilar.

Talon-torojlik jinoyatlari esa ko‘p hollarda mansabdor ayollar tomonidan sodir etilib, poraxo‘rlik, xaridorlarni aldash, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish, qalbaki hujjatlar yasash, firibgarlik va boshqa jinoyatlarda namoyon bo‘ladi.

Barcha g‘arazli jinoyatchilarda umumiy asos – g‘arazli mayllarining barqarorligi mavjud. G‘araz – eng barqaror, yo‘q qilish qiyin bo‘lgan

¹ Франк В. Человек в поисках смысла. – М., 1990. – С. 368.

insoniy qusurlardan biri, ya’ni shaxsning barqaror salbiy yo‘nalganligining tizim hosil qiluvchi omili hisoblanadi.

Professional jinoyatchi ayollarning *ikkinchi tipi* – bu «g‘araz maqsadli zo‘ravon» tipdir. Bu tipdagи ayollar yuqorida ta’kidlanganidek, aksariyat hollarda erkaklarning guruhlari tarkibida g‘araz maqsadlarda zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etib, ba’zan yetakchilik qiladi. Ularning orasida fohishalar ko‘p bo‘lib, giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishlari mumkin. Bu tipga mansub ayollar avvalgilariga qaraganda tubanlashgan, ularning xulq-atvorida shafqatsizlik va prinsipsizlik, ayniqsa ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Ular zo‘ravonlik jinoyatlarini ko‘p hollarda madaniy-bilim darajasi past bo‘lganligi sabab sodir etadilar. *Zo‘ravon jinoyatchi ayol shaxsi* (jismoniy kuch ishlatib jinoyat sodir etishga moyil shaxs) odatda tarbiyaning asosiy sohalari – oila, o‘quv yurti, ishlab chiqarish jamoasidagi kamchilik va nuqsonlarni aks ettiruvchi past darajadagi ijtimoiylashuv bilan ajralib turadi. Ushbu shaxsning motivatsion sohasiga egotsentrizm (xudbinlik), jamiyat vakillarining bir qismi bilan barqaror nizolashuv va o‘zini oqlashga bo‘lgan intilishning mavjudligidir. Bu yerda, aksariyat hollarda, alkogol jinoiy maqsadni faollashtiruvchi omil hisoblanadi.

Ayollarning jinoiy zo‘ravonlik xatti-harakatlari o‘zining ba’zi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayollarning zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatchiligi hajmiga ko‘ra erkaklarnikidan ancha kam. Ayollar xulqi voqelikning ayrim hodisalarini keskinroq qabul qilishi, ularga ko‘proq hissiyot bilan javob berishi, shaxslararo munosabatlarning ayrim holatlariga kattaroq ahamiyat berishi bilan ajralib turadi.

Ayollar keskin nizoli vaziyatlarda ruhiy shikastlanishga ko‘proq moyil bo‘ladilar, ular oiladagi kelishmovchilik va nizolarni keskinroq his qiladilar. Ular xavotirga ko‘proq tushib tahdid solayotgan xavfni yuqori baholashga moyil bo‘ladilar. Yuqori darajadagi hissiylik (sensitivlik), oilaviy ishlarning ko‘pligi ularda yuqori darajadagi ruhiy zo‘riqishning barqaror fonini hosil qiladi.

Ashaddiy zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi ayollar bir qator shaxsiy-tipologik, psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Bular:

- atrofdagi shaxslarni doimo o‘ziga dushman sifatida qabul qilish;
- eng kichik shaxsiy muvaffaqiyatsizliklardan haddan tashqari ta’sirlanish, ularni ijtimoiy jihatdan mos (adekvat) baholashga qobiliyatsizlik;
- jamiyatdan begonalashganlik (autiklik);
- hissiy jihatdan nihoyatda beqarorlik, patologik darajadagi jizzakilik, qasoskorlik, ruhiy notayinlik, kayfiyatning tez o‘zgarishi;

- da'vogarlik darajasining nihoyatda yuqoriligi;
- ekstremal vaziyatlarda bo'lishga moyillik, ularni faol yuzaga keltirish;
- o'zini ko'rsatishga bo'lgan moyillik;
- o'zlariga xos hissiy nuqsonlarni doimo yashirishga intilish va h.k.

Ushbu toifadagi jinoyatchi ayollarning salbiy xislatlari ijtimoiy nazorat yetarli bo'lмаган, nihoyatda salbiy mikromuhit sharoitida shakllanadi. Mazkur xulq shakllanishing muhim omillariga quyidagilar kiradi:

- bolalikdagi emotisional zo'riqish;
- oila va ijtimoiy foydali guruhlardan ajralish.

Shu nuqtai nazaridan ayollar tomonidan sodir etilgan zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlarda ko'pincha shafqatsiz tajovuzkorlik xususiyati namoyon bo'ladi, og'ir jismoniy va ruhiy shikastlar yetkaziladi. Tajovuzkor xulqning bu tipi ayollarda shaxsining chuqur buzilganidan, tajovuzkor xatti-harakatga va odamlarga zarar yetkazishga bo'lgan moyillikning shakllanganidan, o'zini nazorat qilish qobiliyati nihoyatda past darajada ekani dan dalolat beradi.

Ushbu ayollarning xulqiga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- o'zini tajovuzkor intilishdan tiya olmasligi;
- nizoning qay yo'nalishda rivojlanishi va tajovuzkor harakatlarining oqibatlarini ko'ra olmaslik;
- nizoli vaziyatdan chiqish usullarini bilmasligi.

Zo'ravon ayol jinoyatchining barqaror *ashaddiy toifasi* doimiy tajovuzkorlik yo'nalishi, qo'pol kuch ishlatish stereotipining shakllangani bilan ajralib turadi. Uning uchun tashqi muhitda doimo bahona topiladi.

Zo'ravon ayol jinoyatchilarning ashaddiy toifalari uchun tajovuzkorlik – o'zini ko'rsatishida ustunlik qiluvchi usul, qilmishning shafqatsizligi esa yagona maqsad. Xulqning bu tipi jinoiylashgan mikromuhitda barqaror o'z ifodasini topadi.

Zo'ravonlikka asoslangan jinoyat qurbanlarining g'alamis xulqi *viktima* xulq deb ataladi (lotincha *viktima* – qurban). Viktim xulq – yengiltak, haddan tashqari ishonuvchan yoki axloqsiz, janjalkash, jinoyat sodir etilishi uchun bahona bo'luvchi xatti-harakatdir.

Victimlik jinoyat qurbanining jinsi, yoshi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい bilan bog'liq umumiylar hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlari – ishonuvchanligi, bilimsizligi, irodasining sustligi, jinoyatchiga ruhan tobelligi, eksentrikligi, tavakkalga moyilligi, shaxsiy janjalashligi bilan bog'liq bo'lgan maxsus turlarga bo'linishi mumkin.

Ayollar orasida ruhiy anomaliyalar darajasi yuqoriroq. Aksariyat jinoyatchi ayollar tez ta'sirlanishlari, ijtimoiy o'zaro munosabat nuqsonlari, chiqisha olmaslik, asabiylik jihatlari bilan ajralib turadilar. Ular tajovuzkor harakatlarida ko'pincha tasodifan qo'l ostida bo'lib qolgan narsalardan foydalanadilar.

Biroq ayollar qasddan qilinadigan og'ir jinoyatlarini odatda puxta o'ylab, niqoblashga harakat qiladilar. Shaxsga qarshi og'ir jinoyatlarni ko'pincha xatti-harakatlari erkaklarnikiga o'xhash ayollar sodir etadilar.

Uchinchi tip yuqori darajada professional o'g'ri va firibgar ayollar tipi. Odatda, bunday tipdagi ayollar yoshi 27–50 yosh doirasida bo'ladilar. Yosh ayollar ko'pincha jinoyatni ishtirokchilikda sodir etadi. Bunday ayollarning oilasi ko'p hollarda buzilgan yoki faqat rasman saqlanib qolgan bo'ladi. Bunday shaxsga xos xususiyatlar turli favqulodda vaziyatlarga psixologik moslashuvchanlik layoqatining kattaligi, o'g'rilik va firibgarlikka ixtisoslashganlik, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga, ma'lum hayot tajribasiga egaligi bilan izohlanuvchi intellektual saviyaning nisbatan balandligi bilan izohlanadi.

Biz qayd etgan professional jinoyatchi ayollarning *to'rtinchchi tipini* jinoyatchilar orasida «o'g'rilar onasi» deb atalmish ayollar tashkil etadi. Ularga asosan fohishaxonalar va giyohvandlik vositalari iste'mol qiluvchilar uchun bangixonalar saqlash, qo'shmachilik qilish, o'g'rilik mollar va giyohvandlik vositalarini sotib olish va sotish xosdir.

Yuqorida keltirilgan professional jinoyatchi ayollar tipidan tashqari ayol jinoyatchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini ularning quyidagi toifalari bo'yicha o'rghanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1) *Qotillik jinoyatlarini sodir etuvchi ayollar toifasi.* Qotillik jinoyatlarini sodir etgan ayollar psixologiyasi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularda boshqa shaxslarga nisbatan nihoyatda tobelikni kuzatish mumkin. Qotil ayollar erkin hayotga moslashishi qiyin bo'lgan shaxslar toifasiga kiradilar.

Tarbiyalanish sharoitini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qotillik jinoyatlari uchun hukm qilingan ayollar bir yarim baravar ko'p hollarda nosog'lom sharoitlarda tarbiyalanganlar.

Ayollarda qotillik jinoyatlarining aksariyati xuddi erkaklarniki singari to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, tajribaning ko'rsatishicha, ularning 1/3 qismi avvaldan rejalashtiriladi. Aksariyat qotilliklarni 20–30 yoshlar-dagi ayollar sodir etishadi. Bunda asosan ko'proq o'z bolasini va turmush o'rtog'ini o'ldirishadi.

Ayollarda qotillik jinoyatlari aqli rasolikni istisno etmaydigan turli nuqsonlar – surunkali alkogolizm, psixopatiya, bosh miyaning organik kasalliklari, shizofreniya bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

2.Terrorchilik jinoyatlarini sodir etuvchi ayollar toifasi. Bugungi kunda jamiyatimizga xavf solayotgan hodisalar ichida terrorchilik xavfi alohida o‘rin tutadi. Terrorchilik eng murakkab va xavfli holatlarni o‘z ichiga qamrab oladi hamda jamiyatga katta xavf tug‘diradi. Terrorchilik odamlarda yovuzlik va qo‘rquv hissiyotini paydo qiladi.

So‘nggi yillarda aynan terrorchi shaxsini o‘rganish psixologlar e’tiborini tortib kelmoqda. Chunki murakkab psixologik tuzilishga ega bo‘lgan terrorchi shaxsning psixologiyasidagi o‘ziga xoslikni o‘rganish unga qarshi kurashish muammosini imkon qadar yengillashtiradi, degan fikrlar mavjud. Biroq ushbu muammo hamon hal qilib bo‘lmash muammo-ga aylanib qolmoqda.

Tadqiqotchi olim S. Roshin terrorchi shaxsning uchta psixologik modelini taklif etgan. *Birinchi model – psixopat-mutaassib modeli.* Bu o‘zining e’tiqodlari (diniy, mafkuraviy, siyosiy)ga asoslanadigan va o‘z harakatlari natijasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyat uchun foydali ekaniga samimiyl ishonadigan shaxs. Bu ong sohasi u yoki bu ta’limotlar bilan nihoyatda torayib ketgan va uning o‘zi o‘z hissiy sohalariga bo‘ysungandir. Shu bois u har narsaga qodir. Siyosiy tilda u mutaassib, psixologik tilda esa psixopatdir.

Ikkinci model frustratsiyalashgan model bo‘lib, bixevoirizmnning frustratsiya¹ – tajovuzkorlik nazariyasiga asoslanadi. U yoki bu talablarga ko‘ra insonning o‘zi uchun hayotiy muhim maqsadlarga yetisha olmasligi tufayli yuzaga kelgan frustratsiya (noilojlik) hissi muqarrar ravishda unda tajovuzkor harakatlarga moyillikni yuzaga keltiradi.

Uchinchi model – nosog ‘lom oiladan chiqqan shaxs. «Ota-onaning bola bilan shafqatsiz muomalada bo‘lishi, uning jamiyatdan ajralib qolishi, yaxshi munosabatlarning kamligi g‘ayriijtimoiy mayllarga ega g‘azabnok shaxs shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Terrorchi ayol ma’lum sabab va vaziyatlar ta’sirida jinoyat sodir etadi. Bunday sabablarga shaxsiy (fanatik tarbiya bazasi asosida) motivlar bo‘yicha yaqin qarindoshlaridan (turmush o‘rtog‘i, otasi, akasi) biron birining o‘limi yoki qamalishi, moddiy boyligini yo‘qotishi, mahalliy rahbar tomonidan qattiqko‘l munosabat natijasini (agar ular boshqa millat va boshqa e’tiqodda bo‘lsa) kiritish mumkin.

¹ Izoh: Frustratsiya (noilojlik) – o‘ylagan reja amalga oshmaganda, ko‘zlangan maqsadga erishmaganda yuz beradigan holat.

Shu sababdan terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarga asosiy motivi o‘zi uchun, yaqinlari yoki do‘satlari hamda yagona e’tiqoddoshlari uchun qasos olish hisoblangan ayollar jalg etiladi.

Ushbu toifadagi ayollarda o‘lish va o‘ldirishga xohish yuqori bo‘ladi, qaysiki o‘zini o‘zi o‘ldiruvchi ayollar o‘zini juda kuchsiz his qilishi lozim bo‘ladi. Terrorchilik jinoyatining ichki motivlaridan biri ham o‘z kuchi bilan zaiflikdan qutilishdir. Bunday ayollarda tobelik va xafagarchilik ekstremal kechinma hisoblanadi.

O‘z joniga qasd qiluvchi terrorchi ayolning maqsadi – odamlar ko‘p joylarda, shaharlarning markaziy tumanlarida o‘ziga katta e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Agar u aholidan to‘sib qo‘yilsa, ko‘proq huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini yo‘q qilishga harakat qiladi. Ular muzokara olib borish jarayonida ham yon-atrofiga imkon qadar ko‘proq odamlarni yig‘ish maqsadini ko‘zlaydi, o‘z jonini qimmatroqqa sotishga harakat qiladi.

Terrorchilik keyingi paytlarda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Agar ilgari muayyan maqsadlarga erishish yo‘lida uning odamlarni garovga olish, aholi o‘rtasida vahima uyg‘otish, u yoki bu davlat obyektlarini portlatish, davlat arbobiga suiqasd qilish va hokazo ko‘rinishlari kuzatilgan bo‘lsa, bugun o‘z g‘arazli maqsadi yo‘lida to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson resurslaridan foydalanish hollari ham ommalashib bormoqda. Terrorchilikning bu ko‘rinishi «qurbanlik» yoki «shahidlik» terrorchiligi deb ataladi. «*Qurbanlik*» yoki «*shahidlik*» terrorchiligi xalqaro terrorizmning bir ko‘rinishi sifatida turli ijtimoiy-siyosiy tartiblarda muayyan sabablar va omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Uning bunday ko‘rinishi O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. 2004-yil 29–30-mart kunlari «*shahidlik*» terrorchiligining dastlabki ko‘rinishi kuzatildi¹.

Odatda, «*shahidlik*»ka qaror qilgan ayollar o‘z jonini qurban qilishni taklif qilmaydilar. Ularni «ma’naviy murabbiyi» yoki sardori tanlab oladi. Shundan so‘ng uzoq muddatga rejalashtirilgan kompleks va psixologik tayyorgarlik jarayonlari boshlandi. «*Qurbanlik*» yoki «*shahidlik*» maqomidagi terrorchilarni odatda Yaqin Sharq, Kavkazorti, Afg‘oniston va Pokistonda tayyorlaydilar.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ekstremistlar o‘z maqsadlari uchun asosan yosh yigit va qizlarni tanlaydilar. Xo‘sh, nega aynan yoshlar va ayollar?

¹ Кодиров А., Исломов М. «Курбонлик» ёки «шахидлик» қўринишидаги терроризм // Ҳукуқ – Право – Law. – 2004. – № 2. – Б.16–17.

Chunki aynan yoshlari yurt kelajagi, millatning ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradilar. Shu o'rinda o'smirlar va ayollar tashqi ta'-sirlarga ko'proq moyil bo'lishini alohida qayd etish lozim. Ayniqsa, ayollarda erkaklarga qaraganda yordamga muhtojlik hissi yuqori bo'lib, maqsad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar.

Mutaassib g'oyalar domiga tushib qolgan ayollar oilasidan, jamiyatdagi o'rnidan, hatto, hayotidan ajramoqdalar. Bunday ayollarni har qanday topshiriqni hech ikkilanishsiz bajarishga olib kelish uchun sinalgan uslublardan foydalanmoqdalar. Jumladan, «oz-ozdan singdirib borish» texnologiyasida birgalikda ayollar jamoatiga borish, dam olish kunlarini birga o'tkazish, faqat bir hafta kechqurunlari birga diniy adabiyot o'qish, jamoaning yig'inlarida qatnashish, faqat bir marta varqa tarqatish kabi kichik iltimoslar orqali yollanayotgan ayolni jiddiy yonbosishga majbur qilinadi va rag'batlantirib boriladi.

Shuningdek, doimiy «aqliy hujum (ongni tozalash)» vositasida jamoaning g'oyalarini amalga oshirish yollanayotgan ayol kishining shaxsiy qiyinchiliklari va jamiyatdagi muammolarni hal etishning eng maqbul yo'li, degan qarash tinmay uqtirib boriladi.

So'ngra «guruhiy ta'sir etish» uslubi qo'llaniladi. Bunda jamoaning barcha a'zolari yangi a'zoni turli tomondan yagona g'oyaga yo'naltirilgan fikrlar bilan «ko'mib» tashlaydi. Ayni paytda yollanayotgan ayolga betinim yangidan-yangi ma'lumotlar berish va o'z fikrlari bilan yolg'iz qolishiga yo'l qo'ymaslik orqali unda e'tiroz bildirish yoki bahslashishga imkon qoldirmaslikka harakat qilinadi va bir paytning o'zida unga nisbatan jamoa tomonidan faqat shirin so'zlar gapirilib, u haqda g'amxo'rlik, aksariyat hollarda moddiy yordam ham ko'rsatiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, kishi «o'zimni nazorat qila olaman va xohlagan vaqtimda jamoadan chetlasha olaman», – degan xayoldan uzoq bo'lishi lozim. Chunki, aksariyat mutaassib oqimlar yangi tarafdorlarni yollashda ruhiy ta'sirning yuqoridagi kabi usullaridan faol foydalanadilar va ortga qaytishga deyarli imkon qoldirmaydilar.

So'nggi yillarda «Hizb ut-tahrir»da g'oyaviy yakdillik yo'qolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo'linishlarga olib keldi. Undan «Hizb un nusra» guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, «Hizb ut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytirilishi barobarida, ular orasida o'zini o'zi o'ldirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Ular yosh qiz va ayollarga «uy tutish sirlari» (pazandalik, tikuvchilik)ni o'rgatish orqali harakatning g'oyalarini targ'ib etish, tuzoqqa ilingan ayollarni go'yoki, «hijrat» qilish yo'lida chet davlatlardagi o'z «birodarları»ga yordam berish uchun

jo‘natish yoki jazo muddatini o‘tayotgan jamoa a’zolariga turmushga chiqishga da’vat etish kabi amaliyotlar bilan shug‘ullanmoqdalar.

Shuningdek, ayollarni boshqarish erkaklarga qaraganda osonroq va ular ongini zaharlash ham terrorchilar uchun ancha yengil hisoblanadi. Chunki, erkak kishida o‘zini ehtiyyot qilish hissiyoti ayollarga nisbatan kuchliroq rivojlangan. Ayrim ayollar o‘zlariga nisbatan bo‘layotgan nohaqliklar, past nazar yoki «oddiy buyum» sifatida bo‘layotgan muomalandan norozi bo‘lib, yashayotgan yoki kelajakda yashaydigan hayotlaridan qutulish maqsadida ekstremistlar qurbaniga aylanmoqdalar. Psixologlarning fikriga ko‘ra, g‘araz niyatli kimsalar ustomonlik bilan foydalana-yotgan ayollargagina xos qator xususiyatlar mavjud:

- 1) bo‘ysunuvchanlik – oilada ota-onas, aka-ukalarga itoatkorlik;
- 2) biror xatti-harakatga nisbatan ichki tayyorgarlikning qat’iy emasligi – shoshib qaror chiqarish;
- 3) tashqi ta’sirga tez beriluvchanlik – hissiyotning aqldan ustun kelishi, ayollar tashqi ta’sirlarni hissiy ong bilan qabul qilishlari;
- 4) axborot olishga bo‘lgan qiziqishning ustunligi, – ayol har qanday shov-shuvli ma’lumotlarga qiziquvchan bo‘ladi va shov-shuvli axborotlarni tarqatish orqali o‘z ijtimoiy faoliyklarini namoyish qilishga harakat qilishi;
- 5) ijtimoiy munosabatlarga kirishishga bo‘lgan xohish va ehtiyojning kuchliligi – ko‘cha-kuyda yangi tanishlar orttirish, ular bilan suhbatlashish;
- 6) ko‘pchilikka bevosita ta’sir o‘tkaza olishi;
- 7) ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi ruhiy zarbalarga uchragan inson o‘z qadriyatlar tizimini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi va aynan ular mutaassiblar uchun zarur insonlardir;
- 8) insonga tabiatan taqiqlangan yoki noma’lum har qanday narsa va hodisaga intilish hissi berilgan, ayollarda aynan shu xususiyat yaqqol namoyon bo‘ladi;
- 9) aksar hollarda reallikdan ko‘ra xayolot olamining ustunligi;
- 10) hayotda o‘z o‘rnini topa olmaslik, ya’ni o‘z «men»ini anglamaslik yoki mutlaq inkor etish;
- 11) muammoli hayotdan qutulishning eng maqbul yo‘li o‘zlari kabi muammolarga ega guruhga qo‘shilish, deb hisoblashlari.

Yosh qizlar va ayollarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularda diniy ma’lumotning yetishmasligi, uni egallahsga bo‘lgan qiziqish va intilish hamda ishonuvchanlikni alohida ajratib ko‘rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflı ishga qo‘l urgan

bo‘lasan, turmush o‘rtog‘ing, otang va akang uchun qasos olasan, kerak bo‘lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e’tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Yosh qizlar va ayollarning diniy- ekstremistik guruqlar ta’siriga tushib, turli terrorchilik amaliyotlari ishtirok-chisiga aylanib qolishlarining asosiy sababi – ularning na diniy, na dunyoviy bilimga egaliklari, sof islom ta’limotini bilmasliklaridir.

Maishiy turmush sohasida sodir etiladigan jinoyatlar bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Rossiyalik olim E.F.Pobegay-loning fikricha, oiladagi nizolar oqibatida jinoyatlar asosan foydali mehnat bilan shug‘ullanmaydiganlar, daydilar, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yanlar, giyohvandlar, jinoiy o‘tmishga ega shaxslar, fohishalar va qo‘shmachilar toifasidagi shaxslar tomonidan sodir etilmoqda¹. Hayotda aynan shu toifadagi shaxslarda jinoyat sodir etishga moyillik ko‘proq kuzatiladi. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida qotillik va og‘ir tan jarohatlarini yetkazish 50 foizni tashkil etadi².

Jinoyatlarni sodir etuvchilarning ma’lum bir qismini o‘zaro oilaviy rishtalari bog‘langan shaxslar, ya’ni er-xotin, ota-bola, aka-uka, opa-singillar tashkil etib, ular tomonidan jinoyatlar bir-birlariga nisbatan sodir etilgan.

Ayol shaxsidagi bilim darajasining pastligi, ongning rivojlanmaganligi, sodir etilayotgan xatti-harakatning oqibatini anglab eta olmaslik, o‘zini idora qila olmaslik, ya’ni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlardir. Bu o‘zini tiya olmaslik kabi salbiy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Oqibatda bunday ayollar o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda shaxsga qarshi jinoyatlarni, ya’ni qotillik, badanga og‘ir shikast yetkazish, qiyash kabi inson hayoti va sog‘lig‘iga qarshi tajovuzlarni o‘ylamasdan, osongina sodir etadilar³. Bunday toifadagi shaxslarda rahm-shafqatning yo‘qligi natijasida vahshiylig bilan insonga, shaxsning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli jinoyatlarni sodir etadilar. Achinarlisi shundaki, bunday sovuqqonlik bilan qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarini ayollar tomonidan sodir etish holatlari bugungi kunda ham amaliyotda uchramoqda.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar shaxsini o‘rganish davomida birinchi navbatda, uning ichki dunyosi, ehtiyojlari, moyilliklari, hissiy-irodaviy doirasi, qobiliyatları, intellektual va individual xususiyatlari (xarakter,

¹ Побегайло Э.Ф. Тенденции современной преступности и совершенствование уголовно-правовой борьбы с нею. – М., 1990. – С. 9.

² Криминология. – Т., 2007. – Б. 294.

³ Исаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Т., 2005. – Б. 78.

temperament, hissiy kechinmalari, ta'sirlarni qabul qilishi va boshqa bilish jarayonlari)ga ham e'tibor berish lozim. Modomiki, jinoyat sodir etgan shaxs haqida yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar atroficha o'rganilmasa, tadqiq etilayotgan jinoyatlarning oldini olish borasida profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning samarasi past bo'lishi tabiiy.

Oila-turmush doirasida ayollar tomonidan jinoyat sodir etuvchilar ning ma'naviy-ruhiy xulq-atvori tajovuzkorlik xususiyatiga ega ekanligi bir qator huquqiy va ijtimoiy fanlarda atroficha o'rganilgan. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarni bir xilda o'zida mujassamlashtirgan shaxs o'z individualligi jihatidan betakrordir¹. Shaxsning ichki mayli (rashk, qasos, alam, oilada erkak yoki ayolning bir-biriga ustunlik da'vosi va boshqalar) oiladagi jinoiy zo'ravonlikning yoki jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishiga yo'l qo'yadi. Bu obyektiv omillar shaxsda bevosita salbiy ma'naviy xususiyatlarni shakllantirmasa-da, lekin buning uchun qulay sharoit bo'lib hisoblanadi va tajovuzkorlikning shakllanishiga olib keladi. Tajovuzkorlik deganda, o'z muammolarini hal etish uchun zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni afzal ko'rish², nizolarni tajovuz yo'li bilan hal etish orqali jinoyat sodir etish tushuniladi.

Oiladagi nizolar oqibatida ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi asosan rashk, qasd va muhabbat mojarolari kabi vaziyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligi kuzatilmoqda. Tabiiyki, ayollar shaxsiga xos bo'lgan tezda jahl chiqish yoki har bir holatni ko'ngliga yaqin olish ham vaziyatning murakkablashuviga olib keladi. Tan jarohati yetkazishga ta'sir etuvchi yana bir omil sifatida ayollarning o'z xatti-harakatlari oqibatini anglamasliklari va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklarni to'g'ri baholay olmasliklari kabi xislatlar e'tirof etiladi. Ya'ni, ayollardagi kuchli ehtiros juda ko'p jinoiy vaziyatlarning chigallashuviga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, ilgari sudlangan ayollarning xulq-atvorining doimiy nazorat qilib borilishi, ularga nisbatan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy-profilaktik mazmundagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga qaramasdan, ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari amaliyot jarayonida kuzatilmoqda. Aynan jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan ayollar tomonidan asosan firibgarlik, o'g'rilik, giyohvand moddalar bilan savdo qilish va ularni tarqatish, odam savdosi, bezorilik jinoyatlarini sodir etilishi ko'proq kuzatilmoqda. Har qanday jinoiy qilmish jinoyatchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun profilak-

¹ Умумий психология. – Т., 1992. – Б. 210.

² Антонян Ю.М. Психология убийства. – М., 1997. – С. 17–18.

tika inspektoridan shaxslarning psixologik xususiyatlarini yuzaga keltiruvchi sharoitlar, umuman olganda, ushbu toifa shaxslarning psixologik jihatlari va psixologiyasi haqida bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan o‘rta yoshli jinoyatchi ayollarni jamiyatga moslasha olmasligiga qarab 3 ta katta guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Ular: yuqori, o‘rta va past.

Yuqori – ijtimoiy hayot me’yorlariga moslashishi qiyin kechadigan yuqori guruhga kiritilgan ilgari sudlangan ayollar o‘zlarining shafqatsizligi, zolimligi, bag‘ri toshligi, rahmsizligi, badjahlligi, salga xafa bo‘lavverish, jizzakilik, intellektual darajaning pastligi bilan tavsiflanadilar. Ularga astenik hissiyotlar va ijtimoiy motivatsiyaning past darajadaligi xosdir. Moddiy manfaatdorlik ularning xulq-atvor motivining asosini belgilaydi. Asosiy ehtiyojlar turkumini moddiy ehtiyojlar tashkil etadi. Ularda jinoiy jazoni ijro etish muassasasidan qaytganlaridan so‘ng salbiy odatlarini yo‘qotishga bo‘lgan intilish kuzatilmaydi.

O‘rta – ijtimoiy hayot me’yorlariga moslashishi o‘rtacha qiyinchilikda kechadigan ilgari sudlangan ayollar atrofdagilar bilan beparvo, e’tiborsiz, loqayd, baxil, ko‘rolmaslik, hasadchi, serjahl, jizzaki munosabatda bo‘ladilar. Ularda astenik hissiyotlar va o‘zining fikri, g‘oyasi, dunyoqarashini ifoda etishi ustun, asosiy motivi xatti-harakatga qaratilgan. Hayotdagи asosiy ehtiyoji bu oilasining bo‘lishi, xavfsiz va himoyalanganligini his etish. Ushbu toifadagi ayollarda jazoni ijro etish muassasasida paydo bo‘lgan salbiy his-tuyg‘ularga qarshi turish va ularni yengib o‘tish juda past darajada.

Past – ijtimoiy hayot me’yorlariga moslashishi unchalik qiyinchilikda bo‘lmagan ayollar o‘zlarining muloqotmandligi, moslashuvchanligi, qat’iyatsizligi, mas’uliyatsizlik va beparvoligi, aqliy darajasining o‘rtachaligi hamda hissiyotlarining o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanadilar.

Asosiy ehtiyojlar turkumini oila qurish, o‘z o‘zini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirish tashkil etadi. Faoliyat motivi muloqotga kirishi va bilishga qaratilgan. Ushbu ayollar ijtimoiy jamiyatdan ajrab qolganidan so‘ng hosil bo‘lgan salbiy his-tuyg‘u va hissiyotlarni yengib o‘tishga intiluvchan, ozodlikka chiqqanidan so‘ng turli muammolarni bartaraf etishda faollikni namoyon etadilar¹.

¹ Ковалев О.Г., Малышева О.А. Криминологические и психологические проблемы дезадаптации женщин молодежного возраста, отбывших наказание в виде лишения свободы: Учебное пособие. – М., 2001. – С. 49.

3-§. Jinoyat sodir etuvchi ayollar bilan profilaktik ishlarni olib borishning psixologik jihatlari

Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi eng muhim, samarali va insonparvar yo‘nalishlardan biri huquqbuzarliklar profilaktikasi hisoblanadi. Ushbu faoliyat normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi – bu huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat jarayon.

Ta’kidlash joizki, jinoyatchilikning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasida va ongida aks etib, ular jamiyatga zid yo‘nalishni, qarashlarni, harakatlarni shakllantiradi yoki ularni kuchaytiradi, jonlantiradi. Shuning uchun ham jinoyatchilik sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo‘lib, ma’lum bir darajada mustaqilidir. Jamiyatda jinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarini asosan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo‘lgan salbiy hodisalar, voqealar, jarayonlar keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ham, ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan obyektiv va subyektiv sabab va sharoitlar mavjud bo‘ladi, lekin ular turli darajada bo‘ladi.

Ayollar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bunday tasniflash zarur profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni qayerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar profilaktikasini amalga oshirishdan oldin yuqorida keltirilgan barcha toifadagi shaxslarning psixologik jihatlarini chuqur o‘rganishi maqsadga muvofiqdir. Shaxsning psixologik jihatlarini o‘rganish asosan shaxsdagi jinoiy xulqni keltirib chiqaradigan xususiyat va sifatlarni aniqlash, ularni baholash va shunga ko‘ra ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Profilaktik ishlarni samarali amalga oshirishda huquqbuzar va unga moyilligi bo‘lgan ayollar bilan psixologik aloqa o‘rnatish, ularga ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshirilishi e’tirof qilinadi. To‘g‘ri muloqotga kirishish – ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllana-

digan qobiliyatdir. Bu, ayniqsa, profilaktik faoliyatning ajralmas qismi sifatida tan olinadi. Zero, profilaktika ishlar huquqbuzar ayollar bilan dastlabki munosabati muomala orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar bilan munosabatini o'rnata olmasligi, amaliy faoliyat ishtirokchilarining psixik holatlarini, ularning mazkur jarayondan ko'nikmalarini aniqlay olmasligi, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmasligi, shaxsni uning ichki kechinmalari va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmasligi psixologiyada kommunikativ uquvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqradi. Bunda profilaktika inspektori va shaxs bir-birini tushuna olmasligi oqibatida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldi olinmay qoladi va huquqbuzarliklar yana sodir etilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy ijtimoiy psixologiya yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida, huquq psixologiyasida ichki ishlar organlari xodimlarini kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda kommunikativlik hosil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, shaxslararo munosabatga kirishib, o'z professional mahoratini namoyon eta olmaydi.

Muloqot jarayonida xodim va huquqbuzar ayol o'rtasida psixologik aloqa o'rnatiladi. *Psixologik aloqa* – muloqotga kirishuvchilarning bir-biri bilan munosabat o'rnatish, rivojlantirish va qo'llash demakdir.

Profilaktika inspektori va mahalla faollari shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayonida psixologik to'siqlar (baryer)ga duch keladi. Bu psixologik to'siqlar befarqliq, ishonmaslik, nafrat, xarakteri bir-biriga to'g'ri kelmaslikdan kelib chiqadi. Demak, psixologik to'siqlarning bor yoki yo'qligi odamlarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq.

Masalan, odam o'ldirish uchun ilgari sudlangan shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatishda jarayonida bir qancha psixologik to'siqlarga duch keladi. Ushbu to'siqlar faoliyat samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Agar ularning xatti-harakatlarini kuzatsak, ularda odatda kuchli asabiylashish, hissiyotlarini nazorat eta olmaslik, muloqotda jargonlardan foydalanish, xodimga psixologik tazyiq o'tkazishga harakat qiladilar. Shu sababli, profilaktika inspektori ushbu toifadagi shaxslar bilan aloqaga kirishganda ularning xarakteriologik va fiziologik holatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishishlari, o'rtadagi ruhiy to'siqni bartaraf etishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ehtiyoitsizlik yoki kuchli ruhiy zo'riqish ta'siri ostida qotillik qilgan shaxslar odatda qo'rkoq hamda egiluvchan bo'ladilar.

Firibgarlar bilan profilaktik ishlarni olish borishda avvalo uning o‘zini tutishini kuzatishi kerak. Ular ko‘proq bashang, oliftalarcha kiyinoshga, nutqida baland parvoz, manmanlik, yolg‘on ishlatishga moyillik kuchli bo‘ladi. Ular ishonarli qilib gapirishga, turli rollarga kira olish qobiliyatiga ega. Odatda ayollar muloqotning boshida asabiy, o‘rtalariga kelib ancha bo‘shashgan, oxirida esa yana hujumkor pozitsiyada bo‘ladilar.

Shu sababli o‘zga inson bilan ilk bor tanishishda qo‘llaniladigan kerakli so‘zlarni tanlab olish katta ahamiyatga ega. Yuridik faoliyatda shaxslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga chaqirish psixologik noqulaylik holatini keltirib chiqaradi va birinchi taassurot samarasini susaytirishga va uning salbiy bo‘lishiga olib keladi.

Demak, tanishish uchun ishlatiladigan birinchi so‘zlari qanchalik tabiiy va tushunarli bo‘lsa, muloqot shunchalik tez o‘rnatiladi va oson rivojlanadi. Buning uchun xodim sof, betakror, sezgir bo‘lishi lozim. Qiziqtirayotgan shaxs bilan psixologik aloqa o‘rnatishda birinchi navbatda, o‘zi haqida ijobjiy taassurot qoldirishi lozim. Bunda:

- 1) uning tashqi qiyofasi;
- 2) ekspressiv reaksiya (mimika, harakatlar, yurish-turish va h.k.);
- 3) ovoz ohangi, nutqi yuqori darajada bo‘lishi lozim.

Ayollar jinoyatchilagini oldini olishda xodim shaxs bilan muloqot qilish jarayonida shaxsning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning subyektiv dunyosi, rejali, qilmishlarini tushunishga harakat qilishi lozim. Shu bois birinchi taassurotning yuzaga kelishida uch bosqichda ish olib borish kerak bo‘ladi, ya’ni:

- 1) jinoyat sodir etuvchi ayolning tashqi xususiyatlari (tashqi ko‘rinishi, mimikasi, kiyinishi, yurish-turishi, ahamiyatli jihatlari va h.k.)ni aniqlash;
- 2) jinoyat sodir etuvchi ayolning emotsiyal, xulqiy va umumiyligi psixik holatlarini belgilash;
- 3) maqsadga muvofiq fikr yuritish va emotsiyal taassurotlar ostida hamkor obrazini tuzish (ijtimoiy-rolli va individual-shaxsiy tomonlarini nazarda tutgan holda) va h.k.

Amaliyotda insonlarning psixik faoliyatidagi qonuniyatlarga asoslangan holda ulardan kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni olish turli xil usullar orqali amalga oshiriladi (masalan, ongga ta’sir o‘tkazish va ong ostidagi doiraga ta’sir o‘tkazishning maxsus usullari orqali).

Profilaktik faoliyatda kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish davomida ko‘proq ong ostida namoyon bo‘luvchi psixik jihatlarga ta’sir o‘tkaziladi.

Qiziqtirayotgan shaxsga baho berishda formal va noformal usullardan foydalanish mumkin.

Formal usullarga maqsadga yo‘naltirilgan kuzatuv va suhbat, hujjatlarni tahlil qilish, tarjimai holni o‘rganish, turli anketa ma’lumotlarini qo‘llash kabi usullar kiradi (ong darajasida)

Noformal usullarga turli intuitiv imkoniyatlar yordamida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar kiradi (ong osti darajasida).

Jinoyat sodir etuvchi ayollar shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillari.

Qiziqtirayotgan shaxsni o‘rganish davomida quyidagilardan foydalaniladi:

1. *Umumiy ma’lumotlar*: tug‘ilgan vaqt va joyi, millati, ma’lumoti, mutaxassisligi, ish joyi, mansabi, oilaviy sharoiti, turar joyi va h.k.

2. *Tashqi belgilari*:

- yuzi (qisqacha og‘zaki portreti, yuz tuzilishi);
- bo‘yi (past, o‘rta, baland, bo‘yidagi kamchiliklar);
- og‘irligi va badanining tuzilishi (oriq, oriqroq, to‘la, o‘rta to‘la va h.k.);
- tashqi qiyofasi, kiyinishi (toza yoki toza emasligi, modaga rioya qilgan yoki qilmaganligi va h.k.);
- xatti-harakatlari (yaxshi, yomon taassurot qoldiradi);
- ovozi (yoqimli, yoqimsiz, baland, dimog‘li va h.k.).

3. *Hayotiy yo‘li*:

- ota-onasi (tug‘ilgan joyi va vaqt, millati, turar joyi va h.k.);
- yoshlik damlari (oiladagi hayoti, oiladan tashqari hayoti, nechanchi farzand ekanligi, aka-singillari, ularning munosabatlari, hayotidagi voqealarning ta’siri va h.k.);
- mакtab (maktabning yo‘nalishi, qaysi maktabni tugatgan, yaxshi ko‘rgan fanlari, tengdoshlari bilan munosabati, maktabda intizomni buzganligi yoki buzmaganligi, yutuqlari, o‘qish faoliyatidagi baholari va h.k.);
- o‘quv yurtlar (kirishning sababi, yutuqlari, olgan bilim, ko‘nikma, malakalari, 16-19 yoshdagi ko‘zga ko‘ringan voqealari);
- mehnat faoliyati (mehnatning xarakteri, ularga munosabati, mehnat faoliyatining shaxsga bo‘lgan ta’siri);
- oilaviy hayoti (bolalari, kim bilan turmushda).

4. *Hayotiy tarmoqlari*:

- oilasi (eri, ota-on, qaynota-qaynona va bolalariga munosabati);
- kasbi va mutaxassisligi;
- siyosiy va jamiyatdagi faolligi;
- bo‘sh vaqtini o‘tkazishi;
- sog‘lig‘i.

5. *Xulqi*:

- doimiy kayfiyati (me’yorida, ko‘tarinki, yomon, qiyinchiliklarga munosabati, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi yoki yo‘qotib qo‘ymasligi, befarq bo‘lishi);

- hissiyotlaridagi o‘zgarishlari (tez, o‘rta, oson jahli chiqishi, arzimas narsalarga kayfiyatining buzilishi);
- irodasining ko‘rinishi (mustaqil, mustaqil emas, intizomli, qat’iy, qo‘rqmas va h.k.);
- murakkab vaziyatlardagi xulqi (tinchlikni saqlaydi, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi, nutqi va harakatlarining mantiqiyligi yoki bunday emasligi);
- ichib olgan holatidagi xulqi (tinch, agressiv, nazoratni yo‘qotishi, sergap, holi qolishni istashi va h.k.);
- axloqiy xulqi (axloq normalariga rioya qilishi, rostgo‘yligi, murakkab vaziyatlarda jasurlik ko‘rsatishi va h.k.).

6. Temperament va xarakteri.

Temperament:

- muomala qila olishi (suhbatdosh, suhbatdosh emas, kamgap, uyat-chan, qat’iyatli, qat’iyatsiz, sardor bo‘lishga moyil va h.k.);
- emotsiyal (bosiq, qiziqqon, vazmin, xafaqon, o‘zini tuta oladi – tuta olmaydi, tushkun ko‘tarinki).

Xarakteri:

- xarakterining jihatlari: odamlar bilan munosabatda bo‘lganda xush-muomalali, talabchan, sinchkov, vijdonli, o‘zi va o‘zgalarga bo‘lgan munosabati va h.k;
- xarakteridagi kamtarlik jihatining ustunliklari (birinchi, ikinci, keskin ko‘rinishlari).

7. Xulqining motivatsiyasi:

- ehtiyojlarining ustuvorligi (fiziologik o‘zini o‘zi saqlab qolish, ijtimoiy guruhda munosib bo‘lishi, o‘zining shaxsiga hurmatda bo‘lishi va o‘zini ko‘rsata olishi).

Qadriyatlar:

- a) shaxsiy qadriyatlar (yuksalish, o‘zgalarga yordam berish, aniq faoliyat va ehtiyojlarini qondirish yo‘nalishlari);
- b) ijtimoiy qadriyatlar (jamiat qabul qilgan norma, an’analarga bo‘lgan yo‘nalishlari, huquqiy tartibni hurmat qilishi);
- c) moddiy qadriyatlar (pul, buyum, mulk kabi tushunchalarga munosabati);
- d) siyosiy qadriyatlar (demokratiyaga, siyosiy partiyalar, davlat-ning siyosiy hayotiga bo‘lgan munosabati, shaxsiy, ilmiy qarashlari);
- e) g‘oyaviy qadriyatlar (dunyoqarashi, diniy qarashlari).

8. Ijtimoiy moslashuvi:

- ijtimoiy atrof-muhitga munosabati (tanish odamlar va do‘stlari bilan munosabatlari, o‘zgalar tomonidan uning tan olinishi, qarindosh-urug‘lari bilan aloqalari);

- ijtimoiy vaziyatni qabul qilishi (aniq sharoitdan kelib chiqishi, mantiqli yoki mantiqsiz harakatlari, vaziyatga tez moslashuvi);
- o‘zini o‘zi baholashi.

9.Qobiliyatlar:

- umumiy qobiliyatlar (nutq tezligi, sekinligi, tez eslab qolishi, tasavvur boyligi, xulosalarining kengligi);
- maxsus qobiliyatlar (tashkilotchilik, pedagogik qobiliyati, tanishish, yaqinlashish, odamlarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati, odamlarni tushunish qobiliyati).

Muloqot jarayonida yuqorida keltirilgan shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillar asosida qiziqtirayotgan shaxs to‘g‘risida ma’lumot yig‘iladi va unga baho beriladi. Mazkur jarayonda turli usullardan (masalan, tarjimai hol usuli, test sinovlari, yozuv, xatlarni tahlil qilish va h.k.) foydalanish mumkin.

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning huquqbazarlik sabablarini o‘rganishda ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida yondashish talab etildi.

Profilaktik suhbat huquqbazar ayollarni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g‘ayri-ijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbazarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat faoliyatidir.

Huquqbazar ayollar bilan profilaktik suhbatni militsiya tayanch punktida, shuningdek shaxsning yashash, o‘qish, ish joyida yoxud bevosita u tomonidan sodir etilgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbazarlik aniqlangan joyda o‘tkaziladi.

Xodimning huquqbazar ayol bilan profilaktik suhbatini amalgaloshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati kattadir. Chunki har bir profilaktik ta’sir chorasi shaxsning psixologiyasi, uning xulq-atvori va boshqa psixologik jihatlarini e’tiborga olgan holda qo‘llanilishi ma’muriy nazorat ostidagi shaxsning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishga olib keladi.

Huquqbazar ayollar bilan amalgaloshiradigan profilaktik suhbat quyidagi tashkiliy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- profilaktika suhbatini amalgaloshirishga tayyorgarlik ko‘rish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri profilaktik suhbatini o‘tkazish;
- o‘tkazilgan profilaktika suhbatni natijalarini tahlil qilish va baholash.

Profilaktik suhbatni amalgaloshirishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- metodik jihatdan ta'minlanganlik;
- texnik jihatdan ta'minlanganlik;
- psixologik tayyorgarlik;
- pedagogik tayyorgarlik;
- tadbir o'tkaziladigan joydagi sharoit;
- obyektning individual xususiyatlarini o'rganish;
- sharoit va obyektga xos xususiyatlarni e'tiborga olib profilaktik ta'sir usul va shakllarini ishlab chiqish va asosiyalarini belgilab olish.

Profilaktik suhbatni o'tkazish bosqichida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- yakka tartibdagi profilaktik ta'sir etishning usul va shakllari obyektga nisbatan qanday ta'sir etayotganligi bo'yicha muntazam nazorat olib borish;
- obyektni yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar uning manfaatlari yo'lida olib borilayotganligiga ishontirish, aks holda imkon qadar profilaktik ta'sirning usul va shakllarini o'zgartirish;
- suhbat jarayonida obyektning qiziqishlari, muammolari hamda ehtiyojlarini o'rganish;
- obyektni qiziqtirgan savollariga javob berish, shuningdek mavjud muammolarini bartaraf etish hamda ehtiyojlarini qondirish yuzasidan huquqiy maslahatlar berish.

O'tkazilgan profilaktik suhbat natijalarini tahlil qilish va baholashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'tkazilgan profilaktik suhbat o'z maqsadiga erishdimi, agarda erishmagan bo'lsa, unda yana qanday profilaktik ta'sir chora-tadbirlarni o'tkazilishni belgilash lozim;
- profilaktik suhbatni tashkillashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchilik va xatoliklarni aniqlab, kelgusida unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha xulosalar qilish;
- o'tkazilgan profilaktik suhbat yetarlimi, agar yetarli bo'lmasa yana qanday qo'shimcha profilaktik suhbat o'tkazish lozim.

Xodimning huquqbuza ayollar bilan o'tkazadigan profilaktik suhbat ushbu toifa shaxslarning turmush tarzi hamda xulq-atvorini kuzatish, ular tomonidan huquqbuzaqlik sodir etilishining oldini olish nisbatan kelgusida boshqa g'ayriijtimoiy harakat yoki huquqbuzaqlik sodir etishining oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirishda umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktik ta'sir etish va viktimologik usullaridan samarali foydalanish lozim.

IV BOB

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASI

1-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning umumiyligi profilaktikasini tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may qonuniga asosan huquqbazarliklar profilaktikasining to‘rtta turidan samarali foydalangan holda ayollar jinoyatchiligining profilaktikasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shulardan biri huquqbazarliklarning umumiyligi profilaktikasidir. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining «Huquqbazarliklarning umumiyligi profilaktikasi» deb nomlangan 3-bobi talablaridan kelib chiqqan holda «ayollar jinoyatchiligining umumiyligi profilaktikasi»ga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning ayollar jinoyatchiligining oldini olish, ushbu yo‘nalishdagi huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyatidir».

Ayollar va erkaklar g‘ayriqonuniy xulq-atvorning genezisida ba’zan turlicha (ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, fiziologik va h.k.) omillarning mavjudligi tufayli, shuningdek ijtimoiy hayotdagi bir xil hodisalar ayollar va erkaklarning xulq-atvoriga har xil ta’sir ko‘rsatishi hamda ularda jinoiy niyatning tug‘ilishi va uni amalga oshirish mexanizmi har xil ekanligini inobatga olgan holda, ayollar jinoyatchiligining profilaktikasida ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning umumiyligi xususiyatiga ega bo‘lgan omillari bilan birga, aynan ayollarda g‘ayriqonuniy xulq-atvorni vujudga keltiruvchi kuchli emotsional omillarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish kutilgan natijalarni beradi.

Tadqiqotlardan ma’lumki, aksariyat hollarda zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan og‘ir jinoyatlar (odam o‘ldirish, badanga og‘ir shikast yetkazish, bezorilik va h.k.) ayollar tomonidan asosan oila-ro‘zg‘or muhitida amalga oshirilishi qayd etilgan.

Oila-turmush munosabatlari doirasidagi nizolar tufayli jinoyatlarning sodir etilishiga ko‘p hollarda shaxsning o‘z manfaatini ustun qo‘yib, boshqalarga o‘zining jismoniy ustunligini namoyish etish yoki qo‘rqtib qo‘yish maqsadida o‘z so‘zi va ta’sirini o‘tkazishga harakat qilganligini

ko‘rish mumkin. Ma’lumki, oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar tarkibida o‘ch olish, qasos, oila a’zolarining bir-birini yoqtirmasligi, adovat, alam, kelishmovchilik va psixologik ziddiyatlar oqibatida zo‘ravonliklar sodir etiladi. Shunday holatlarda ko‘pincha aybdor shaxsning qilmishiga yarasha munosib javob qaytarish, kuchi, jahli yoki nimaga qodir ekanligini ko‘rsatish, xafa qilgan kishiga shikast yetkazish yo‘li bilan boshidan kechirgan azob-uqubat va kechinmalar o‘rnini to‘ldirishga intilish kabi ruhan o‘zini tayyorlash bilan bog‘liq holatlar va vaziyatlar vujudga keladi.

Tabiiyki, bu jarayonda odamlarning intim aloqalari sohasiga har qanday aralashish oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham e’tiborga olish kerak. Shuning uchun ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari jamoatchilik institutlari, xususan, mahallada istiqomat qilayotgan fuqarolar yordamida beqaror oilalarni, er yoki xotinning xulq-atvorida salbiy xususiyatlarning paydo bo‘lganligini o‘z vaqtida aniqlashlari, jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar, xususan, ayollarga nisbatan g‘ayriqonuniy xulq-atvor shakllanishining dastlabki bosqichlarida profilaktika ishlarini to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ta’kidlash joizki, huquqbuzarliklarning umumiyligi profilaktikasi chora-tadbirlaridan hisoblangan aholi o‘rtasida o‘tkaziladigan huquqiy targ‘ibotlarni tegishli mavzular bo‘yicha yetarli bilim va tayyorgarlikka, shuningdek bir qator kasbiy va insoniy fazilatlarga, yetuk malakali va ko‘p yillik amaliy tajribaga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan o‘tkazilishi huquqbuzarliklar, xususan, ayollar jinoyatchiligining profilaktikasini samarali tashkil etish garovidir.

Shuningdek, ko‘pgina oilaviy nizolarning oldini olish ichki ishlar organlari xodimlari, xususan, profilaktika inspektorlaridan ma’lum pedagogik va psixologik ko‘nikma va bilimlarni, nizolarning tabiatini teran tushunishni talab etadi. Amalda janjal sodir bo‘layotgan xonadonga kelishdan boshlab huquqbuzarga nisbatan chora ko‘rish va kelgusida jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq juda ko‘p taktik va ruhiy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunday sharoitlarda oila bilan ishlaydigan xodimlardan murakkab emotsiyal vaziyatda nizoga va jinoyatning oldini olish choralarining maqbul tarzini tanlashi talab etiladi. Bunga oilaviy janjallarni yarashtirish komissiyalarida ko‘rib chiqish, fuqarolar yig‘ini majlislarida muhokama qilish jarayonlarida qat’iy amal qilish lozim hisoblanadi. Bundan tashqari, oilaviy janjallar bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish natijasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritishda ham e’tiborga olish talab etiladi.

Ayollar jinoyatchiligining profilaktikasida oiladagi munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning o‘z farzandidan uzoqlashishi, uning tarbiyasi va xulq-atvoriga befarqligi, ota-onsa bilan bola o‘rtasida zarur emotsional aloqalarning yo‘qligi yoki bunday aloqalarning zaiflashishi odamlarda o‘zining ijtimoiy holati va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg‘usini paydo qiladi. Yuqorida zikr etilgan hodisalar bunday shaxslarning tashqi holatlar va shart-sharoitlarga qaram bo‘lishiga olib keladi. Bu esa voyaga yetmagan qizlarga ko‘proq salbiy ta’sir qiladi. Ularning ma’naviy va ijtimoiy tiklanishi erkaklarning ma’naviy va ijtimoiy tiklanshiga qaraganda qiyin kechadi. Shuning uchun ham oila va oiladagi tarbiya umumiy profilaktik ta’sir ko‘rsatishning asosiy obyektlaridan biri bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ayollar jinoyatchiligining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan davlat, hududiy va sohaviy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, o‘z vaqtida sifatli huquqiy targ‘ibotlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish va samarali tashkil etish talab etiladi.

2-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning maxsus profilaktikasini tashkil etish

Ayollar jinoyatchiligining maxsus profilaktikasi – huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning mavsumiy yoki kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, respublikada, mintaqada yoki shahar-tuman miqyosida yoxud alohida kichik hudud va obyektda ayollar jinoyatchiligining profilaktikasini amalga oshirish, bu turdagи huquqbazarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon bergen shart-sharoitlarni bartaraf etishga, g‘ayriijtimoj xulq-atvorli, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbazarlik sodir etgan ayollarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi.

Ichki ishlар organlarida huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi IIVda ishlab chiqilgan va amalga oshirish tartibi ichki buyruqlar bilan belgilab beriladigan maxsus hamda tezkor tadbirlar bo‘yicha maxsus rejalar asosida amalga oshiriladi. Ichki ishlар organlari bu boradagi maxsus rejalarini huquqbazarliklar profilaktikasi tizimiga kiruvchi boshqa subyektlar bilan hamkorlikda ishlab chiqishi va amalga oshirishi, shuningdek bu jarayonga huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi 2015-yil 17-oktabr 182-sonli buyrug‘i ayollar jinoyatchiligining profilaktikasi, xususan, maxsus profilaktikasini amalga oshirishda alohida o‘rin tutadi.

Buyruqda tezkor vaziyatdan kelib chiqib, odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarni aniqlash maqsadida «Oriyat» tadbiri va boshqa tezkor-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi, ushbu tadbirlar tegishli ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan, odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘limi, bo‘linmalari, guruhlari xodimlari tomonidan sohaviy xizmatlarning xodimlari bilan o‘zaro hamkorlikda respublika, hududiy yoki tarmoq miqyosida amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan.

Bu borada olib boriladigan tezkor-profilaktik tadbirlar hammomlar, saunalar, mehmonxonalar, yotoqxonalar, dam olish maskanlari, kinoteatrlar, videozal va videosalonlar, audiovizual mahsulotlarni sotish do‘kon va shoxobchalari, internetlar (afe, klub va h.k.), tungi klublar, diskotekalar, choyxonalar, bilyard mavjud bo‘lgan obyektlar hamda odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklar sodir etilishi mumkin bo‘lgan boshqa obyektlarda o‘tkazilishi belgilangan.

O‘z uylarini ijara beradigan shaxslar tomonidan odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklar sodir etilayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash maqsadida manbalar biriktiriladi va olingan ma’lumotlar asosida chora-tadbirlar belgilanadi.

Bundan tashqari, tanosil va OIV/OITS kasalligining aholi orasida tarqalishiga sababchi asosiy manbalar bo‘lgan fohishalarni aniqlash bo‘yicha maxsus tadbirlar o‘tkaziladi, natijalariga ko‘ra aniqlangan ushbu toifa shaxslarning tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari ta’milnadi.

Alkogolizm va giyohvandlikka ruju qo‘ygan ayollarning shaxsini ta’riflaydigan ma’lumotlardan ularning hayotiy qarashlari, xulq-atvori, atrofdagilarga, jamiyatga munosabati kabilardagi ma’lum o‘xhashlik profilaktika vazifalarining o‘xhashligini ham belgilab beradi.

Spirli ichimliklarni suiiste’mol qiluvchi ayollarning ko‘pchiligidagi (fe’l-atvor xususiyatlaridan qat’i nazar) ruhiy infantilizm xos. Ruhiyatning reaktiv va affektiv buzilishi ham ayollar fe’l-atvorining umumiyl jihatlaridan hisoblanadi. Ular 30-35 yoshdan keyin ayollarda alkogolizm bilan kasallanish ehtimoli ancha ortgan davrda kuchayadi (ayollar jinoyatchiligiga doir statistika ma’lumotlari ham, maxsus tadqiqotlarning natijalari ham 30-50 yoshlilar ayollarning eng kriminogen yosh guruhini tashkil

etishini ko'rsatadi). Bu xususiyatlar ayollarning g'ayriijtimoiy xulq-atvordan kelib chiqib maxsus profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini talab etadi.

Giyohvand ayollar asosan giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish va ularning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni, shuningdek bunday vositalarni sotib olish uchun mulkka qarshi jinoyatlarni sodir etadi. Giyohvand ayollarning ko'pchiligi 30 yoshga to'limgan bo'ladi, ular giyohvandlik vositalarini asosan 15-25 yoshidan boshlab iste'mol qila boshlaydilar. Odatda ayollar orasida opiomaniya ayniqsa keng tarqalgan 67 foiz, polinarkomaniya 35 foiz, gashishizm 7 foizni tashkil etadi¹. Piyonista ayollar orasida bo'lgani singari, giyohvand ayollar orasida ham ma'lumoti va ijtimoiy maqomi past, doimiy ish joyi va ma'lum ixtisoslikka ega bo'limgan shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ayollar alkogolizmi va giyohvandligining oldini olishda, birinchi navbatda ularga nisbatan alkogolni suiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi ayollar o'rtasida huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari samarali tashkil etish lozim.

Tabiiyki, mazkur ijtimoiy illatlarga qarshi kurashda davlat tomonidan amalga oshiriladigan maxsus profilaktik chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bular jumlasiga ichkilikbozlik va giyohvandlikning tarqalishiga mafkuraviy qarshilik ko'rsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi tadbirlar kiradi.

Maishiy sohadagi retsidiv jinoyatlarning oldini olish muammosi ham alohida diqqatga sazovordir, zotan, u sudlangan ayollarni tarbiyalash va ularni axloqan tuzatish muammolari bilan chambarchas bog'liq. Bunda oila a'zolariga qarshi zo'rlik ishlatib sodir qilgan jinoyatlari uchun jazoga hukm etilgan ayollar bilan ishlash ularning yaqinlari, ayniqsa, farzandlari bilan munosabatlarini (agar bunday munosabatlar saqlanib qolgan bo'lsa) puxta o'rganishni talab etadi.

Mahkuma ozodlikka chiqadigan payt yaqinlashgani sari bunday ishning ahamiyati ortib boradi. Mahkuma ayol va uning oilasi o'rtasida nizoning yuzaga kelishi yoki ilgarigi salbiy munosabatlarning qaytarilishini oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari qonun hujjatlari asosida amalga oshirilishi, shuningdek bu sohada kadrlarni maxsus tayyorlash maqsadga muvofiq.

¹ Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. – М., 1992. – С.185; Габиани А.А. На краю пропасти: наркомания и наркоман. – М., 1990. – С. 55.

3-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasini tashkil etish

Ayollar jinoyatchiligining yakka tartibdagi profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan va huquqbuzarlik sodir etgan ayollarning hisobini yuritish, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ularni axloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish hamda nazorat qilish, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli (viktimligi) yuqori bo‘lgan ayollarni huquqbuzarlikning qurbaniga aylanish xavfining mavjudligi, xavf tug‘dirayotgan huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergen shart-sharoitlar, huquqbuzarliklarni sodir etish usuli, shakli va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish, ularni ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasida profilaktika suhbati, rasmiy ogohlantirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to‘g‘risida xabardor qilish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga yuborish, ma’muriy nazorat va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Profilaktika suhbati – ayollarni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirish maqsadida g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, profilaktik hisobga olingan hamda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli (viktimligi) mavjud bo‘lgan ayollarga nisbatan amalga oshiriladi.

Profilaktika suhbati huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa joylashgan binoda, shuningdek g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega yoki huquqbuzarlik sodir etgan ayolning yashash, o‘qish, ish joyida, ichki ishlar organlarining militsiya tayanch punktlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi joylashgan binoda yoxud bevosita g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o‘tkaziladi.

O‘tkazilgan profilaktika suhbati ijobiy natija bermasa va shaxs (ayol) g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini o‘zgartirmasa yoki huquqbuzarlik sodir etishga

moyillikni davom ettirsa, ushbu hollarda, unga nisbatan rasmiy ogohlantirish qo'llanilishi mantiqiy profilaktik ta'sir chorasi sifatida e'tirof etiladi.

Rasmiy ogohlantirish ilgari profilaktika suhbati o'tkazilmagan, ammo davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmaydigan xulq-atvorga ega, shuningdek huquqbazarlik sodir etgan va keyinchalik ham huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan ayollarga nisbatan amalga oshiriladi. Bunda davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmaydigan xulq-atvorga ega ayollardan yozma ravishda tushuntirish xatlari olinadi va alohida yig'ma jildga tikilishi hamda bu haqda kompyuterdag'i ma'lumotlar bazasiga kiritilishiga doir amaliyotni joriy etish talab etiladi.

Rasmiy ogohlantirish huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasaning huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslari tomonidan belgilangan shaklda amalga oshiriladi. Shuningdek, rasmiy ogohlantirish amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasaning mas'ul mansabdor shaxslari ro'yxati ushbu organ va muassasa tomonidan shakllantirilishi lozim.

Rasmiy ogohlantirilishiga qaramasdan huquqbazarlik sodir etgan ayol qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi, biroq uning ilgari huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlik haqida rasmiy ogohlantirilganligi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanishi lozim hisoblanadi.

Huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan huquqbazarliklardan jabrlanuvchi ayollarga, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbazarliklar sodir etgan ayollarga nisbatan quyidagilar asosida ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi:

pedagogik yordam;

psixologik yordam;

tibbiy yordam;

ijtimoiy yordam (ish, o'qish, yashash joyi bilan ta'minlanishi, oilasi va yashash joyidagi mahalla ahli bilan kirishib ketishi kabilarda);

moddiy yordam;

huquqiy yordam.

Huquqbazarlik sodir etgan ayollarning tuzalishi va takroran huquqbazarlik sodir etishining oldini olish maqsadida profilaktik hisobning yuritilishi ichki ishlar organlarining huquqbazarliklarning oldini olish xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Profilaktik hisobga olingan ayollar bilan individual profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning yoshi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatları kabi shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim.

Ayollar quyidagi toifalar bo'yicha profilaktik hisobga olinadi:

ilgari sudlanib, jinoiy jazoni o'tagan shaxslar (ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno);

sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar;

jinoyat ishini JPKning 84-moddasiga asosan tugatish yoki reabilitatsiya qilmaydigan asoslarga ko'ra qo'zg'atishdan rad etish to'g'risida qaror chiqarilgan shaxslar;

jinoyat ishi bo'yicha qamoq bilan bog'liq bo'lмаган ehtiyot chorasi qo'llanilgan ayblanuvchilar;

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan shaxslar;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslar (xulq-atvori tuzalgaligi sababli ushbu ta'sir chorasi qo'llashni davom ettirishga muhtoj emas deb topilib, mazkur muassasalarda bo'lishi yuzasidan sud tomonidan belgilangan muddat o'tishidan oldin chiqarilgan shaxslar bundan mustasno).

Profilaktik hisobga olish, profilaktik hisob ishini yuritish va tamomlash faoliyati ichki ishlar organlarining ichki normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'ziga nisbatan huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan ayollarning huquq va majburiyatları quyidagicha:

o'ziga nisbatan qo'llanilayotgan huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarining asoslari va huquqiy oqibatlarini bilish;

o'ziga nisbatan to'plangan hujjatlar va boshqa materiallar bilan tanishish;

iltimoslar qilish;

yuridik yordam olish;

huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organning yoki muassasaning qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish kabilar.

O‘ziga nisbatan huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan ayollar huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi shart.

O‘ziga nisbatan huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan ayollar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlар ham bo‘lishi mumkin.

Ayollarga nisbatan huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda Fuqarolar yig‘inining xotin-qizlar bilan ishslash bo‘yicha komissiyasining roli katta. Bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirishda ko‘maklashadilar:

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlar hamda ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish, ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishida;

- xorijga chiqib ketayotgan va xorijdan kelayotgan xotin-qizlar hisobini olib borish, ularning oilalari ahvoldidan xabardor bo‘lib turish, xorijda ishlab kelgan xotin-qizlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va ishga joylashtirishda;

- ichki ishlar organlari hisobida turuvchi xotin-qizlar bilan ishslashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ish olib borish va boshq.

Huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi amalga oshirilayotgan ayollar bilan ishslashda «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunning «ishontirish usulining ustuvorligi» maxsus prinsipiiga qat’iy rioya qilishlari talab etiladi. Aks holda yakka tartibdagi profilaktika orqali samarali natijaga erishib bo‘lmaydi.

4-§. Ayollarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning viktimalogik profilaktikasini tashkil etish

Ayollarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning viktimalogik profilaktikasi – bu huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning ayollarning huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyatidir.

Bu borada quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi talab etiladi:
ayollarning huquqbazarliklardan jabrlanish sabablari va unga imkon bergen shart-sharoitlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan ayollarni aniqlash;

huquqbuzarliklardan jabrlangan ayollarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi ayollarni o‘z vaqtida aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi ayollarga yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish bo‘yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi ayollarning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek ishlab chiqishda ishtirok etish va amalga oshirish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi ayollarni umumiyligi va yakka tartibda qonunda nazarda tutilgan o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish;

hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat chegaralari haqidagi ma’lumotlarni targ‘ibot-tashviqot qilish orqali ayollarda qilingan hujumni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ayollar jinoyatchiligi profilaktikasining zamonaviy usullariga doir elektron adabiyotlarni yaratish hamda tarqatish.

So‘nggi vaqtarda keng tus olib borayotgan jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash zarurati haqidagi ilmiy munozara jabrlanuvchilar viktimligini pasaytirishga qaratilgan tadbirdan biri hisoblanadi. Shu bois shartli jazoni qo‘llash yoki jazoni o‘tashdan muddatidan avval shartli ravishda ozod qilish amaliyoti faqat jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar jinoyatchi tomonidan butunlay (hech bo‘lmasa qisman) qoplangan taqdirdagina ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu borada jinoiy jazolarning liberallash-tirishi munosabati bilan Jinoyat kodeksiga 66¹-moddaning kiritilganligi maqsadga muvofiq bo‘ldi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach fuqarolarimizning chet ellarga chiqishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Har yili yuz minglab yurdoshlarimiz o‘zлari istagan xorijiy davlatlarda bo‘lib qaytishmoqda. Lekin ayrim noplak kimsalar yaratilgan qulayliklarni suiiste’mol qilib, xorijiy davlatlarga chiqish qoidalarini buzish, u yerda bo‘lishlari davomida noqonuniy tarzda ishlash uchun yollanish, fohishalik va qo‘shmachilik bilan shug‘ullanmoqdalar. Ular g‘arazli maqsadlari yo‘lida, moddiy manfaatdorlik evaziga odamlarni aldab olib ketib, xalqimiz sha’ni va yurtimizning xalqaro obro‘siga putur yetkazmoqdalar.

Bugungi kunda ayollarga nisbatan sodir etilayotgan odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarga doir viktimologik profilaktika O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 6-bobi, O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2014 yil 1-sentabrda qabul qilingan «Profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 131-sonli buyrug‘i hamda «Odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi 2015-yil 17- oktabr 182-sonli buyruq talablari asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda ayollarning odam savdosi jinoyatlari qurbaniga aylanishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

- ayollarning aksariyat qismini huquqiy savodsizligi, hatto o‘zlarining oddiy huquqlarini ham bilmasliklari;
- chet elga ishga borayotgan ayollarning u yerdagi qonunlar, tartib qoida, ish va ish haqi, yashash sharoiti hamda ishga joylashish bo‘yicha haqiqiy holat haqidagi kerakli ma’lumotlar bilan qiziqmasliklari, o‘rganmasliklari;
- ayollarning o‘ta ishonuvchanligi, soddaligi, hatto norasmiy turli e’lonlar, notanish shaxslarning va’dalariga ishongan holda ularga o‘z taqdirini hal etishga rozilik berishlari;
- ayollarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardan, xususan pasportdan foydalanish tartibini bilmasliklari va unga rioya etmasliklari;
- chet elga borgan ayollarning qiyin vaziyatlarga tushgan (hujjatini oldirib qo‘yan, aldangan, tazyiqqa uchragan va h.k.) holatlarda kimga, qanday tartibda murojaat qilishni bilmasliklari kabilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, aholi turar joylarida, ayniqsa oilada turli xildagi, shu jumladan jinoyat sodir etishga olib keladigan salbiy omillarning oldini olishda xotin-qizlarning imkoniyati benihoya keng va serqirradir. O‘zbekistonda ayollarning jamiyatni boshqarishdagi rolini yanada kuchaytirish, shuningdek ularning oilada, mahallalarda va boshqa shakldagi aholi turar joylarida yoshlarga, ayniqsa voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishda ular imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-mayda «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida¹«gi farmoni qabul qilindi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонун хужжатлари тўплами. – 2004. – № 21. – 251-м.

Mazkur farmonda, *birinchidan*, ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy – ijtimoiy, sotsial iqtisodiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlar hamda yosh-larning ma’naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarning samaradorligini oshirish; *ikkinchidan*, oila, mahalla-lar, mehnat jamoalari, ta’lim muassasalarida milliy-diniy an’analarni tushuntirish va ularga rioya qilish; *uchinchidan*, xotin qizlarning konstitu-tsiyaviy huquqlarini ta’minlash va himoya qilish; *to’rtinchidan*, buzg‘un-chi kuchlarning xotin-qizlar ongiga ta’sir o’tkazish, ularni ekstremistik va terroristik faoliyatga jalb etish yo‘lidagi urinishlariga qarshi qaratilgan ishlarni samarali tashkil etish asoslari belgilab berilgan.

E’tiborli tomoni shundaki, bugungi kunda profilaktika xizmatlari shaxsni jinoyat yo‘liga olib kelgan sabablar zanjirining dastlabki ilk, shu bilan birgalikda asosiy halqalari shakllanadigan oiladagi jarayonlarga pro-filaktik ta’sir ko‘rsatishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari huzurida tashkil etilgan «Xotin-qizlar kengashi», «Yarashtirish komis-siyasi» va yuqoridaagi farmonga asosan joriy etilgan «Diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi»lar bilan uzviy hamkorlikda faoliyat olib borishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezi-dentingning «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvat-lash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni bevosita ushbu hamkorlikni tashkil etishni huquqiy ta’minlovchi asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Ayollar jinoyatchiligi va ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatga xos bo‘lgan viktimologik omillarni o‘rganish jarayonida aybli viktimlik holatlariga ham e’tibor qaratish muhimdir.

Negaki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 110-moddasiga ko‘ra rasman muttasil ravishda do‘pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash deb kvalifikatsiya qilinadigan jabrlanuvchining xulq-atvori ba’zan viktim omil bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni ayollarga nisbatan sodir etila-digan zo‘rlik ma’lum sharoitlarda jabrlanuvchining javob reaksiyasi uchun zamin yaratadi. Bunday holatlarda uzoq muddatli ruhiy zo‘riqishning tipik oqibatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi, ya’ni bunday sharoitda yashayotgan ayollarning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida badanga turli darajadagi shikast yetkazish va hattoki odam o‘ldirish jinoyatlarini sodir etganlar.

Bundan tashqari, kuzatuvlarga qaraganda ayollar tomonidan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o‘ldirish va sog‘liqqa ziyon yetkazish jinoyatlarining sodir etilishi (JK 98, 106-m.) asosan turmush va oila

muhitida ro‘y berishini ko‘rsatadiki, bunga ayollar deviant xulq-atvorining yana bir o‘ziga xos jihatni deb qarash mumkin¹.

Shunday qilib, ayollarning g‘ayriqonuniy xulq-atvori bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishga nisbatan alohida yondashuv talab etiladi. Bu ikki jihat: birinchidan, ayollar jinoyatchiliginini jinoyatchilikning alohida tarkibiy elementi sifatida o‘rganish, ikkinchidan, ushbu muammomi jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari qatorida tadqiq etish zarurati bilan belgilanadi.

Muxtasar qilib aytganda, ayollarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ va muassasa, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Зокирова О. Рашқ мотиви билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. – Т., 2004. – Б. 100.

V BOB

AYOLLAR JINOYATCHILIGI PROFILAKTIKASIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI SOHAVIY XIZMATLARI HAMKORLIGI

1-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamkorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili va tasnifi

Ma'lumki, har bir huquqiy faoliyat, munosabat huquqiy normalar orqali tartibga solinadi. Huquq nazariyasida esa, huquqiy tartibga solish huquqiy vositalar yordamida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, qo'riqlash, ularni jamiyatning ijtimoiy ehtiyojiga muvofiq ravishda rivojlantirish maqsadida muntazam, normativ ta'sir etish jarayoni tushuniladi. Huquqiy tartibga solish ijtimoiy munosabat subyektlarining yuridik huquq va majburiyatlarini belgilab, ularning bajarilishini ta'minlaydi1. Bir qator olimlar jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olishning huquqiy tartibga solinishini quyidagi ikki yo'nalishda olib borilishini ta'kidlashadi:

birinchi yo'nalish – bu huquq normalari yordamida jinoyatchilikning sabab va sharoitlariga, jinoyatlarning sodir qilinishiga imkon beruvchi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi salbiy voqeа, hodisa va jarayonlarga ta'sir qilishi orqali ularni kuchsizlantirish, bartaraf etish va unga qarshi kurashish uchun sharoitlar yaratish;

ikkinchchi yo'nalish – huquqbazarliklarning oldini olish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini o'rnatish hamda aniq profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni huquqiy tartibga solishdir.

Ta'kidlash joizki, bu yo'nalishlar o'rtasidagi farqlar shartli bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Endi biz bevosita profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini huquqiy tartibga soluvchi huquqiy asoslarining turlarini tahlil etishga harakat qilamiz.

Aytish joizki, har bir faoliyatning huquqiy tartibga solinganligi, *birinchidan*, uni tashkil etish tartibini mustahkamlasa, *ikkinchidan*, hamkorlik bo'yicha subyektlar faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab, ularning mas'uliyatini oshirishga hamda hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining

sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini belgilab beruvchi yagona huquqiy asos mavjud emas. Biroq profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini belgilab beruvchi alohida huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, ularni bir nechta guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh huquqiy asoslarga konstitutsiyaviy normalarni kiritish mumkin. Jumladan, Konstitutsiyaning normalari demokratik jamiyatdagi barcha munosabatlarni ijtimoiyadolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda tartibga solishning birlamchi asosiy manbai sifatida xizmat qilishi bilan har qanday huquqqa xilof qilmishning oldini olishni ta’millaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator qoidalari bevosita jinoyatlarning oldini olish xususiyatiga ega bo‘lib, fuqarolarni har xil turdagijinoiy tajovuzlardan himoya qilishda va ularni jamiyatdagi umuminsoniy, axloqiy normalar asosida tarbiyalashda asosiy manba hisoblanadi. Mazkur normalar profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini ham belgilab beradi. Masa-lan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasida: «Qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin», degan qoida belgilangan bo‘lib, mazkur norma profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini belgilab beradi.

Ikkinci guruh huquqiy asoslarga O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini keltirish mumkin. Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidiga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligiga doir aniq bir qonun yoki qonunosti hujjat bo‘lmasa-da, ayrim qonunlarda ushbu subyektlar hamkorligining alohida yo‘nalishlarini belgilab beruvchi normalar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida keltirilgan shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, inson xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza etish, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash to‘g‘risidagi asosiy vazifalari profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidaga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksning

Maxsus qismidagi barcha normalar jinoyatlarning oldini olishga qaratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida uning vazifalari keltirilgan bo‘lib, mazkur kodeksning asosiy vazifalaridan biri jinoyatlarning oldini olishdir. Uning bir qator normalari bevosita profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorlikdagi faoliyatini belgilab beradi. Jumladan, 296-moddada jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart ekanligi, 297-moddada jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokuorning taqdimnomasi asos bo‘lishi, 299-moddada taqdimnoma va xususiy ajrimlarni bajarish majburiyatları, 300-moddada fuqaroning ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to‘g‘risidagi taqdimnoma va xususiy ajrim to‘g‘risidagi qoidalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi 2000-yil 15-dekabr qonuni profilaktika xizmatlarining terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning oldini olish bo‘yicha faoliyatini tartibga soluvchi manba bo‘lib hisoblanadi. Qonunning 5-moddasida terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini qo‘llash orqali amalga oshiradi, deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi 2008-yil 17-aprel qonunining 7-moddasida ichki ishlar organlari, jumladan, profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishi natijasida odam savdosiga bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning faoliyatiga chek qo‘yish, ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda aholi o‘rtasida keng miqyosda ogohlantirish-profilaktik ishlarni o‘tkazishga doir vakolatlari mustahkamlangan. Uning 8-moddasiga asosan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadi. Ushbu normalar profilaktika xizmatlari-

ning odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010-yil 29-sentabr qonunining 10-moddasida voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalg qila-yotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g‘ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan ota-onalarni yoki ota-onan o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash vazifasi belgilangan. Mazkur qonunga asosan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga yordam ko‘rsatadi, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar, jumladan, profilaktika xizmatlari bilan hamkorlik qiladi.

Uchinchi guruhi huquqiy asoslar sifatida jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladigan qonunlarning ijrosini ta’minlash, bu sohada faoliyat olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, huquqbazarlik, uning sabablari va unga imkon beruvchi omillarning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni asosida bugun huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirayotgan profilaktika xizmatlari tizimi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu farmonda jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyat va huquqbazarliklarning har qanday ko‘rinishlari, davlat, jamiyat, xalq uchun xavf tug‘diradigan zo‘ravonliklarning oldini olish, fosh etishda ichki ishlar idoralarining aholi bilan hamkorligini yaxshilash, shuningdek militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish, «Mahalla posboni»

jamoatchilik tuzilmasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoatchilik bilan faoliyatini yaxshilashda bevosita ishtirok etishi va amaliy hamkorlik qilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2004-yil 19-iyul farmonida mamlakatimizda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning funksional-tashkiliy tuzilishini yaxshilash, mamlakatda jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlash borasidagi profilaktik ishlar samaradorligini oshirishga imkon berганини, бироқ ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, sud-huquq sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning chuqurlashuvni, shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid solishga qaratilgan diniy ekstremizm va narkotiklar tajovuzining o‘sishi ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirishni talab etgani ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining, xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarning yoshlar ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2004-yil 25-may farmoni asosida 2004-yil 1-iyuldan boshlab fuqarolar yig‘inlari kengashlari apparatining tuzilmasiga tarbiyachi-pedagog lavozimi o‘rniga hududida kamida 500 ta oila yashaydigan mahallalarda, tarkibida mahallalar tashkil qilinmagan posyolka, qishloq va ovullarda diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlari joriy etildi. Bugungi kunda miliitsiya tayanch punktlari negizida profilaktika (katta) inspektorlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar bilan o‘zaro hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan.

To‘rtinchı guruhgä O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligidagi qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini belgilab beruvchi quyidagi qarorlarini keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel-dagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash konsepsiysi to‘g‘risida» va 2001-yil 6-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi IIVda jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha profilaktika xizmatining

rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarorlarida jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olishda mavjud tajribalardan kelib chiqqan holda, mahalla fuqarolar yig‘inlari tarkibida, profilaktika (katta) inspektorlari bilan joylarda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar o‘rtasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, yoshlar bandligi, kichik biznes, sport to‘garaklarini hamkorlikda tashkil etish zarurligi belgilangan. Shuningdek, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ichki ishlar organlari, jumladan, profilaktika xizmatlarining asosiy vazifasi etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Militsiya tayanch punktlari va ijtimoiy moslashuv markazlari infratuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2002-yil 16-may 162сонли qaroriga asosan militsiya tayanch punktlarining atrofida sport maydonchalari va fan to‘garaklarining, kichik biznes shoxobchalarining tashkil etilganligi, yoshlarga shart-sharoitlar yaratilishi, ularning bandligi ta’milanishi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda qo‘yilgan muhim omil bo‘ldi. Ushbu qaror asosida profilaktika xizmatlari yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etishda bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni ijrosini ta’minalash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi 299-sonli qaroriga asosan fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar lavozimlari joriy etilib, ularni eng obro‘-e’tiborli hamda shu sohada amaliy tajribaga ega, aholiga, birinchi navbatda, yoshlarga sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, eng yaxshi milliy-diniy an‘ana va urf-odatlarni saqlash hamda rivojlantirish masalalarida samarali ta’sir ko‘rsatishga qodir faol ayollar bilan to‘ldirish nazarda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 7-oktabr 274-sonli qarori bilan tasdiqlangan fuqarolar yig‘inining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomga muvofiq o‘z faoliyatini yuritmoqda.

Beshinchi guruh huquqiy asoslar sifatida O‘zbekiston Respublikasi IIVning normativ-huquqiy hujjatlari keltirish mumkin. Masalan, 2002-yil

22-martdagи «Militsiya tayanch punktida ichki ishlar idoralari xodimlari va va jamoat tuzilmalari vakillarining hamkorligi faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha «Uslubiy qo‘llanma»ni tasdiqlash haqida»gi hamda 2014-yil 1-sentabrdagi «Huquqbazarliklar profilaktikasini ta’minlash, profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi buyrug‘i bugungi kunda profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjatlar bugungi kunda yetarli darajada ishlab chiqilgan va amaliy organlar ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini ifodalovchi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlangan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan qonunlar hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bevosita profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalarini belgilab beradi hamda ushbu sohadagi hamkorlikni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

2-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamkorligining ahamiyati, maqsadi va shakllari

Ma’lumki, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish, shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati va mol mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishda markaziy militsiya tayanch punktlarining o‘rni muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, ularning xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlarining quyi tizimi hisoblangan ya’ni, militsiya tayanch punktlarida xizmat faoliyatini olib boruvchi profilaktika inspektorlarining xalqqa yaqinligi va ular doimiy ravishda odamlar orasida bo‘lishi huquqbazarliklarning oldini olishda o‘z samarasini bermoqda.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari o‘z faoliyatini bevosita militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda amalga oshirmoqda. Chunki, aholining asosiy qismi mahallada yashaydi. Mahallada hamma bir-birini taniydi, begona va niyati buzuq kimsalarning bor-yo‘qligini ham shu mahalla ahli yaxshi biladi.

Militsiya tayanch punkti mahalla hududida xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlari, jamoat tuzilmalari vakillari uchun asosiy tayanch punkt hisoblanadi. Profilaktika inspektorlarining ular bilan uzluksiz ravishda hamkorlik qilib borishi militsiya tayanch punktlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga xizmat qiladi.

Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliginı oldini olish faoliyatini tashkil etish jarayonida militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, profilaktika (katta) inspektori MTP negizida ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlariga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari vakillari, korxona, muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishlari uchun zarur yordamni ko'rsatadi.

Ma'muriy hududda ayollar jinoyatchiliginı oldini olish bilan birgalikda bevosita ayollar jinoyatchiliginı kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omil sifatida spirtli ichimlikka va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'ygan ayollarni o'z vaqtida aniqlash va tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirishlari lozim. Huquqbazarlik sodir etgan shaxslarning tuzalishini ta'minlash va qayta huquqbazarlik sodir etishining oldini olish maqsadida profilaktika xizmati xodimlari ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorlikda tegishli tadbirlarni olib boriladi.

Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda boshqa ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorligining ahamiyati birinchidan, ayollar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ikkinchidan ayollarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, uchinchidan alkogolizm va giyohvandlikka ruju qo'ygan, ilgari sudlangan huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan ayollarni aniqlash va ular bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni kuchaytirish, to'rtinchidan jamiyatga nisbatan salbiy xulq-atvorli ayollar bilan profilaktik ishlarni olib borishda namoyon bo'ladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan ma'muriy nazorat qonuni ta'siriga tushuvchi ayollarni profilaktik hisobga olish tahlilini kuzatadigan bo'lsak, 2015-yilda 2014-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 6,7 foizga kamayishga erishilganligini ko'rish mumkin. Shundan, 18-30 yoshgacha bo'lgan ayollar 7,8 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2015-yilda 2014-yilga nisbatan profilaktik hisobdan chiqarilgan ilgari sudlangan ayollar 33,0 foizni tashkil etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamkorligini samarali tashkil etilishi natijasida ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash kerakki, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni profilaktika (katta) inspektori jazoni o'tash joylaridan ozod qilinganda ularga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha hokimliklar huzuridagi maxsus komissiya qarori, shuningdek ichki ishlar organi huquqbazarliklarni oldini olish xizmati tomonidan ishlab chiqilgan maxsus topshiriq, rejalar va boshqa boshqaruv qarorlari asosida hududiy ichki ishlar organining sohaviy xizmatlari va fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikdagi ishlarni amalga oshiradi.

Profilaktika inspektori va xizmatga jalb etilgan ichki ishlar organlarining boshqa xizmat xodimlari bilan ayollar jinoyatchiliginu oldini olishda eng avvalo ma'muriy hududdagi operativ vaziyatni, aholi tarkibini chuqur va har tomonlama o'rganishi, profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi va xulq-atvorini, hududning xususiyatlari, transport vositalarining harakatini, dam olish va ko'ngilochar maskanlarni, diniy va ommaviy marosimlar o'tkaziladigan joylarni, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaring tovar-moddiy boyliklari saqlanadigan omborlarini, g'aznalarning joylashishi, texnik jihatdan himoyalanganligi va qo'riqlanish tartibini va mazkur hududni ta'riflovchi boshqa barcha ma'lumotlarni bilishlari zarur.

Hamkorlikka kirishishda profilaktika katta inspektori xizmatga jalb qilingan xodimlarga ishning mohiyatini tushuntiradi, xizmat hududidagi tezkor vaziyatning xususiyatlari, ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan shaxslarning yashash joylari, qidiruvda bo'lgan jinoyatchilar va bedarak yo'qolgan shaxslarning belgilari, ichki ishlar organlarini qiziqtiruvchi barcha shaxslar va ma'lumotlar to'g'risida, o'g'irlangan narsalar va ularni sotish yoki o'tkazish mumkin bo'lgan joylar, shuningdek chet el fuqarolari kelishi va joylashishi, turli jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimoli ko'proq bo'lgan joylar va vaqt haqida aniq ma'lumot berib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Xizmat davomida har bir xodim militsiya tayanch punkti bilan aloqa vositalari orqali doimiy ravishda aloqada bo'lib turadi.

Ichki ishlar organlarining militsiya tayanch punkti negizida ayollar jinoyatchiliginu oldini olishda profilaktika inspektorlari bilan ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari hamkorlikka jalb etilgan xodimlarga

hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari haqidagi vazifalarini belgilab beradi.

Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligin oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi jarayonida ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkil etadi.

Profilaktika xizmatlarining ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan aholi o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish borasida targ‘ibot-tashviqot o‘tkazish faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2015-yil davomida mahallarda 30563 marotaba, korxona va tashkilotlarda 8894 marotaba, ta’lim muassasalarida 16694 marotaba, televide niye orqali 245 marotaba, radio orqali 853 marotaba, ro‘znomalar orqali 534 marotaba huquqiy targ‘ibot o‘tkazilganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu ko‘rsatkichni 2014-yilga nisbatan tahlil qiladigan bo‘lsak, 2015-yil davomida 2,8 foizga ushbu ko‘rsatkichning oshganligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, profilaktika xizmatlari ayollar jinoyatchiligin oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi doirasida quyidagi ishlarni olib boradi:

- ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;
- keng jamoatchilik o‘rtasida turli mavzularda suhbatlar o‘tkazish;
- fuqarolarni jamiyatda o‘rnatalgan qoidalarga riosa etish hamda ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash;
- shaxsda endi shakllanayotgan va rivojlanayotgan g‘ayriijtimoiy salbiy xulq-atvorni to‘xtatish, zararsizlantirish;
- sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish;
- fuqarolarning huquqiy ongi huquqiy va madaniyatini yuksaltirish;
- ommaviy axborot vositalari orqali ayollar jinoyatchiligin oldini olishga qaratilgan mavzularda chiqishlar qilish;
- aholi o‘rtasida odam savdosi, giyohvandlik va psixotrop moddalar savdosida ayollar ularshining ko‘pligi hamda axloq-odob doirasidagi

huquqbuzarliklarning kelib chiqishida ayollarning hissasi katta ekanligini fuqarolarga yetkazish;

– diniy-ekstremistik oqimlar ta’siriga tushib qolgan ayollar haqidagi ma’lumotlarni yetkazish va h.k.

Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchilagini oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi:

– qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini milliy qadriyatlarimizga tayangan holda keng targ‘ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

– qizlar hamda yoshlarning ma’naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;

– qizlarning sog‘lig‘ini saqlash, sog‘lom oilani shakllantirish, qizlar sportini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan davlat dasturlari ijrosini ta’minlashda ishtirok etish;

– qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

– oila quradigan yoshlarning oila, jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyatini anglab yetishlari, «mustahkam oila» g‘oyasining amaliy ifodasini ta’minlash maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

– voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularni vujudga keltiradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga ko‘maklashish;

– «Oila – mahalla – ta’lim muassasasi» hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuining amalga oshirilishiga ko‘maklashish;

– oilalarga voyaga yetmaganlarning ma’naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etishda, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ko‘maklashish;

– qizlarni ish bilan ta’minlashda, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash, hunar o‘rganish, kasanachilik bilan shug‘ullanish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarning ijrosini amalga oshirishda ko‘maklashish;

– mahallada, oilalarda va yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar (xotin-qizlar o‘rtasida turli jinoyatlar, o‘z joniga qasd qilish, fohishabozlik, giyohvandlik, voyaga yet-

magan qizlarni erta turmushga berish kabilar) yuzaga kelishining oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan qizlar hamda ixtisos-lashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetma-ganlarni ishga joylashtirish, ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishida ko‘maklashish;

– xorijga chiqib ketayotgan va xorijdan kelayotgan qizlar hisobini olib borish, ularning oilalari ahvoldidan xabardor bo‘lib turish, xorijda ish-lab kelgan qizlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari va ishga joylashishlariga ko‘maklashish;

– ichki ishlar organlari hisobida turuvchi qizlar bilan ishslashda ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari bilan hamkorlikda ish olib borish;

– namunali oilalar, ularda farzand tarbiyasi, oila a’zolari o‘rtasidagi ibratli munosabatlarni ommalashtirish;

– qizlarda milliy qadriyatlarimiz va ibratli an’analaramizga sadoqatni shakllantirish, ular o‘rtasida targ‘ib qilish va ijobiy tajribalarni omma-lashtirish.

Militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar organlari har bir sohaviy xizmati xodimining boshqa xizmatlar xodimlari bilan o‘zaro hamkorligi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bu ushbu xodimlarga yuklatilgan vazifalar ko‘lamidan kelib chiqadi.

Militsiya tayanch punkti negizida profilaktika (katta) inspektorlari-ning ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari bilan ayollar jinoyatchiliginı oldini olishda hamkorlik o‘zining usul va shakllari-dan kelib chiqib amalga oshiriladi. Militsiya tayanch punktlari negizida ham ichki, ham tashqi hamkorlikni samarali tashkil etish ko‘p jihatdan profilaktika (katta) inspektorlariga bog‘liq. Qolaversa, ma’muriy hududda jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchi-likka qarshi kurashga kompleks yondashish prinsipidan kelib chiqib ham-korlikni yo‘lga qo‘yish profilaktika inspektorining butun faoliyatini qamrab oladi. Shu bois «profilaktika inspektori» atamasini «hamkorlik tashkilotchisi» atamasi bilan ma’nodosh deb hisoblash mumkin¹.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan, ixtisosligidan qat’iy nazar, barcha soha xodimlari o‘z ishini mahalladan,

¹ Организация работы участковых инспекторов милиции / Под ред. Ф. Е. Колонтоевского. – М., 1992. – С. 81; Организация деятельности участко-вых уполномоченных милиции. – Екатеринбург, 2002. – С. 7.

profilaktika (katta) inspektorlari bilan hamkorlik qilishdan boshlashi, unga tayanishi lozim. Chunki aholining asosiy qismi mahallada yashaydi. Mahallada hamma bir-birini taniydi, begona va niyati buzuq kimsalarning bor-yo‘qligini ham shu mahalla ahli yaxshi biladi¹.

Profilaktika inspektori va xizmatga jalg etilgan ichki ishlar organlarning boshqa xizmat xodimlari o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun hududdagi operativ vaziyatni, aholi tarkibini chuqur va har tomonlama o‘rganishi, profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi va xulq-atvorini, hududning xususiyatlarni, transport vositalarining harakatini, dam olish va ko‘ngilochar maskanlarni, diniy va ommaviy marosimlar o‘tkaziladigan joylarni, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining tovar-moddiy boyliklari saqlanadigan omborlarini, g‘aznalarning joylashishi, texnik jihatdan himoyalanganligi va qo‘riqlanish tartibini va mazkur hududni ta’riflovchi boshqa barcha ma’lumotlarni bilishlari zarur.

Hamkorlikka kirishishda profilaktika katta inspektori xizmatga jalg qilingan xodimlarga ishning mohiyatini tushuntiradi, xizmat hududidagi tezkor vaziyatning xususiyatlari, ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan shaxslarning yashash joylari, qidiruvda bo‘lgan jinoyatchilar va bedarak yo‘qolgan shaxslarning belgilari, ichki ishlar organlarini qiziqtiruvchi barcha shaxslar va ma’lumotlar to‘g‘risida, o‘g‘irlangan narsalar va ularni sotish yoki o‘tkazish mumkin bo‘lgan joylar, shuningdek chet el fuqarolari kelishi va joylashishi, turli jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilishi ehtimoli ko‘proq bo‘lgan joylar va vaqt haqida aniq ma’lumot berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Xizmat davomida har bir xodim militsiya tayanch punkti bilan aloqa vositalari orqali doimiy ravishda aloqada bo‘lib turadi.

Profilaktika inspektori ichki ishlar organlarining sohaviy xizmati xodimlari bilan ayollar jinoyatchiliginu oldini olishda uzluksiz aloqada bo‘lib, tezkor vaziyat haqida muntazam ravishda o‘zaro axborot almashuvi va amaliy hamkorlikni o‘zaro almashib boradi.

O‘zaro axborot almashuvi jarayonida ma’muriy hududda profilaktika inspektori xizmat ko‘rsatish hududidagi tezkor-kriminogen va ijtimoiy siyosiy vaziyat to‘g‘risida jamoatchilik vakillari va aholining ruhiy holati bo‘yicha muntazam ravishda hamkorlikka jalg etilgan xodimlarga axborot berib turadi. Shuningdek, o‘zaro amaliy hamkorlik jarayonida hamkorlikka jalg etilgan xodimlar bilan birgalikda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan

¹ Тошкент шаҳар ИИББ Профилактика инспекторлари хизмат фаолиятини такомиллаштириш ва ҳуқуқий билимини ошириш юзасидан услубий қўлланма. – Т., 2002. – Б.7.

shaxslar, ularning yaqin va jinoiy aloqalarini, sodir etilib ochilmay qolgan jinoyatlar, yashash joylaridan noma'lum sabablarga ko'ra uzoq muddatlarga chiqib ketgan ayollarning qayerga va nima sababdan ketganiga doir ma'lumotlarni toplash hamda hamkorlikda tekshiradi.

O'zaro axborot almashish hamkorlikning eng ko'p tarqalgan shaklidir. IIO xodimlari aynan axborotni yig'ish, tahlil qilish va uni almashish asosida ishlab chiqqan xulosaga ko'ra huquqbuzar yoki huquqbuzarlikka moyil bo'lgan shaxslar bilan munosabatda bo'lishi, ularning taqdirlarini belgilashi bois ayrim olimlar axborot olish va unga ishlov berishni IIO faoliyatining asosiy texnologiyalaridan biri deya ta'kidlaydilar¹.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rov jarayonida militsiya tayanch punktlari negizidagi hamkorlik shakllarining qaysi biri samarali ekanligini bilish maqsadida respondentlarga tegishli savol bilan murojaat etilganida, ularning 53,6 foizi muayyan ishni bирgalikda rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilishni, 31,3 foizi bирgalikdagi reyd, qo'shma tadbir o'tkazishni, 21,2 foizi o'zaro axborot almashishni, 17,4 foizi muayyan vazifalarni hal qilishda o'zaro yordam berish va qo'llab-quvvatlashni samaraliroq deb hisoblashi ma'lum bo'ldi².

Militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar idoralari sohaviy xizmatlari xodimlarining o'zaro va ularning jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini samarali tashkil etish, *birinchidan*, ushbu hamkorlikni huquqiy tartibga solinganligiga; *ikkinchidan*, o'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, usul va shakllarining, kuch va vositalarning aniq belgilab olinganligi, shuningdek hamkorlikning funksional vakolatlar doirasi bilan aniq chegaralanganiga; *uchinchidan*, hamkorlikning muhim sharti bo'lgan axborot muhitining yaratilganligiga; *to'rtinchidan*, hamkorlikning bирgalikda rejalashtirilishi, rejalarining amaldagi ijrosi samarali ta'minlanishi va ish natijalarining bирgalikda tahlil qilib borilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir³.

Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorligini samarali tashkil etilishi natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga erishish mumkin.

¹ Криминология / Под ред. Дж. Ф. Шели; Пер. с анг. – СПб., 2003. – С. 465.

² Икрамов Ш.Т., Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктлари негизида ички ишлар органлари соҳавий хизматлари ўртасида ҳамкорликни ташкил этиш ва бошқариш: Ўқув-методик қўлланма. – Т., 2013. – Б.11.

³ O'sha joyda.

3-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining hamkorligini tashkil etish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini bartaraf etishdagi o‘zaro hamkorlik – ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlariga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullari, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini o‘zaro kelishib bajarishadi. Hamkorlikni tashkil qilish ishlar idoralari tizimidagi mehnat taqsimoti, tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida vazifalar va majburiyatlarning taqsimlanishi kabi masalalarni qamrab olgan maqsadning vujudga kelishi sifatida ham qarash mumkin. O‘zaro hamkorlikning maqsadi boshqaruv tizimi oldida turgan umumiy vazifalarini hal etishda kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlashni anglatadi¹.

Ayrim yuridik manbalarda ichki ishlar idoralarining boshqa subyektlar bilar hamkorlikni shartli ravishda quyidagi to‘rt yo‘nalishga: a) ichki idoraviy hamkorlik; b) idoralararo hamkorlik; d) jamoatchilik bilan hamkorlik; e) xalqaro hamkorlikka ajratadi².

Profilaktika xizmatlarining ayollar jinoyatchiligini oldini olishda asosan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan quyidagi hamkorlikda olib boradi:

- jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati xodimlari;
- tergovchi;
- patrul-post xizmati naryadlari va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari xodimlari;
- odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarning oldini olish xizmati xodimlari;
- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi inspektorlari;
- ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati (jazoni ijro etish inspeksiyalari) xodimlari;

¹ Зарипов З. С. Профилактическая функция следственных подразделений органов внутренних дел. – Т., 1980. – С. 57.

² Исмаилов И. Терроризмга қарши кураш // Конун ҳимоясида. – 2004. – № 7. – Б.30–31.

– xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xodimlari.

Profilaktika inspektorining jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmati xodimi bilan hamkorligi. JQ va UJQKX xodimi miliitsiya tayanch punktining tarkibiga kiruvchi subyektlardan biri bo‘lib, u ushbu maskanda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari, xususan profilaktika inspektorlari va jamoat tuzilmalari vakillari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Miliitsiya tayanch punkti negizida profilaktika inspektorining JQ va UJQKX xodimlari bilan ayollar jinoyatchiliginu oldini olishda hamkorligining asosiy yo‘nalishlari: *birinchidan*, odam savdosi, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi, terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergen sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; *ikkinchidan*, surishtiruv organlari, sud va tergovidan yashiringan shaxslarni, bedarak yo‘qolganlar qidiruvi hamda shaxsi noma’lum murdalarni aniqlash; *uchinchidan*, hududda sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan, tez va sifatli ochish, o‘tgan yillarda sodir etilib, ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etish, shuningdek boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlashda o‘z aksini topadi.

Shuni ta’kidlash joizki, profilaktika inspektori miliitsiya tayanch punkti negizida JQ va UJQKXning ham sohaviy yo‘nalishlar bo‘yicha, ham ma’muriy hududga biriktirilgan xodimlari bilan hamkorlik qiladi.

Miliitsiya tayanch punkti negizida profilaktika inspektori JQ va UJQKX xodimlari bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– miliitsiya tayanch punktida hisobda turgan o‘ta xavfli retsidivistlar, muqaddam sudlanganlar va ma’muriy nazoratda bo‘lgan shaxslarning ro‘yxatini yuritib, bu borada ushbu shaxslarning turmush tarzi, hayotiy sharoitlari, yurish-turishlari bo‘yicha JQ va UJQKX xodimlari bilan o‘zarot axborot almashib boradi;

– jinoyat sodir etishga moyil ayollar, ularning aloqalari, shuningdek kutilayotgan jinoyatlar to‘g‘risida muntazam ravishda axborot almashib, ularning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko‘radi;

– xizmat hududida diniy-ekstremistik oqim tarafdarlari, ayniqsa, ushbu oqim ta’siriga tushib qolgan yosh qizlar va ayollarni aniqlash maqsadida mahalla faollari, korxona, tashkilot va muassasalarining rahbarlari, din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, maktablarning ma’muriyatlari bilan muntazam ravishda fikr almashib, aniqlangan holatlar yuzasidan JQ va UJQKX xodimlariga xabar beradi;

– JQ va UJQKX xodimining tashabbusi bilan militsiya tayanch punktida ma'muriy hududdagi qidiruvdagilar, bedarak yo'qolganlar, o'tgan yillarda sodir etilib ochilmagan jinoyatlar bo'yicha ish tashkil qilinganida u bilan hamkorlikda ish olib boradi va zarur amaliy yordam ko'rsatadi;

– xizmat ko'rsatish hududidagi tezkor-kriminogen va ijtimoiy-siyosiy vaziyat to'g'risida, jamoatchilik vakillari va aholining ruhiy holati bo'yicha tezkor-qidiruv xizmati xodimlariga muntazam ravishda xabar berib turadi;

– hududda noqonuniy faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar, masjidlar hamda diniy-ekstremistik tashviqot yurituvchi, missionerlik harakatlarini amalga oshiruvchi fuqarolarni aniqlash choralarini ko'radi, tezkor-profilaktik tadbirlar, reydlar o'tkazadi;

– ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa muammolar hamda masalalarni sabab qilib fuqarolarni ommaviy chiqishlarga da'vat qilishi, shuningdek terrorchilik-qo'poruvchilik harakatlarini sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar va jinoiy guruhlarni aniqlash hamda zararsizlantirish maqsadida JQ va UJQKX xodimlari bilan birgalikda barcha bayram tadbirlari o'tkaziladigan, fuqarolar ommaviy to'planadigan joylarda tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi;

– hududda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, sodir etilganlarini aniqlash va aybdorlarga tegishli choralar ko'rish maqsadida tezkor-profilaktik tadbirlar va reydlar o'tkazadi. Bunday jinoyatlarni fosh etishda asosiy e'tibor muqaddam sudlangan, ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan va jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga qaratiladi;

– hududda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etayotgan jinoiy guruh, jinoiy uyushma a'zolarini hamda axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxslarni aniqlash va ularning noqonuniy faoliyatiga chek qo'yish maqsadida, JQ va UJQKX xodimlari bilan hamkorlikda doimiy ravishda keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi;

– yashash joylaridan noma'lum sabablarga ko'ra uzoq muddatlarga chiqib ketgan ayollarning qayerga va nima sababdan ketganiga doir ma'lumotlarni JQ va UJQKX xodimlari bilan hamkorlikda toplash hamda tekshirish choralarini ko'radi, ular bo'yicha ma'lumotlarning ichki ishlar organlari ning «Uzoq muddat» ma'lumotlar bazasiga to'liq kiritilishini ta'minlaydi;

– tezkor-qidiruv xizmati xodimi tomonidan o'tkaziladigan surishtiruv, tergov, suddan va jazoni o'tashdan bo'yin tovlab yashirinib yurgan shaxslarning qidiruvini amalga oshirish va ularni qo'lga olish tadbirlarida profilaktika inspektori ishtirok etadi va kerakli ma'lumotlar almashinuvini amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorining tergovchilar bilan hamkorligi. Militsiya tayanch punkti ichki ishlar organlari tergovchilarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishiga xizmat qiluvchi asosiy tayanch maskani hisoblanadi.

Militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorlari bilan tergovchilar o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari: *birinchidan*, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izi»dan ochishga xizmat qiluvchi dastlabki harakatlar va boshqa protsessual tadbirlarni amalga oshirish; *ikkinchidan*, ochilmay qolgan jinoyatlar bo‘yicha hamkorlikdagi ishlarni tashkil etish; *uchinchidan*, birgalikdagi jinoyatlarning oldini olish va aholining huquqiy madaniyatini oshirib borish bo‘yicha ish olib borish, *to‘rtinchidan*, uy qamog‘i va boshqa tegishli ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan shaxslarning o‘rnatilgan talablarga rioya etishlarini nazorat qilishda o‘z aksini topadi.

Profilaktika inspektorlarining tergovchilar bilan ushbu yo‘nalishdagi hamkorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- muayyan hududda sodir etilib, ochilmay qolgan jinoyatlarni ochish bo‘yicha militsiya tayanch punktiga borib, shu yerda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda ishni tashkil qiladi;

- ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergen sharoitlarni aniqlaydi, ularni o‘rganib, shunday jinoyatlar qayta sodir etilishining oldini olish choralarini ko‘radi, shu maqsadda hududdagi davlat organlari, jamoat tuzilmalari, korxona, muassasa va tashkilotlarga tegishli mazmundagi taqdimnomalar kiritish masalalarida hamkorlikda ish olib boradi;

- tergovchining alohida topshirig‘i asosida profilaktik hisobda turgan shaxslarni sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini tekshirish;

- muqaddam jinoyat sodir etib, militsiya tayanch punktida profilaktik hisobda turuvchi muqaddam sudlangan shaxslar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash;

- muqaddam sudlanganlar va jinoyatga moyil shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish;

- ayblanuvchi shaxni IIBga majburiy ravishda keltirish;

- jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish zaruriy ma’lumotlarni almashish;

- ular birgalikda jinoyatlarning oldini olish va aholining huquqiy madaniyatini oshirib borish maqsadida, huquqiy targ‘ibot ishlarni amalga oshiradilar, jumladan ma’muriy hududdagi ta’lim muassasalari, uy-joy shirkatlari, korxona va tashkilotlarda uchrashuv, suhbatlar tashkil etib, dolzarb

mavzularda ma’ruzalar o‘qiydilar, qonunlar tizimidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida aholini xabardor qilib boradilar.

Profilaktika (katta) inspektorlari tergov xizmati bilan o‘zaro hamkorlik davomida ma’muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izidan» ochishda dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirish bo‘yicha kerakli chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi. Profilaktika inspektorlari tezkor-tergov guruhi yetib kelgunga qadar sodir etilgan jinoyat izlarini saqlaydi, u yerdagi daliliy ashyolar yo‘qolishining oldini oladi hamda jinoyatchi va jinoyat shohidlaridan jinoyat haqidagi ma’lumotlarni to‘playdi va tergov guruhiga taqdim etadi.

Profilaktika inspektorining patrul-post xizmati naryadlari va jamoat tartibini saqlash bo‘linmali xodimlari bilan hamkorligi. Patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmati tarkibiga kiruvchi tuman, shahar ichki ishlar organlari JTSB xodimlari hudud profilaktika inspektorlari bilan uzviy hamkorlikda ish olib boradilar. Ushbu hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari: *birinchidan*, ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar, tezkor vaziyatning tahlilini olib borish, patrul-post naryadlarini postlar va patrullik yo‘nalishlariga joylashtirish dislokatsiyasini ishlab chiqish, shuningdek tuman, shahar hududida joriy sutkada xizmatni tashkil etish bo‘yicha qaror loyihasiga takliflar kiritish va uni tayyorlash; *ikkinchidan*, o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibi saqlanishini ta’minlash; *uchinchidan*, nazorat-litsenziya tizimi qoidalariga rioya etilishini tekshirib, nazorat qilib borishda o‘z aksini topadi.

Militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorining JTSB xodimlari bilan hamkorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– profilaktika inspektori xizmat olib borayotgan hududdagi tezkor vaziyatni tahlil qilib, jamoat tartibini saqlash bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi) xodimlariga patrul-post naryadlarini postlar va patrullik yo‘nalishlariga joylashtirish dislokatsiyasi hamda tuman, shahar hududida joriy sutkada xizmatni tashkil etish bo‘yicha qaror loyihasini tayyorlashda inobatga olish uchun tegishli takliflar kiritadi;

– militsiya tayanch punktiga biriktirilgan PPX naryadlarining post va patrullik yo‘nalishlarini ma’muriy hudud xaritasiga asosan belgilashda, patrul-post naryadlarining kuch va vositalaridan jamoat tartibini saqlashda samarali foydalanish borasida jamoat tartibini saqlash bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi) inspektori bilan doimiy ravishda o‘zaro axborot almashib boradi;

– xizmat hududidagi narkotik moddalar, shahvoniy ruhdagi materiallarni tarqatuvchilar, o‘g‘irlangan mollarni olib sotuvchilar, fohishalik bilan shug‘ullanuvchilar, valuta operatsiyasi, reket, daydilik, tilanchilik bilan

shug‘ullanuvchi shaxslarni aniqlash maqsadida mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, bozorlar, kinoteatrlar, parklar, videosalonlar, yotoqxonalar, shohbekatlar, aeroportlar, vokzallar va jinoiy unsurlar to‘planadigan boshqa joylarni tekshiradi hamda aniqlangan zarur ma’lumotlarni jamoat tartibini saqlash bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi) inspektoriga taqdim etadi;

– surunkali ravishda jamoat tartibini buzuvchi yoki spirtli ichimliklarni iste’mol qiluvchi, oilasi notinch bo‘lgan, giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan ayollarni nazorat qiladi;

– huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va cheklash, o‘z vakolatlari doirasida profilaktik tadbirlar o‘tkazish;

– yo‘nalishda xizmat olib borish jarayonida fuqarolarga tushuntirish ishlarini olib borish.

Militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika inspektorining odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarning oldini olish xizmati xodimlari bilan hamkorligi. Mazkur hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari: *birinchidan*, odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish; *ikkinchidan*, odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarni sodir etayotgan shaxslarni aniqlash, ularning qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishini ta’minlash, jumladan shunday huquqbazarliklar bilan bog‘liq ishlar va materiallarni ko‘rib chiqish va ushbu jarayonda ishtirok etish; *uchinchidan*, odam savdosidan jabrlanganlarni belgilangan tartibda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda o‘z aksini topadi.

Odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarning oldini olish bo‘lim (bo‘linma, guruh)lari inspektorlarining ayollar jinoyatchilagini oldini olish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarni oldini olish xizmati xodimi o‘ziga biriktirilgan hududni ta’riflovchi, militsiya tayanch punktlari profilaktika inspektorlarida mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarni oladi va o‘rganib chiqadi, tahlil qiladi va xizmat faoliyatida foydalanadi;

– maxsus, aniq maqsadli va keng qamrovli tadbirlar jarayonida odamlardan foydalanish uchun ularni yollash bilan bog‘liq va axloq-odob doirasi-dagi huquqbazarliklarning oldini olish xizmati xodimlari tomonidan aniqlangan «xavfli guruh»ga mansub shaxslarga nisbatan to‘plangan birlamchi hujjatlar tegishli asoslar mavjud bo‘lgan hollarda ularni ichki ishlar organlari hisobiga olib ushbu hujjatlar asosida profilaktik ishlarni olib borish va

ularning keyingi xatti-harakatlarini nazorat qilib borish uchun uning doimiy istiqomat qiladigan hududiga xizmat ko‘rsatuvchi profilaktika inspektoriga taqdim etiladi;

– odam savdosi, jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi huquqbazarliklarni oldini olish xizmati xodimi hamkorlikda odam savdosi va axloq-odob doirasidagi huquqbazarlikni sodir etib ichki ishlar organi profilaktik hisobiga olin-gan shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

– hamkorlikda xizmat hududida fohishaxona saqlovchi yoki qo‘shma-chilik qiluvchi, fohishalik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan qonun bilan o‘rnatilgan tartibda javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

– birgalikda kriminogen va «xavfli guruh»ga mansub shaxslar ko‘proq to‘planadigan maskanlar, jumladan tungi ko‘ngilochar muassasalar, kafe va barlar, restoranlar va boshqa joylarda maxsus tadbirlar o‘tkazish, aniqlangan har bir qonun buzilishi holatlari bo‘yicha to‘plangan hujjatlarni tegishli organlarga yuborish;

– hammom va sauna, «massaj»xonalar, oromgoh, sanatoriy va profilaktoriy, dala hovli, mehmonxona hamda yotoqxonalar, o‘z uylarini ijaraga beruvchi shaxslarning faoliyatini qat’iy tartibda nazorat ostiga olish, ularda sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli noqonuniy xatti-harakatlar, shuningdek axloq-odob doirasidagi huquqbazarliklarni aniqlash yuzasidan maxsus tadbirlar o‘tkazib borish;

– hamkorlikda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, turli teri-tanosil va OITS kasallikkleri tarqalishining oldini olish, bu toifa kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlash va bu borada jamoatchilik ta’sirini oshirishga bag‘ishlangan profilaktik mazmundagi uchrashuvlar, bevosita muloqotlar va davra suhbatlarini o‘tkazadilar;

– hokimliklar huzuridagi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xizmatlari bilan hamkorlikda MDHga a’zo va xorijiy davlatlarga chiqib mehnat qilib kelishi haqida istak bildirayotgan fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdilar, ularning odam yollovchi, odam traffigi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ta’siri ostiga tushib qolmasliklariga qaratilgan maxsus tadbirlarni o‘tkazadilar, shunday toifa shaxslarning ro‘yxatlarini olib bora-dilar va ular bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazadilar;

– pornografiya, zo‘ravonlik, shafqatsizlik va vahshiylikni targ‘ib qiluvchi, shuningdek milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarning tarqatilishini oldini olish maqsadida, birgalikda videotasvir va audio ovoz yozish studiyalarining, video va audio mahsulotlari, xususan SD,

DVD disklari bilan savdo qiluvchi shoxobchalar, videotekalar, barcha turdagি ro‘znomalar, oynomalar, turli xil axborot tarqatuvchi mahsulotlar bilan savdo qiluvchi shoxobchalarning faoliyatini qat’iy nazorat ostiga oladilar;

– birgalikda odam savdosi qurbonlarini aniqlash, ularni belgilangan tartibda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish va boshq.

Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash bilan bog‘liq va axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati xodimi shtati bo‘limgan shahar, tuman IIBlarda ushbu yo‘nalishdagi vazifalar hududiy profilaktika inspektorlariga, hisobotlarni jamlash esa militsiya tayanch punkti profilaktika katta inspektorlariga yuklatiladi.

Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori bilan hamkorligi.

Militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika inspektori bilan VEO‘NHP inspektori o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari: *birinchidan*, voyaga yetmagan qizlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning, g‘ayriqonuniy qilmishlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabab-lari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf qilish; *ikkinchidan*, voyaga yetmagan qizlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi materiallarni ko‘rib chiqish va ushbu jarayonda ishtirok etish; *uchinchidan*, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlash hamda ular bilan yakka tartibda profilaktika ishlari olib borish; *to‘rtinchidan*, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi va huquqiy targ‘ibotni olib borishda o‘z aksini topadi.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda profilaktika inspektorlari bilan VEO‘NHP inspektorlarining hamkorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– profilaktika inspektorlari VEO‘NHP inspektorlari bilan hamkorlikda jamoatchilikning ko‘magiga tayangan holda bolalar qarovsizligi, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan umumiy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradilar;

– ma’muriy hududda turarjoylar va mehnat jamoalarida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoyalash, farzand tarbiyasi va kelajagi uchun ularning ota-onalari va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyatini oshirishga xizmat qiluvchi ma’ruzalar o‘qiydilar, mahalliy matbuotda maqolalar bilan chiqishlar qiladilar;

– hududda istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularning turli xil salbiy yo‘llarga kirib ketishi,

har xil oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida, ularni militsiya tayanch punktlari negizida tashkil etilgan fakultativ to'garaklarga jalg etadilar, ular orasida sport musobaqalarini tashkil qiladilar;

– birqalikda mahalliy davlat idoralari, tashkilotlar, voyaga yetmaganlar ishlaydigan yoki o'qiydigan joylar ma'muriyatları, ota-onalar va ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning ish joylariga voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining sodir etilish sabablari va ularga imkon bergen sharoitlarni tezlikda bartaraf qilish bo'yicha takliflar kiritadilar hamda ularning bajarilishini nazorat qiladilar;

– voyaga yetmaganlarning yashash, o'qish yoki ish joyidagi ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to'garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o'rganadilar hamda ularga amaliy yordam ko'rsatadilar;

– ichki ishlar organlari boshqa xizmatlari yordamiga tayangan holda voyaga yetmaganlarni jinoyat va jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarga jalg qilayotgan shaxslarni aniqlaydilar hamda ularga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko'radilar;

– farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar, ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni va voyaga yetmagan huquqbuzarlarni aniqlab, hisobga oladilar hamda ular bilan belgilangan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etadilar;

– huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadilar;

– voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydilar, shuningdek yetim bolalar hamda ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda vasiylilik va homiyilik organlariga ko'maklashadilar;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, shartli hukm qilingan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan, afv etilishi munosabati bilan jinoiy jazodan ozod qilingan, maxsus o'quv-tarbiya muassasalaridan kelgan o'smirlar bilan keng qamrovli tarbiyaviy ishlar olib boradilar;

– huquqbuzarlik, jumladan jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchi, uyi yoki o'quv muassasalaridan ruxsatsiz ketib qolgan,

qimor o‘yinlari bilan shug‘ullanadigan voyaga yetmaganlar bilan qonunga muvofiq belgilangan profilaktik ishlarni tashkil etadilar.

Profilaktika katta inspektori voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olishda VEO‘NHP inspektorlarining jamoat-chilik bilan doimiy hamkorlikda ishlashiga zarur sharoitlarni yaratib beradi.

Profilaktika inspektorining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmati xodimi bilan hamkorligi. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati tarkibidagi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmati xodimlari uchun militsiya tayanch punktlarida alohida xizmat xonalari ajratilmagan bo‘lsa-da, ular axloq tuzatish ishlari, muayyan huquq-dan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilingan ayollarni назорат qilish borasida o‘z faoliyatini hudud profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda tashkil etadilar.

Militsiya tayanch punkti negizida ushbu hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

birinchidan, hududda axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni назорат qilish, bunday toifadagi ayollarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish;

ikkinchidan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазо tayinlangan va shartli hukm qilingan ayollarning profilaktik hisobini yuritish, ularning takroran jinoyat sodir etishlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Militsiya tayanch punkti negizida profilaktika inspektori ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmati xodimi bilan hamkorlikda:

– ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmati xodimlaridan axloq tuzatish ishlari va muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar tayinlangan va shartli hukm qilingan mahkumlar haqidagi ma’lumotlarni oladi va ularga nisbatan profilaktik hisoblarni yuritadi hamda ular tomonidan qonun hujjatlarida o‘rnatilgan talablarga rioya etib borilishini назорат qilib, tegishli profilaktik ishlarni amalga oshiradi;

– shahar-tuman IIB HOOB ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmati xodimining bildirgisi asosida hisobda turgan shaxsni hudud pasportiga kiritadi hamda uning xulq-atvorini yashash va ish joyidan o‘rganib boradi hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha va boshqa ma’lumotlar to‘g‘risida har oyda bir marotaba ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган жазолар ижросини назорат qilish xizmatiga bildirgi orqali ma’lum qilib boradi;

– ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari bilan hamkorlikda mahkumning xulq-atvori va jazoning ijrosi ustidan nazorat olib boradi hamda ular bilan yakka tartibdagи profilaktik ishlarni amalga oshiradi;

– jazo muddati davomida mahkum tomonidan sud hukmi bilan yuklatilgan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘radi, zarur hollarda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini ta’minlash xizmati xodimlari bilan hamkorlikda mahkumga ishga joylashishda yordam beradi;

– jazo muddati tugashi munosabati bilan mahkumni profilaktik hisobdan chiqaradi va kelgusida u tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga doir profilaktik ishlarni amalga oshiradi;

– axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar tayinlangan va shartli hukm qilingan shaxslar tomonidan huquqbazarlik va boshqa g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etilganida, profilaktika inspektorlari ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari bilan hamkorlikda uni keltirib chiqargan sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganish hamda bartaraf qilish choralarini ko‘radi;

– mahkum tomonidan jazoni o‘tash tartibi va shartlari buzilgan taqdirda bu haqda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini ta’minlash xizmati xodimlariga xabar beradi va mahkumga nisbatan belgilangan tartibda qonuniy chora ko‘rilishini ta’minlaydi;

– shartli hukm qilingan shaxslar tomonidan sinov muddati davomida mahkumlar o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasalar yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun ularga ma’muriy yoki intizomiylariga ta’sir choralar qo‘llanilgan bo‘lsa, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari profilaktika inspektorlari bilan kelishgan holda jazoning shartliligini bekor qilish to‘g‘risida sudga taqdimnomaga kiritadi;

– axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan va shartli hukm qilingan shaxs jazoni o‘tashdan yashiringanida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari bilan birgalikda ushbu shaxsning yashirinish sabablari, yaqin aloqalari, borish ehtimoli mavjud bo‘lgan joylarni o‘rganadi hamda olingan ma’lumotlar asosida mahkumni qidirib topish, ular natija bermasa, zudlik bilan JQ va UJQKX xodimlari ishtirokida ushbu shaxslarga nisbatan qidiruv e’lon qilish choralarini ko‘radi.

Militsiya tayanch punkti negizida profilaktika inspektori XCHK va FRB xodimi bilan hamkorlikda:

- hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning passport tizimi qoidalari-ga rioya etishlarini ta'minlash;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston bo'lish qoidalari ga rioya etishlarini ta'minlash;
- uzoq muddatga boshqa davlatlarga chiqib ketgan O'zbekiston fuqarolarining hisobini yuritish;
- aholining fuqarolik bilan bog'liq qonun hujjatlari talablariga og'ishmay rioya etishlariga xizmat qiladigan huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish;
- pasportsiz yoki haqiqiy bo'limgan passport bilan qayd ettirmay yashaganlik uchun, pasportni ataylab yaroqsiz holga keltirganlik hamda pasportlardan g'arazli maqsadlarda foydalanuvchi ayollarni aniqlash;
- passport tizimi qoidalari ga rioya qilinishiga mas'ul bo'lgan shaxslar fuqarolarning pasportsiz yoki haqiqiy bo'limgan passport bilan, yoxud qayd etmay yashashiga yo'l qo'ygani uchun, shuningdek fuqarolar o'zlarini egallab turgan uy-joy binolarida pasportsiz shaxslarning qaydsiz yashashiga yo'l qo'yganini aniqlash;
- chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishi vaqtincha, cheklangan joylarga kirish yoki unda yashash qoidalari buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Shuningdek, profilaktika inspektori XCHK va FR xizmati xodimiga ma'muriy hududda joylashgan «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazi»ning manzili, ishga yollanish uchun fuqarolar to'planadigan joylar, ularning ro'yxatdan o'tmasdan yashashi mumkin bo'lgan manzillar to'g'risida ma'lumotlar beradi hamda zarur hollarda ular bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning passport-viza qoidalari ga rioya etishini ta'minlash borasida ma'muriy hududda hamkorlikda maxsus tadbirlar o'tkazish bo'yicha takliflar bilan chiqadi.

Zero, profilaktika xizmati jamiyatdagi, alohida ma'muriy hududdagi har bir jinoyatning sabab va sharoitlarini o'z vaqtida aniqlashi, ularni bar-taraf etish, kuchsizlantirish, ta'sirini yo'qotish hamda ularga to'siqlar qo'yish bo'yicha manfaatdor profilaktika subyektlari va o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim¹.

¹ Мухторов Ж.С. Ички ишлар идоралари профилактика хизматлари фаолиятининг ташкилий хукуқий асослари. –Т., 2008. – Б. 32.

VI BOB
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING AYOLLAR
JINOYATCHILIGI PROFILAKTIKASIDA JAMOAT
TUZILMALARI BILAN HAMKORLIGI

**1-§. Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida
jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tartibga soluvchi normativ-
huquqiy hujjatlarning tahlili va tasnifi**

Mustaqillik bizga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa sohalarda islohotlar olib borishni taqozo etdi. Mazkur islohotlar sud-huquq tizimini ham chetlab o’tmadi, albatta. Shu o’rinda aytish joizki, sud-huquq, xususan, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida islohotlarni olib borish jarayonida asosiy e’tibor huquqbazarliklar profilaktikasini yanada mustahkamlashga, uning mutlaq yangi milliy tizimini shakllantirishga qaratildi.

O’tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi va bugungi kunda yanada takomillashib bormoqda. Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash maqsadida, 700dan ortiq qonunlar va minglab qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilingani barobarida, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Ta’kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarliklar profilaktikasini ta’minalashda ichki ishlar organlari faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladigan huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha jarayon izchil davom etmoqda. Bugungi kunda ichki ishlar organlari har qanday yo‘nalishdagi faoliyatini hamkoriksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining ma’muriy hududda xizmat olib borayotgan sohaviy xizmatlarining oldida turgan asosiy va dolzarb vazifalardan biri ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uni uning oldini olishga qaratilgan dastlabki profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Umuman olganda, ayollar bilan ishslash ichki ishlar xodimlarida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazaridan jamiyatdagi har qanday xotin-qizlar bilan ishslashda ichki ishlar organlari birinchi galda ushbu toifa shaxslar bilan ishslashga, ularga tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llashga vakolatli va qobiliyatli bo‘lgan jamoatchilikka, aniqrog‘ini aytganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvoifiqdir. Har qanday faoliyatni huquqiy tartibga solish bugungi kundagi

dolzarb vazifalardan biri bo‘lgani kabi bugungi kunda ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha jamoa tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beruvchi qonun va qonunosti hujjatlar yaratilgan. Albatta, har bir faoliyatning huquqiy tartibga solinganligi, birinchi galda, ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikni tashkil etish tartibini mustahkamla, ikkinchidan, ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktika bo‘yicha jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab, ularning mas’uliyatini oshirishga hamda hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va uning oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beruvchi yagona huquqiy asos mavjud emas. Biroq, ichki ishlar organlari hamda jamoat tuzilmalari faoliyatini belgilab beruvchi alohida huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, ularni bir nechta guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh huquqiy asoslarga konstitutsiyaviy normalardir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari demokratik jamiyatdagi barcha munosabatlarni ijtimoiy adolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda tartibga solishning birlamchi asosiy manbai sifatida xizmat qilishi bilan har qanday huquqqa xilof qilmishning oldini olishni ta’minlaydi. Shuningdek, mamlakatimiz Konstitutsiyasining bir guruh qoidalari o‘z navbatida bevosa jinoyatchilikka qarshi kurash hamda profilaktik xususiyatiga ega bo‘lib, fuqarolarni har xil turdagiligi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishda va ularni jamiyatdagi umuminsoniy, axloqiy normalar asosida tarbiyalashda asosiy manba hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasida: «Qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin», degan qoida belgilangan bo‘lib, mazkur norma asosida ichki ishlar organlari ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va ularning huquqbuzarliklar profilaktika bo‘yicha faoliyatida jamoat tuzilmalari jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beradi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning ichki ishlar organlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etishga asos bo‘luvchi normalarini fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashni belgilovchi (19, 20, 21, 27, 31, 37, 43, 45, 64, 66-moddalar), ichki ishlar idoralari ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash va uning oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi

faoliyatini tashkil etish qoidalari va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi (13-14, 22-25, 29, 31, 35, 47-53, 55, 57, 63, 64, 121-moddalar) hamda ichki ishlar organlarining ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida o‘zлari rioya etishi ni talab qiluvchi normalarga (15, 18, 19, 27-31, 33, 35, 37, 44, 53, 58, 61, 65, 121-moddalar) bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ikkinchи guruh huquqiy asoslarga O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini keltirish mumkin. Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliги profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligiga doir aniq bir qonun yoki qonunosti hujjat bo‘lmasa-da, ayrim qonun hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu subyektlar hamkorligining alohida yo‘nalishlarini belgilab beruvchi normalar mavjud. Xususan, yosh xotin-qizlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorining jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ularga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoitlar yaratish hamda ularni kafolatlash maqsadida ichki ishlar organlari jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda-gi «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi qonun normalariga amal qiladi. Mazkur qonun asosida joylarda profilaktika xizmatlari va ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari jamoat tuzilmalari bilan, *birinchidan*, xotin-qizlarning huquqlarini muhofaza qilishda, *ikkinchidan*, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minalashda, *uchinchidan*, ularning ta’lim-tarbiya masalalariga oid chora-tadbirlarni amalga oshirisha, *to‘rtinchidan*, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda, *beshinchidan*, xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishda hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida keltirilgan shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlari, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, inson xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza etish, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash to‘g‘risidagi asosiy vazifalari ichki ishlar organlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikni amalga oshirish jarayonidagi vazifalariga muvofiq. Mazkur kodeksning Maxsus qismidagi barcha normalar jinoyatchilikka jumladan, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgandir. Ichki ishlar organlari jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda aholi, ayniqsa, ayollar o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish jarayonda Jinoyat kodeksining normalari va ularning mazmuni hamda sodir etilgan qonunga xilof xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlari, qo‘llaniladigan jazo choralarini to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borishlari,

birinchidan, aholining, jumladan ayollarning mazkur qonun normalari bo‘yicha bilimlarini oshirishga xizmat qilsa, *ikkinchidan*, ayollarning ushbu qonun normalariga amal qilishlari ularning jinoiy xatti-harakatdan o‘zini tiyishlariga olib keladi. Bundan tashqari, «ikki tomonlama oldini olish» normalari olimlar tomonidan e’tirof etilgan bo‘lib, mazkur turdag'i normalar (JK 109-m., 110-m. 1-q., 122-m., 140-m. 1-q., 216¹-m., 217-m., 226-m., 277-m. 1-q.) jinoyatlarni sodir etganlik uchun o‘z vaqtida javobgarlikka tortish, ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan boshqa xavfliroq jinoyatning oldini olishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida uning vazifalari keltirilgan bo‘lib, mazkur kodeksning asosiy vazifalaridan biri jinoyatlarning oldini olishdir. Uning bir qator normalari bevosita ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini belgilab beradi. Jumladan, 296-moddasida belgilangan vakolatlar doirasida jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud har qanday turdag'i jinoyatning jumladan, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlarni aniqlaydilar. Buning uchun kodeksning 297-moddasida belgilangan vakolatlar doirasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi, shuningdek, kodeksning 299-moddasiga asosan hududiy profilaktika inspektorlari va jamoat tuzilmalari ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan kiritilgan taqdimnoma va xususiy ajrimlarni bajarish majburiyatlarini oladilar. Ushbu majburiyatlarni bir oylik muddat ichida bajarmagan subyektlar, jumladan jamoatchilik tuzilmalari qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi 2000-yil 15-dekabr qonuni ichki ishlar organlarining terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning oldini olish bo‘yicha faoliyatini tartibga soluvchi manba bo‘lib, bugungi kunda terroristik tashkilotlarda ayollarning ishtirok etayotganligini, ular tomonidan bu turdag'i jinoyatlarning sodir etilishi mumkinligini inobatga olgan holda ularni oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi muhimdir. Mazkur qonunning 5-moddasiga asosan terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Qonunning 6-moddasida esa davlat boshqaruvi organlari,

mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdar shaxslar, shuningdek, fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadilar va zarur yordam berishlari to‘g‘risida qoida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi 2008-yil 7-yanvar qonunida ichki ishlar organlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi muayyan vazifalari belgilangan. Uning 6-moddasida bola huquqlarini ta’minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra jamoat tuzilmalari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va himoya qilishda ko‘maklashishi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordamlar ko‘rsatish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, jamoat tuzilmalari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishi hamda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkinligi belgilangan. Ushbu norma ichki ishlar organlarining jamoat tuzilmalari bilan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, xususan, qizlarning huquqlarini ta’minlash bo‘yicha faoliyatida hamkorligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi 2008-yil 17-aprel qonunining 7-moddasida ichki ishlar organlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xususan, jamoat tuzilmalari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, bilan o‘zaro hamkorlik qilishi, ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda aholi o‘rtasida keng miqyosda ogohlantirish-profilaktik ishlarni o‘tkazishga doir vakolatlari mustahkamlangan. Uning 8-moddasiga asosan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdar shaxslar, shuningdek, fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadi. Ushbu normalar ichki ishlar organlari ayollar tomonidan ko‘proq sodir etiladigan jinoyatlardan biri bo‘lgan odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010-yil 29-sentabr qonunining 19-moddasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki belgilangan. Mazkur qonunga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat tuzilmalari o‘z vakolatlari doirasida voyaga yetmagan qizlarning ma’naviy-axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etadi, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ko‘maklashadi, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga yordam ko‘rsatadi, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmagan qizlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar, jumladan, ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 22-aprel qonunining 11–14-moddalariga asosan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ularning subyektlari vakolatlari doirasida ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari bilan hamkorlikda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish, ushbu sohada mamlakatimizning mahallalarida ma’naviy muhit barqarorligini, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga va milliy istiqlol g‘oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, shuningdek inson huquqi va erkinliklarini ta‘minlash hamda himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Yana bir muhim huquqiy asos O‘zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi 2014-yil 25-sentabr qonunidir. Mazkur qonunga muvofiq davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlari, uning profilaktika xizmatlari nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik subyektlari sifatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolar, shu jumladan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarga daxldor boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasida hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may qonuni ham muhim huquqiy asosdir, unda ayollar tomonidan sodir etilayotgan huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha ushbu faoliyatni bevosita amalga oshiruv hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning vakolatlari belgilangan. Ichki ishlar organlarining ayollar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha vakolatlari qonunning 10-moddasida mustah-kamlangan.

Qonun normalariga asosan ichki ishlar organlari jamoat tuzilmalari bilan ayollar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning umumiy, yakka, maxsus, viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini hamkorlikda amalga oshiradi. Qonunning 21-moddasida bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda undagi jamoat tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbazarliklar profilaktikasidagi ishtiroki bo‘yicha vakolatlari belgilangan bo‘lib, mazkur norma ichki ishlar organlarining har qanday turdag, jumladan ayollar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha jamoat tuzilmalari bilan birgalikdagi ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Uchinchi guruh huquqiy asoslar sifatida jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladigan qonunlarning ijrosini ta’minlash, bu sohada faoliyat olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari, shuningdek, jamoat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, huquqbazarlik, uning sabablari va unga imkon beruvchi omillarning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi farmonlari va qarorlari ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olish bo‘yicha jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beradi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni asosida bugun huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirayotgan profilaktika xizmatlari tizimi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu farmonda jamiyatda har qanday turdag, jumladan, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyat va huquqbazarliklarning har qanday ko‘rinishlari, davlat, jamiyat, xalq uchun xavf tug‘diradigan zo‘ravonliklarning oldini olish, fosh etishda ichki ishlar idoralarining aholi

bilan hamkorligini yaxshilash, shuningdek, militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoatchilik bilan faoliyatini yaxshilashda bevosita ishtirok etishi va amaliy hamkorlik qilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2004-yil 19-iyul farmonida mamlakatimizda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning funksional-tashkiliy tuziflishini yaxshilash, mamlakatda jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlash borasidagi profilaktik ishlar samaradorligini oshirishga imkon bergenini, biroq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, sud-huquq sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning chuqurlashuvi, shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid solishga qaratilgan diniy ekstremizm va narkotiklar tajovuzining o‘sishi ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirishni talab etgani ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining, xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarning yoshlar ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2004-yil 25-may farmoni asosida 2004-yil 1-iyuldan boshlab fuqarolar yig‘inlari kengashlari apparatining tuzilmasiga tarbiyachi-pedagog lavozimi o‘rniga hududida kamida 500ta oila yashaydigan mahallalarda, tarkibida mahallalar tashkil qilinmagan posyolka, qishloq va ovullarda diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlari joriy etildi. Bugungi kunda militsiya tayanch punktlari negizida profilaktika (katta) inspektorlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar bilan o‘zaro hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo‘llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida»gi 2006-yil 10-oktabr farmoni profilaktika inspektorlarining militsiya tayanch punktlari negizida yoshlar bilan ishslash komissiyalari bilan hamkorligining huquqiy asoslaridan biridir. Ushbu farmon asosida fuqarolar yig‘ini huzuridagi yoshlar bilan ishslash komissiyasi faoliyatiga

doir yo‘riqnomasini tasdiqlangan. Mazkur yo‘riqnomada komissiyaning mahalla hududida istiqomat qiladigan yetakchi, faol, iqtidorli va namunali yoshlar bilan bir qatorda, notinch oilalar farzandlari, diniy ekstremistik oqimlarga hamda huquqbazarlikka moyil yigit-qizlar bilan tarbiyaviy tushuntirish ishlarini olib boradi. Bugungi kunda ushbu komissiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 7-oktabr 274-sonli qarori bilan tasdiqlangan fuqarolar yig‘inining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomga muvofiq o‘z faoliyatini yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-yanvardagi «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» hamda «O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarorlari ham yuqorida maqsadlarga xizmat qiladi.

To ‘rtinchi guruh huquqiy asoslar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining profilaktika xizmatlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini belgilab beruvchi quyidagi qarorlarini keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel-dagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash konsepsiysi to‘g‘risida» va 2001-yil 6-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi IIVda jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha profilaktika xizmatining rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarorlarida jinoyatchilikka, shu jumladan ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va huquqbazarliklarning oldini olishda mavjud tajribalardan kelib chiqqan holda, mahalla fuqarolar yig‘inlari tarkibida, profilaktika (katta) inspektorlari bilan joylarda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar o‘rtasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, yoshlar bandligi, kichik biznes, sport to‘garaklarini hamkorlikda tashkil etish zarurligi belgilangan. Shuningdek, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ichki ishlar organlari, jumladan, profilaktika xizmatlarining asosiy vazifasi etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Militsiya tayanch punktlari va ijtimoiy moslashuv markazlari infratuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2002-yil 16-may 162-sonli qaroriga asosan militsiya tayanch punktlarining atrofida sport maydonchalari va fan to‘garaklarining, kichik biznes shoxobchalarining tashkil etilganligi, yoshlarga

shart-sharoitlar yaratilishi, ularning bandligi ta'minlanishi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda qo'yilgan muhim omil bo'ldi. Ushbu qaror asosida profilaktika xizmatlari yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etishda bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF 3434-sonli farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi 2004-yil 29-iyun 299-sonli qaroriga asosan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar lavozimlari joriy etilib, ularni eng obro'-e'tiborli hamda shu sohada amaliy tajribaga ega, aholiga, birinchi navbatda, yoshlarga sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, eng yaxshi milliy-diniy an'ana va urf-odatlarni saqlash hamda rivojlantirish masalalarida samarali ta'sir ko'rsatishga qodir faol ayollar bilan to'ldirish nazarda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralariga mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to'g'risida», 2010-yil 26-noyabrdagi «Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida», 2010-yil 26- noyabrdagi «Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2011-yil 17 fevraldagi «Ma'muriy jazoga tortilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tizimini tashkil etish to'g'risida», 2013-yil 10-iyuldagagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartibini takomillashtirish to'g'risida», 2013-yil 30-sentabrdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risida», 2013-yil 7-oktabrdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi¹ qarorlari ichki ishlar organlari ning jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beradi.

Beshinchi guruh huquqiy asoslar sifatida O'zbekiston Respublikasi IIVning ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uni oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beruvchi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarini keltirish mumkin:

¹ Икрамов Ш.Т., Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктлари негизида ҳамкорликни ташкил этиш ва бошқариш: Ўкув-амалий қўлланма.–Т., 2013.–Б. 212.

IIVning «Huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash, profilaktika (katta) inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2014-yil 1-sentabr buyrug'i bugungi kunda ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uni oldini olishda profilaktika xizmatlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari hamda amalga oshirish tartibini belgilab beradi;

IIVning «Uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash tartibi to'g'-risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 2014-yil 11-noyabr buyrug'i uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxsning unga sud tomonidan o'rnatilgan taqiq yoki cheklov larga rioxaya etilishini nazorat qilish tartiblarini belgilab beradi. Mazkur yo'riqnomasi shaxsning uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi o'tash joylarida bo'lishini va ular tomonidan sudning qarori bilan o'rnatilgan taqiqlarga (cheklov larga) rioxaya etilishini nazorat qilish bo'yicha profilaktika inspektorlarining jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini belgilab beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari, uning boshqa sohaviy xizmatlari, xususan, profilaktika xizmatlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjatlar bugungi kunda yetarli darajada ishlab chiqilgan va amaliy organlar ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini ifodalovchi o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Biroq bugungi kunda ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uni oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan qonunlar hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bevosita ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bo'yicha asosiy vazifalarini belgilab beradi hamda ushbu sohadagi hamkorlikni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

2-§. Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining maqsadi va mohiyati

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yurt farovonligi, aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash birinchi galdag'i vazifaga aylandi.

Ma'lumki, jamiyatda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbazarliklar profilak-

tikasini tashkil etish huquqni muhofaza qilish idoralari zimmasiga yukla-tilgan asosiy hamda dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining ham munosib hissasi bor. Bugungi kunda ichki ishlar organlari ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uni oldini olish bo'yicha huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda vakolatli subyektlardan biri bo'lib, o'z faoliyati jarayonida huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, ayollar tomonidan sodir etilayotgan huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, huquqbazarliklar sodir etilishining sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbazarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishda bevosita davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik qiladi.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov: «Salbiy hodisalarining bar-chasi, jumladan, jinoyatchilik ham ma'naviy qashshoqlik, ma'rifiy kemtiklik sharoitida vujudga keladi. Ana shu xulosadan kelib chiqib aytish mum-kinki, qonunbuzarlikning oldini olish, tartibbuzarlikka qarshi kurashni kuchaytirish, hozirgi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida qonun ustuvorligini ta'minlash faqat huquqni muhofaza qilish idoralarinigina emas, balki har bir rahbarning, mahallaning, jamoatchilikning ham muhim vazifasiga aylanishi kerak»¹, - deb bejizga ta'kidlamagan. Zero, jinoyatchilikka, ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlik muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2001-yil 27-mart farmoni asosida sohada amalga oshirilgan islohotlar eng birinchi galda Ichki ishlar vazirligi huquqbazarliklarning oldini olish xizmatlarining tashkiliy tuziliishi va asosiy vazifalarini qayta belgilab olishni taqozo etib, respublikamiz hududida militsiya tayanch punktlarining hamda ularda profilaktika (katta) inspektorlarining faoliyatini yo'lga qo'ydi. Shu bois ichki ishlar idoralari ning moddiy-texnik bazasi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-huquqiy himoyalash takomillashtirilgan bo'lsa, ichki ishlar idoralari xizmatlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ular negizidagi jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi yanada mustahkamlandi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati ayrim institutlari, jumladan jamoat

¹Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997. – Б. 205.

tuzilmalarining sodir etilgan jinoyatlarning fosh etilishida ham munosib hissasi bor. Jinoyatlarni hamkorlikda fosh etish 2014-yilning o‘n ikki oy mobaynida 2013-yilning shu davriga taqqoslaganda, 13,8 foizga, 2014-yilda nisbatan 2015-yilda 11,7 foizga oshganligi bu sohada jamoatchilikning roli kuchayganini tasdiqlab turibdi. Demak, ichki ishlar organlarining nafaqat jamoat tuzilmalari, balki fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi muhim, nafaqat ayollar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish, balki ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda ham o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi, *birinchidan*, ushbu sohadagi qonunchilikning ijrosini samarali ta’minlashda, *ikkinchidan*, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi, *uchinchidan*, aholining barcha qatlamlari, xususan ayollar o‘rtasida ham birday profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llashda tezkorlik va tejamkorlikka erishish uchun muhimdir.

Islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining barcha tizimi hamda ular tarkibidagi sohaviy xizmatlarning jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi mustahkamlandi. Ayniqsa ichki ishlar organlarining barcha turdag'i, xususan ayollar jinoyatchiligidagi qarshi kurash va uni oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi IIVning buyruq va ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalari, viloyatlar, shahar, tuman xalq deputatlari Kengashlari hamda hokimlarning qaror va farmoyishlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIBlarining buyruq va ko‘rsatmalari talablari asosida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi.

Darhaqiqat, o‘tgan davr O‘zbekiston Respublikasida aholini qo‘llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolardan tashkil topgan jamoat tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo‘yilgani mazkur subyektlarning barcha turdag'i, xususan ayollar jinoyatchiligidagi qarshi kurash va uni oldini olish bo‘yicha hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu davrda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalarining roli sezilarli dara-

jada oshdi. Ularning barchasi aholining siyosiy, ijtimoiy faolligini oshirish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishning qudratli omilidir.

Fuqarolik institatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi aholining huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qilmoqda¹.

Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uni oldini olishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi, *birinchidan*, ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishini, *ikkinchidan*, ushbu faoliyatni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari tomonidan jamoat nazoratini amalga oshirilishi, *uchinchidan*, ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning profilaktikasini samarali tashkil etishga, to‘rtinchidan, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘tgan yillarda ichki ishlar idoralari tizimini bosqichma-bosqich isloq qilishda mazmun-mohiyatiga ko‘ra ularning jamiyatdagi roli va mavqeい ko‘tarildi. Fuqarolik jamiyati institatlari ijtimoiy sherikligini yanada kengaytirish borasida amalga oshirilgan tizimli kompleks chora-tadbirlar natijasida ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining aholi tinchligini tunu kun ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish borasidagi faoliyatini tashkil etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi o‘zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Bugungi kunda hududiy militsiya tayanch punktlarida profilaktika inspektorlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzurida faoliyat olib borayotgan mahalla oqsoqoli, diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari, mahalla kotibi hamda quyidagi komissiyalar bilan hamkorlik qilmoqda:

Fuqarolar yig‘ini komissiyalari:

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 42.

- fuqarolar yig‘inlarining taftish komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining yarashtirish komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining ma’rifat va ma’naviyat masalalari bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining xotin-qizlar bilan ishslash bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiyasi;
- fuqarolar yig‘inlarining jamoatchilik nazorati va iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiyasi¹.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ichki ishlar organlari keng jamoatchilik, mehnat jamoalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining faol yordamiga tayangan holda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini turli xil jinoiy tajovuzlardan himoya qilish borasidagi qonun talablarini bajarishga vakolatli mas’ul subyekt hisoblanadi. Shu bois ichki ishlar organlari ayollar jinoyatchiligidagi qarshi kurash va uning oldini olishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda, *birinchidan*, qonunchilikka qat’iy rioya qilishlari, *ikkinchidan*, yuqori darajada huquqiy madaniyatli bo‘lishlari, uchinchidan, aholi, ayniqsa xotin-qizlarning huquq-tartibotni mustahkamlash borasidagi fikrlarini inobatga olishlari, *to‘rtinchidan*, jamoatchilik yordamiga doimiy tayanishlari, *beshinchidan*, yuridik va jismoniy shaxslarning ariza va shikoyatlariga hamda xabarlariga tezlik bilan e’tibor berishlari va qonuniy chora-tadbirlarni ko‘rishlari, *oltinchidan*, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb madaniyati qoidalariga qat’iy amal qilgan holda xizmatda va oilada benuqson xulq-atvorga ega bo‘lishlari zarur.

¹ Izoh: hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig‘ini faoliyati asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini samarali tashkil etish, nafaqat jamiyatda ayollar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik-larning oldini olishga, balki aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom tur-mush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

3-§. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etish

Ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika (katta) inspektorlari ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash va uning oldini olish bo‘yicha faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-martda qabul qilingan «Fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 113-sonli qarori talablari asosida joylarda jamoat tartibini saqlashni ta’minlashda ichki ishlar organlariga ko‘maklashish uchun «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari tashkil etilib faoliyati yo‘lga qo‘ylgan.

Mazkur qaror talablaridan kelib chiqqan holda 1999-yil 19-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jazoni o‘tash joylari-dan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joyla-shishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalarini to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 180-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom bugungi kun talablari asosida qayta ishlab chiqilib, uning o‘rniga 2014-yil 4-martda Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolar yig‘inining «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 47-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur yangi tahrirdagi qarorga muvofiq, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar va ularning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faolligini, aholining o‘zaro hamjihatligini oshirish, ularning

jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarliklarning oldini olishdagi ishtiroki hamda ushbu sohada huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligini yanada takomillash-tirish maqsadida «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari faoliyatining asosiy yo'naliishlari zamon talabidan kelib chiqib belgilab berildi.

Profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va huquqbazarliklarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etishda «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining o'rni beqiyos. Posbonlar o'zları yashayotgan hududda sodir etilishi mumkin bo'lgan turli huquqbazarliklar, jumladan, ayollar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning oldini olishda, sodir etilgan jinoyatlarni ochishda, shuningdek ichki ishlar idoralari hisobida turgan ilgari sudlangan ayollar, jinoyat qilishga moyil shaxslar bilan ishslashda, qizlar uchun har xil sport o'yingohlari, bichish-tikish va boshqa turdag'i to'garaklarni tashkil etishda profilaktika inspektoriga ko'maklashmoqda.

Profilaktika (katta) inspektorlari «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi bilan ma'muriy hududda xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar ogohligini oshirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga ko'maklashish, huquqbazarlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolar faolligini oshirish ishlarida, aholida, birinchi navbatda, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolar yig'inlarida huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot ishlarini tizimli amalga oshirish, xalqimiz ma'naviyatiga zid bo'lgan turli salbiy ta'sirlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini samarali tashkil etish va o'tkazish, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik natijasida aholi farovonligi ta'minlanayotganligi, bu borada o'zining faol ishtiroki bilan munosib hissa qo'shish har bir fuqaroning vatanparvarlik va fuqarolik burchi ekanligini tushuntirish, fuqarolar yig'ini hududidagi ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari talablari, umumdavlat hamda hududiy dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash va ushbu jarayonda keng jamoatchilik ko'magini shakllantirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek uy qamog'i ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxslarni nazorat qilish masalalarida hamkorlik qiladi.

Ta'kidlash joizki, yurt osoyishtaligini ta'minlash, aholi tinchligini saqlash faqat Qurolli Kuchlar yoki huquq-tartibot idoralarining vazifasi emas, balki har birimizning muqaddas burchimizdir. Shu boisdan mahalla

posbonlari va chegarachilarga yordam beruvchi ko‘ngillilar ishini yanada takomillashtirish va bu ishga keng jamoatchilikni jalg etish lozim.

Profilaktika inspektorlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar bilan ayollar jinoyatchiliga qarshi kurash hamda uni oldini olish bo‘yicha hamkorligi ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu jamoatchilik tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2004-yil 25-may farmoniga asosan fuqarolar yig‘inlari kengashlari apparatni tuzilmasidagi pedagog-tarbiyachi lavozimi o‘rniga joriy etilgan. Bu lavozimga hayotiy tajribasi yuqori bo‘lgan, aholiga, birinchi navbatda, yoshlarga sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ibratli milliy-diniy an’analalar hamda urf-odatlarni saqlab qolish va rivojlantirish masalalarida ijobjiy ta’sir o‘tkaza oladigan obro‘li va faol xotin-qizlarning tayinlanishi belgilandi.

Hozirda diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar profilaktika (katta) inspektorlari bilan hamkorlikda jamiyat birligi, aholi osoyishtaligini buzishga qaratilgan g‘ayriinsoniy holatlar, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, ma’naviy va jismoniy jihatdan sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun fuqarolar yig‘ini faollari, ko‘chaboshilar, uyboshilar, posbonlar bilan birgalikda muntazam ravishda diniy ekstremizm va aqidaparastlikka qarshi aniq tadbirlar o‘tkazib borish, ma’rifiy-ma’naviy tadbirlarni uyuştirganda, dunyoviy va diniy bilimlarning qarama-qarshi kelmasligiga erishish, xalqimizning o‘ziga xos madaniy-ma’rifiy, milliy, diniy an’analari, urf-odat va rasm-rusumlarini o‘rganib chiqish va jamoatchilik orasida keng targ‘ib etish, mahallaning faol ayollarini aniqlash va ular yordamidan keng foydalanish, yoshlarning qiziqishlari, iqtidorlari, ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq barcha muammolarni muttasil o‘rganib borish kabi vazifalarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Umuman olganda, profilaktika (katta) inspektorlari maslahatchilar ko‘magida mahalladagi notinch oilalar bilan ishslash bilan bir qatorda, namunali oilalar bilan ishslash va ularning tajribasini ommalashtirish, mahallada istiqomat qiluvchilarning, shu jumladan, xotin-qizlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishda, kasanachilikni yo‘lga qo‘yishda, kerak bo‘lsa, mahalla aholisini ish bilan ta’minalash bo‘yicha tegishli korxona, muassasa va tashkilotlarga takliflar kiritishda hamkorlik qiladi.

XULOSA

Ushbu qo'llanma orqali biz hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifini berishga, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga, jinoyatchi ayollarning shaxsini va muayyan ijtimoiy muhit sharoitlarida uning shakllanish mexanizmini ochib berishga, shuningdek kriminologyaning eng murakkab muammolaridan biri – jinoyatlar profilaktikasi va jinoyat sodir etgan ayollarga jazo tayinlash muammosini hal qilish yo'llarini taklif qilishga harakat qildik.

Shu nuqtai nazardan ayollar jinoyatchiligining profilaktikasi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- ayollar jinoyatchiligining rivojlanishida so'nggi yillarda ko'zga tashlangan tashvishli tendensiyalar;

- jamiyatga, jamiyatdagi ma'naviy-psixologik muhitga, jamiyatning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq-atvorining salbiy ta'siri ortib borayotgani;

- ayollar jinoyatchiligining tuzilishida tamagirlik jinoyatlari yetakchilik qilishi, bu jinoiy qilmishlar davlatning iqtisod tizimiga va fuqarolarning shaxsiy mulkiga katta moddiy zarar yetkazayotgani;

- ayollar jinoyat sodir etishiga turki beruvchi o'ziga xos sabablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib, izchil profilaktika ishini yo'lga qo'yishning zarurligi;

- ayollar jinoyatchiligi muammolarini ilmiy o'rganish darajasining pastligi, bu ayollar jinoyatchiligining oldini olish ishlarini tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kabilar.

Qo'llanmada faqat ayollar jinoyatchiligiga xos bo'lgan va shuning uchun ham uni jinoyatchilikning tuzilishidan alohida hodisa sifatida ajratish imkonini beradigan ma'lum xossalari va ularning mazmun-mohiyati ochib berildi. Bu xossalarni g'ayriqonuniy xulq-atvorning obyektiv ko'rnishlarini o'rganishdagina emas, ayollar jinoiy faoliyatining xususiyati va bunga turki beruvchi sabablarni baholashda ham aniqlash mumkin.

Ayollarning jinoiy xulq-atvori ijtimoiy voqelikdagi obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Bunday omillar orasida ijtimoiy omillar yetakchi rol o'ynaydi.

Hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligi o'zining ijtimoiy belgilangan xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar jamiyatda sodir bo'layotgan tarixiy, jug'rofiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, demografik va boshqa o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Mazkur o'zgarishlar ayollar hayotiy faoliyatining mikroijtimoiy muhitida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Mikroijtimoiy muhit ayollar hayot yo‘lining turli bosqichlariga har xil salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu bevosita yosh, mehnat faoliyati, moddiy ahvol, oilaviy munosabatlarning holati kabi ma’lum ijtimoiy-demografik tafovutlar bilan belgilanadi.

Mahkum ayollar jazoni o‘tayotgan ozodlikdan mahrum qilish joylari sharoitida mikroijtimoiy muhitning salbiy ta’siri ayniqsa kuchli seziladi, bunday joylardagi muhit esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, erkak-larning koloniyalidagi muhitdan jiddiy farq qiladi.

Ayollarga nisbatan jinoiy jazo choralarini qo‘llash va jazoni ijro etishning samaraliligi bilan bog‘liq muammolarning keskinlashishi ayollar shaxsida turg‘un g‘ayriijtimoiy moyillikning shakllanishini belgilovchi kriminogen omillarning ta’siri uchun shart-sharoit yaratadi. Bunday omillar orasida uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatiga ayollarning jalb etilishida ichkilikbozlik, giyohvandlik va fohishalikning roli, muayyan shaxsga va norasmiy ijtimoiy guruhlarga, ayniqsa voyaga yetmaganlarga professional jinoyatchilarning an’ana va udumlarining ta’siri katta. Shuningdek, jinoiy faoliyat va fohishalikka voyaga yetmagan qizlarni jalb etish tendensiyalari, ayollarning rasmiy mehnat faoliyati professional jinoiy faoliyat bilan chatishishi ham diqqatga sazovordir.

Qo‘llanmada ayollarning professional jinoyatchiligi bilan bog‘liq alohida xususiyatlarni ko‘rib chiqishga e’tibor qaratdik. Pirovard natijada biz mazkur masala yuzasidan ayrim prinsipial xulosalar chiqarishga harakat qildik. Bu xulosalarning qisqacha mazmuni shundaki, ayollar professional jinoyatchiligi jinoiy faoliyat turlariga ko‘ra erkaklar professional jinoyatchiligidek rang-barang emas. Ayollar professional jinoyatchiligining tarixi ham shundan dalolat beradi. Umumiyligi jinoyatchilikning tuzilishida u erkaklar professional jinoyatchiligiga nisbatan yordamchi xususiyatga egadir. Norasmiy xulq-atvor normalari va qoidalari, jinoiy an’ana va udumlarga rioya qilish professional jinoyatchi ayollar muhitida hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

Ayollar professional jinoiy xulq-atvorining yuqorida zikr etilgan xususiyatlari nuqtai nazaridan, bizningcha, bu illatning oldini olishda jinoyatchi ayollar shaxsiga tipologik ta’rif berish muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar bunday ayollar shaxsining bir nechta tipini ajratish imkonini berdi. Bular: past malakali jinoyatchi ayollar, tamagirlilik-zo‘ravonlik jinoyatlari sodir etuvchi ayollar, yuqori darajada professional o‘g‘ri va firibgar ayollar, fohishaxonalarining egalari, giyohvandlik vositalari va o‘g‘irlik mollarni sotuvchilar – «o‘g‘ri onalar», jinoiy faoliyati, odatda, rasmiy mehnat bandligi sohasida mansab vakolat-

larini bajarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan «oqsuyak» professional jinoyatchi ayollar.

Shunday qilib, qo‘llanmada ayollarning g‘ayriqonuniy xulq-atvori bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishga oid ma’lum yondashuvning zarurligi o‘z ifodasini topdi. Bu ikki jihat: *birinchidan*, ayollar jinoyatchiligini jinoyatchilikning alohida tarkibiy elementi sifatida o‘rganish, *ikkinchidan*, ushbu muammoni jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy kriminologik hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari qatorida tadqiq etishning zarurligi bilan belgilanadi.

Umuman olganda, qo‘llanmada talqin qilingan ayollar jinoyatchiliga qarshi kurashga oid umumdavlat ahamiyatiga molik va maxsus kriminologik xususiyatga ega chora-tadbirlar bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy muammolarini hal qilishga bog‘liq.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

1-§. Ayollar jinoyatchiligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari	6
2-§. Jinoyat sodir etgan ayollar tipologiyasi	14

II BOB

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING SABAB VA SHAROITLARI

1-§. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablari	22
2-§. Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar	39
3-§. Jinoyat sodir etgan ayollar tasnifi	47

III BOB

JINOYAT SODIR ETGAN AYOLLAR PSIXOLOGIYASI VA ULAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

1-§. Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda psixologik bilimlarning ahamiyati	56
2-§. Jinoyat sodir etuvchi ayollar psixologiyasi	59
3-§. Jinoyat sodir etuvchi ayollar bilan ishlashning psixologik jihatlari	74

IV BOB

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASI

1-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy profilaktikasini tashkil etish	81
2-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning maxsus profilaktikasini tashkil etish	83
3-§. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasini tashkil etish	86
4-§. Ayollarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish	89

V BOB
AYOLLAR JINOYATCHILIGI PROFILAKTIKASIDA ICHKI ISHLAR
ORGANLARI SOHAVIY XIZMATLARI HAMKORLIGI

1-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamkorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili va tasnifi.....	94
2-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari hamkorligining ahamiyati, maqsadi va shakllari.....	100
3-§. Ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining hamkorligini tashkil etish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	108

VI BOB
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING AYOLLAR JINOYATCHILIGI
PROFILAKTIKASIDA JAMOAT TUZILMALARI BILAN HAMKORLIGI

1-§. Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili va tasnifi	120
2-§. Ichki ishlar organlarining ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining maqsadi va mohiyati	130
3-§. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasida jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etish	135
Xulosa	138

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABAB VA SHAROITLARI HAMDA PROFILAKTIKASI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **B. Q. Ergashev**
Texnik muharrir **D. R. Djalilov**

Bosishga ruxsat etildi 06.06.2016. Nashriyot hisob tabag‘i 10,0.
Adadi 30 nusxa. Buyurtma № .

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘ch., 68.